O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

AL - XORAZMIY NOMIDAGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

# UMUMIY PEDAGOGIKA

fanidan o`quv qo`llanma

Tuzuvchi: D. Nafasov.

URGANCH – 2010

## Kirish

"Umumiy pedagogika" bo'yicha dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlarining bakalavrlar uchun " Umummaxsus fanlar" bloki bo'yicha tuzilgan.

"Umumiy pedagogika" kursining asosiy maqsad va vazifalari: bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanlarning nazariy asosdagi bilimlari bilan qurollantirish; Kadrlar tayuorlash milliy dasturi asosida o'quvchilarni g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatadi; pedagoigk faoliyatni to'la anglay olish qobiliyatini shakllantirish; pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion yo'nalishlarni o'rganish; korrektsion (maxsus) pedagogika asoslarini o'rganish.

Bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga qo'yilgan talablar: ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari; ilmiy-nazariy asoslari, pedagogika nazariyasi tushunchasi, uning kategoriya va printsiplari; o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar; ta'lim oluvchilar shaxsi omilllari, uning shakllanish taraqqiyoti; yagona o'quv-tarbiya jarayonini realizatsiya va shakllantirishning asoslari va shakllari; tarbiya jarayonining qonuniyatlari va printsiplari; ilg'or pedagogik texnologiya asoslari; pedagogik terminologiya.

Talabalar quyidagilarni bajara olishlari shart: milliy istiqlol g'oyasi va asosiy pedagogik qonuniyatlar va printsiplarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish; ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llash; ta'lim va tarbiya metodlari vositalarni amaliyotda qo'llash, aniq vaziyatlar uchun ularning optimal variantlarini tanlash; o'quv va tarbiya jarayonida kolektivdagi o'quvchilar jamoasini samarali boshqarish; o'quvchilar xulqi va faoliyatini stimullash; pedagogik vaziyatlarni, ta'lim va tarbiya natijalarini tahlil etish, o'quvchilar va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash.

Talabalar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari zarur: psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish;samarali pedagogik tadqiqotlar o'tkazish; ta'limning axborot texnologiyalaridan foydalana olish; sinf va guruh rahbarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarini ijodiy, erkin fikrli, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni realizatsiyalash va rejalashtirish; mahalla va ota-onalar bilan amaliy ishlar; jamoaning psixologik sharoitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish.

## MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI

2 soat

Asosiy masalalar:

*Pedagogika fanining predmeti.*
*Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.*
*Pedagogikaning asosiy tushunchalari.*
*Pedagogikaning metodologik asosi.*
*Pedagogika fanining tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi.*

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: ijtimoiy tarixiy tajriba, barkamol avlod, milliy qadriyatlar; ta'lim-tarbiya, ob'ekt va predmet, pedagogika, pedagog; mazmun, maqsad, qonun-qoida, shakl va usullar, nazariya va amaliyot, samaradorlik; o'zbek xalq pedagogikasi va o'zbek pedagogikasi; katergoriya, tushuncha, ma'lumot, ta'lim, tarbiya, rivojlanish; metodologik asos, pedagogik fanlari tizimi; ilmiy-tadqiqot usullari, kuzatish, test, suhbat, bolalar ijodi, maktab hujjatlari, eksperiment, kibernetika, statistik ma'lumotlar va hakozo.

1 – asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: talabalarda tarbiya ijtimoiy hayot zarurati ekanligiga ishonch xosil etish.
Pedagogika fani uchun umumiy bo'lgan zarur tushunchalarni izohlab borish.
Fanning faoliyatini to'laroq ongiga singdirish.
O'qituvchi kasbiga qiziqishni kuchaytirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.Pedagogikani asosiy tushunchalarini izohlaydi.
2.Asosiy pedagogika tushunchalarining farqiga boradi.
3.Tushunchalarga mos holda o'qituvchilik kasbi haqida hulosa chiqarad.

T*a'lim to'g'risidagi davlat hujjatlarini nomlaydilar.*
*Ta'lim-tarbiya hayotiy zarurat ekanligini asoslab beradilar.*
*Ta'lim va tarbiyaning rivojlanish bosqichlariga izoh beradilar.*

1 – asosiy masalaning bayoni:

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan barcha ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotimizga tub islohotlar ro'y bera boshladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya tizimi, uning maqsad va vazifalari, mazmuni qayta ko'rib chiqildi, unga tegishli davlat hujjatlari qabul qilindi.
Prezidentimiz o'z nutqida ta'kidlaganidek, har qanday diyonatli ota-ona o'z farzandi oldidagi burchini quyidagicha belgilab oladi: «yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasb-xunarli qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish». Barchaga tushunarliki bu - hayotiy zarurat. Keksa avlod yosh avlodga o'z tajribalarini etkazishi, ularni ertangi hayotda tayyorlashi lozim.
Haqiqatdan ham bola dunyoga kelar ekan, o'z zamonasining jamiyat rivojlanganlik darajasiga ko'tarilishi, oldida turgan ijtimoiy tarixiy tajribalarni egallashi, hayotda o'z o'rnini topishi, milliy taraqqiyotda faol ishtirok etishi, boshqacha qilib aytganda ta'lim-tarbiya olishi zarur. Kelajak–yoshlarniki. O'zbekistonning har tomonlama taraqqiy etishi ko'p jihatdan yoshlarga, ularning barkamol avlod bo'lib etishishiga bog'liqdir. SHuning uchun ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz, xalqimiz, har bir ota-ona, o'qituvchi va tarbiyachilar jiddiy e'tibor berishlari lozim bo'lmoqda.
Aslini aytganda, ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lganidan buyon mavjuddir. Ibtidoiy jamoa davrida ta'lim-tarbiya umumning ishi hisoblangan. YAshash uchun zarur bo'lgan maxsulotlarni qo'lga kiritish jarayonida yosh avlodga to'plangan ko'nikma va malakalar berib borilgan: o'g'il bolalar juda erta erkaklar bilan har xil ovlarga borishar edi, qizlar oziq-ovqat tayyorlashga, idish-tovoq, koplar tayyorlashga yordam berar edilar. Tarbiya bevosita mehnat bilan bog'liq holda berib borilgan.
quldorchilik davriga kelib quldorning bolasiga beriladigan tarbiya bilan quldorning bolasiga beriladigan tarbiya o'rtasida tafovut vujudga keldi. Bu davrga kelib ta'lim-tarbiyaning tamal topishini belgilaydigan qonun-qoidalar, urf-odatlar tizimi

shakllandi va taraqqiy etdi. O'qituvchi-tarbiyachi faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, maktablar paydo bo'la boshladi.

Feodalizm jamiyati davriga kelib ta'lim-tarbiya mazmuni hayotda alohida yuqori darajaga erishdi. Dexqonchilik, chorvachilik, katta-katta er maydonlarini boshqarish ko'plab bilim talab eta boshladi. Ilm-fan, madaniyat, san'at taraqqiy etdi, vujudga keldi. Ayniqsa islom dinining kirib kelishi jamiyatning ma'naviy hayotiga tub o'zgarish yasadi. Bu orada o'zbek xalq pedagogikasi shakllandi va o'z tarbiyaviy vazifasini o'tadi. O'sha davr ta'lim-tarbiyasi ta'siri ostida Markaziy Osiyoda al-Xorazmiy, Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Buxoriy kabi ko'plab allomalar etishib chiqdilarki, ularni aytib ado qilib bo'lmaydi.

qizil imperiya davrida ta'lim-tarbiya mazmuni hayotimizda o'ziga xos harakterga ega bo'ldi. Bu davrda biz eng muhimi milliy mafkura, ma'naviy qadriyat, urf-odatlarimizdan uzilib qoldik. 70 yillik mutelik oqibatida ta'lim-tarbiyadagi milliylikka putr etdi.

Bugungi kunga kelib esa barcha qadriyatlarimiz, ma'naviy qadriyat-larimiz, urf-odatlarimiz, milliy ta'limiy-tarbiyaviy tajribalarimiz qayta tiklandi. Mustaqil O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri–yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya hayotning ajralmas bir qismi, u ijtimoiy-tarixiy zarurat sifatida paydo bo'lgan, bor va bo'ladi.

Nazorat topshiriqlari:

*1. Ta'lim to'g'risida qanday davlat hujjatlarini bilasizlar?*
*2. Ta'lim-tarbiyaning hayotiy zarurat ekanligining asosiy sabablari nimada?*
*a) Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil ekanligida*
*v) Tajriba almashishning kerakligida*
*s) Kelajak–yoshlarning bo'lganligida*
*3. qaysi davrga kelib O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ravnaq topdi?*
*a) quldorlik*
*v) feodalizm*
*s) mustamlaka*

2 – asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: talabalarda pedagogika faniga nisbatan qiziqish uyg'otish, u shug'ullanadigan ob'ekt va predmet bilan yaqindan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*2.1. Pedagogika fanining predmetiga aniqlik kiritadilar.*
*2.2. «Pedagogika» so'zining dastlabki ma'nosini ochib beradilar.*

*2.3. Bugungi kunda pedagogika nimalarni o'rganuvchi fan ekanligini isbotlab beradilar.*

2 – asosiy masalaning bayoni:

Har bir fan ma'lum bir ob'ektni o'rganishda o'z tadqiqot predmetini tahlil etadi. Har bir fanning mustaqil faoliyat ko'rsatishi ham o'zining maxsus tadqiqot predmetiga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Faqat pedagogika fanigina o'z predmetini inson tarbiyasi jarayonini o'rganish qilib olgan.

«Pedagogika» atamasi «Payne» – «bola» va «agogeyin» -«etaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan. Eramizdan oldingi III-IV asrlarda qadimgi Gretsiyada, quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi – qullarni «pedagog» deb atalgan. U bolaning kamolga etishiga mas'ul bo'lgan, bolani maktabga etaklab borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskalar» (didayko – men o'qitaman) deyishgan.

Keyinchalik pedagog deb maxsus tayyorlangan, pedagogik faoliyat ular uchun kasb bo'lgan kishilarni atashgan.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, tashkil etish shakllari hamda usullari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Bugungi kunda pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonun-qoidalari va amalga oshirish yo'llarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandir.

Kishi pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganishi lozim, uni nafaqat bilish, balki amalda qullay olishi ham lozim. Bunda tarbiyachining beg'araz mehnati, bolalarni sevishi va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

Tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa, pedagoglik ishini o'ziga kasb qilib olgan kishilar mazkur fanni chuqur va puxta bilishlari shart. Aks holda katta xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin.

Hozirgi kunda pedagogikani har qanday kishi ham bilishi lozim. CHunki u o'z hayotiy faoliyatida tarbiyaviy ishlarni ham bajarishiga to'g'ri keladi (xech bo'lmaganda farzandlarini tarbiyalaydi-ku?).

Ijtimoiy taraqqiyot davomida to'plangan tajribalar tarbiya mazmunini tashkil etsada, ularning hammasini yoshlarga o'rgatishning iloji yo'q, albatta. Ularning ko'pi eskirgan, yaroqsiz bo'lishi mumkin, yoki murakkab tomonlari mavjud bo'ladi va hakozo. Eng muhimi, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy extiyotlariga va kelajakda kutiladigan o'zgarishlarni hisobga olib tarbiya mazmunini shakllantirish lozim.

Masalan, quldorchilik jamiyatida mavjud bo'lgan tarbiya usullarini kapitalizm jamiyatiga tadbiq etib bo'lmaydi. Evropa ta'lim-tarbiyasini o'zbek xalqi tarbiyasiga singdirishga harakat qilish kaltabinlikdir.

O'zbek pedagogikasining vazifasi respublikamizda yashovchi turli millat-elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini

milliy qadriyatlar asosida to'g'ri xal etib berishdir. Bunda o'tmish allomalarimizdan tortib, hozirgi kun fan yutuklaridan hamoxang qirralarni izlab topish taqozo etiladi.

Nazorat topshiriqlari:

*2.1.1. Pedagogika fanining predmeti nimada?*
*2.2.1.«Pedagogika» so'zining ilk manosi?*
*a) «daydogogos»*
*v) «bola etaklamoq»*
*s) bola etaklovchi qul.*
*2.3.1.Bugungi kunda pedagogika nimalarni o'rganuvchi fan?*
*a) ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalarini*
*v) ta'lim-tarbiya jarayoni qonun-qoidalarini*

3–asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: talabalarni pedagogikaning asosiy kategoriyalari bilan yaqindan tanishtirish, ularni bir-biridan farqlashga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*Kategoriyalar haqida umumiy tasavvurlarini bayon etadilar.*
*Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini sanab o'tadilar.*
*Asosiy kategoriyalarni bir-biridan farqlaydilar.*

3–asosiy masalaning bayoni:

Har qanday fan o'z kategorial apparatlariga, ya'ni asosiy tushunchalariga ega. Masalan, N2O deganda ximiya, cos, cot deganda matematika va hakozo. Ta'lim, tarbiya deganda esa albatta pedagogika fani tushuniladi. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga "ta'lim", "tarbiya", "ma'lumot", "rivojlantirish" kabi tushunchalar kiradi, ular bir-birini to'ldiradi. Bulardan tashqari, "o'quvchi", "o'qituvchi", "usul", "qoida", "jamoa", "intizom", "irsiyat", "muxit", "direktor" va hakozo kabi tushunchalar mavjudki, bular haqida alohida mavzularda so'z yuritamiz.
Ma'lumot – bu insoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'zlashtirish natijasidir. U asosan rejali ta'lim-tarbiya va boshqa yo'llar bilan olinadi. Ma'lumot to'liq olib bo'lingach kishiga tegishli hujjat beriladi: guvoxnoma, diplom, sertifikat va hakozo.
Ta'lim – bu maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida amalga oshiriladigan ma'lumot berish jarayonidir. Bu jarayonda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, ularning qobiliyatlari rivojlantiriladi. Ta'lim ikki tomonlama hamkorlikdagi faoliyatni talab etadi: o'qituvchi va o'quvchining hamkorligini.
Tarbiya – bu milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifat va insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Tarbiya bola to'g'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadi. Tarbiya so'zini keng ijtimoiy ma'noda va aniq pedagogik ma'noda ham tushunish mumkin.

Rivojlanish – bu shaxsning jismoniy va ma'naviy kamolga etishida ketma-ket harakati, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'tib borishidir.
Bu to'rtta tushuncha pedagogikaning asosiy kategoriyalari bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi. Ushbu tushunchalarni kishi qay darajada chuqur va keng bilishi bilan pedagogika bo'yicha saviyasini aniqlash mumkin. CHunki pedagogikaning boshqa kategoriya tushunchalari ularning tarkibiy qismlarini tashkil etadi.
Nazarat topshiriqlari:

*3.1.1. Kategoriya deganda nimani tushunasiz?*
*3.2.1. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?*
*Tarbiya jarayonida o'quvchilarda nimalar shakllantiriladi?*
*a) bilim, ko'nikma*
*v) shaxsiy sifatlar.*
*Ma'lumot nima?*
*a) bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish.*
*v) bilim, ko'nikmalar tizimini o'zlashtirish.*

4 – asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasini asoslab, pedagogika fanining turli tarmoqlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*4.1. Pedagogikaning qaysi fanlar bilan aloqasi borligini sanab o'tadilar.*
*4.2. Pedagogikaning metodologik asosini tashkil etuvchi fanga izoh beradilar.*
*4.3. Pedagogika fanini tarmoqlarga ajratadilar.*
*4.4. Pedagogika fanining mavzu baxslariga aniqlik kiritadilar.*

4 – asosiy masalaning bayoni:

Pedagogika fani yakka holda rivojlana olmaydi. Boshqa fanlar kabi u ham ijtimoiy fan yutuklaridan foydalanadi. Pedagogika fani falsafa, tarix, iqtisod, psihologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan doim aloqadordir. O'qituvchi – tarbiyachi bu fanlarni bilmay turib ish ko'rishi mumkin emas. Falsafa pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi. Etika, estetika fanlari esa pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi.
Tarix, psihologiya, sotsiologiya kabi fanlarni ham o'qituvchi bilmasligi mumkin emas. Pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, maktab gigienasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustaxkam aloqada chambarchas bog'liq.
Pedagogika fani ob'ekti asta sekin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari har bir necha guruhlarga ajratilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb ataladi.
Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo'lingan.
Umumiy pedagogika - maktab yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida baxs yuritadi;

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi;
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanadi;
Oliy ta'lim pedagogikasi - talabalarga kasbiy ta'lim va tarbiya berish muammolari bilan shug'ullanadi;
Madaniy-okartuv pedagogikasi - madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolari bilan shug'ullanadi.
Xunar-texnika ta'limi pedagogikasi;
Harbiy pedagogika;
Injenerlik pedagogikasi va hakozo.

Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolatda kusuri bor bolalar ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika deb yuritiladi.
Maxsus pedagogika tuzilishiga: "oligofreno" pedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish); "tiflo pedagogika" (ko'r bolalarni tarbiyalash); "surdo pedagogika" (kar-sokov bolalarni tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

Nazorat topshiriqlari:

*4.1.1. Pedagogika qanday fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi?*
*4.2.1. Falsafa – pedagogikaning metodologik asosi ekanligini izohlab bering.*
*4.3.1. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?*
*4.4.1. Maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagogika.*
*a) maxsus pedagogika*
*v) boshlang'ich ta'lim pelagogikasi*
*s) umumiy pedagogika*
*4.4.2. Oligofreno pedagogikasi qanday kusiri bo'lgan o'quvchilar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadi?*
*a) aqlan zaif*
*v) kar-sokov*
*s) ko'r*

5. Asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: talabalarda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullariga nisbatan qiziqish uyg'otish, ulardan qanday maqsadlarda foydalanishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*5.1.Pedagogika ilmiy-tadqiqot usullarining vazifalarini aniqlaydilar.*
*5.2.Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini guruhlashtiradilar.*
*5.3.Ilmiy-tadqiqot usullarini pedagogikaning boshqa usullaridan farqlaydilar.*
*5.4. Ilmiy-tadqiqot usullarini to'g'ri tanlay biladilar.*

5 – asosiy masalaning bayoni:

Har qanday fan o'z ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Pedagogika o'z tadqiqot usullari orqali pedagogik xodisa va jarayonlarni o'rganadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani boyib boradi.

Bugungacha mavjud va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy-tadqiqot usullariga tayanib fikr yuritsa bo'ladi: *1) kuzatish usuli; 2) suhbat usuli; 3) bolalar ijodini o'rganish usuli; 4) test, so'rovnomalar usuli; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli; 6) eksperiment, tajriba, sinov usuli; 7) statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli; 8) matematika-kibernetika usuli.*

Kuzatish usuli

Mazkur usul ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini aniqlashga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu usul ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad, reja qanday qilib amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Odatda, tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvorlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilab olish uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki, ularning ilmiy dunyo qarashlari shakillanishi, fikirlash jarayoni kuchi, faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bu bilan pedagogika fani mazmuni boyib boradi.

Suhbat usuli

Suhbat usuli maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda oldindan reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, bunda oldindan reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil etiladi va tegishli xulosalar chiqariladi. SHuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yunaltira olishni bilishi, suhbatdoshning ruxiy holatiga qarab suhbat oxangini moslashtirishi g'oyat muhimdir.

Bolalar ijodini o'rganish usuli

Bunda maktab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Maqsad mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijobiy xislatlarni shakllantirishdir. SHu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va xikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, yozma hisobotlari va hakozo, ular ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, iqtidorli, talantli yoshlarni ertaroq aniqlash, ular uchun zaruriy sharoitlar yaratish imkoni tug'iladi. Bolalar ijodini o'rganish manbalari: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, sayoxatlar va hakozo.

Test, so'rovnomalar usuli.

So'rovnoma – anketa (frantsuzcha "tekshirish" ma'nosini bildiradi) usuli qo'llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.
Respublikamizning barcha maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga test usuli joriy etildi. Bu baholash jarayonini tezlashtiradi. Test savollarining sifati alohida ahamiyat kasb etadi.
Savolnoma va testlar turlicha bo'lishi mumkin: ochiq, yarim ochiq, yopiq va hakozo.

5. Maktab hujjatlarini tahlil qilish usuli

Ta'lim to'g'risidagi davlat qonunlari asosida maktabda bajariladigan ta'lim-tarbiya ishlarini yuritish hujjatlari mavjud.
Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi.
Maktab hujjatlariga quyidagilar kiradi: o'qituvchi va o'quvchilar soni, o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jo'rnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar. Bu usul maktabdagi barcha soxalarda erishilgan yutuk va kamchiliklarni aniqlash va yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.

6.Eksperiment – tajriba – sinov usuli

"Eksperiment" so'zi lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilish" ma'nosini anglatadi. Eksperimental-tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba ishlari ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.
Eksperiment usuli sharoitga qarab uch xilda o'tkaziladi: *1) tabiiy eksperiment; 2) laboratoriya eksperimenti; 3) amaliy tajriba.*
Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi

7.Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli

Pedagogik tadqiqot statistika ma'lumotlarisiz, ularning tahlilisiz o'zligini namoyon etolmaydi. CHunki, nafaqat ilmiy izlanishlar, balki xalq ta'lmi soxasidagi ko'plab ma'lumotlar statistika usuli orqali aniqlanadi (ta'lim muassasalari, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurollar, xujalik shartnomalari va hakozo). Statistik ma'lumotlarning aniq, real bo'lishi katta ahamiyatga ega.
8.Matematika va kibernetika usullari

«Kibernetika» grekcha "rolni bajaraman", "idora etaman" degan ma'nolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi. Uning mazmuni axborot berish, dasturlashtirish, algoritmlar, boshqaruvchi tizm, model yasash singari asosiy nazariyalarda o'zligini namoyon etadi. Jumladan, mazkur usulni pedagogikaga ham tadbiq etish harakati kuchaymoqda.
O'qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash maematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli ta'lim va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustaxkamlash, baholash orqali ta'lim, tarbiya samaradorligini oshirish, differentsial va individual ta'lim berish, maktab hisobotini mashinalar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda.
Lekin, hozircha maktab ta'lim-tarbiya jarayoniga matematik hisoblash va kibernetika yutuklarining kirishi sust, talab darajasida emas.
Tadqiqot ishlarida pedagogik jarayonni modellashtirish alohida o'rin tutadi.

Nazorat topshiriqlari

*5.1.1.Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari qanday vazifa bajaradi?*
*a) pedagogikaning mazmunini boyitadi, yangilaydi*
*v) pedagogik jarayonlarni tekshiradi*
*5.2.1.Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini guruhlashtiring.*
*5.3.1.Ko'rsatmalilik pedagogikaning qanday usuliga kiradi?*
*a) ilmiy-tadqiqot usuli*
*v) ta'lim usuli*
*5.4.1.Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash pedagogikaning qaysi ilmiy-tadqiqot usuli orqali amalga oshiriladi?*
*a) suhbat*
*v) kuzatish*
*s) bolalar ijodini o'rganish*

MUSTAQIL ISHLAR

Turli ijtimoiy davrlarda ta'lim-tarbiya mazmuni qanday bo'lganini tavsiflang.
Pedagogika fanining ob'ekti va predmetiga aniqlik kiriting.
Pedagogikaning asosiy kategoriyalaridagi uzviy aloqadorlikni asoslab bering.

Pedagogikaning turli tarmoqlariga tavsif bering.
Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llab ko'ring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 yil.*
*Munavvarov A.K. – "Pedagogika", T., "O'qituvchi" 1996 yil.*
*Mavlyanova R.A., Turaeva O.T., Holikberdiev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 yil.*

MAVZU : «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI QONUN VA «KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI»NING PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA AMALIYOTI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.

*4 –soat ma'ruza.*

Asosiy savollar (masalalar):

*1.« Ta'lim to'g'risidagi» qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligi.*
*2.«Ta'lim to'g'risida» qonunning mazmuni.*
*3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonunning mantiqiy davomi sifatida.*
*4.« Ta'lim to'g'risidagi» qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturining nazariy va amaliy kiymati.*

Tayanch ibora va tushunchalar

« Ta'lim to'g'risidagi» qonun, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim turlari, ijtimoiy himoyalash, ta'lim standartlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, huquqiy makom, atesttatsiya, akkreditatsiya, nodavlat ta'lim muassasasi, bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktarantura, davlat granti, Respublika budjeti, maxalliy budjet, budjetdan tashqari jamg'arma, ta'limni taraqqiy ettirish fondi, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat, umumiy va o'rta ta'lim, intellektual rivojlanish, dissertatsiya, fan nomzodi, fan doktori, malaka oshirish, monitoring, muassis tashkilot, moliyalash, yaxlit axborot makoni, axborot texnologiyasi, marketing, ta'lim tizimini integatsiyalashuvi.

1.« Ta'lim to'g'risidagi» qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligi

O'qituvchining maqsadi: «Ta'lim to'g'risidagi» qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligini talabalarga tushuntiradi. Ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlar (vazifalar):

*1.«Ta'lim to'g'risidagi» qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligini tushuntiradi.*
*2.« Ta'lim to'g'risidagi» qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligini asoslb beradi.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillakni qo'lga kiritgandan so'ng jamiyat taraqqiyotida qonun ustivorligiga alohida e'tibor berib boshlandi. Demokratiya va insonparvarlik tamoyillariga har tomonlama mos bo'lgan Konstitutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unga suyangan holda 1997 yilning avgustida Oliy Majlisning IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida» qonunlarini qabul qilindi.
Bu hujjatlar bir qaraganda mamlakatimizda ma'orif ishlarini tartibga solish, ma'lum bir muddat davomida uning rivojlanishini ta'minlash maqsadiga qaratilgandek tuyuladi. Aslida esa ularning mohiyatiga chuqur ijtimoiy –siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy maqsad va vazifalar kiritilgan bo'lib, yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o'ziga xos modeli ishlab chiqilgan.
Mazkur qonunlarning hayotga tadbiq etilishi xalq xujaligining barcha soxalarini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. CHunki bu qonunlar jamiyatning har bir a'zosiga qobiliyati, qiziqish, va intilishlariga mos bo'lgan ta'lim – tarbiya berish, shaxsiy sifatlarni to'la tarkib toptirish hamda namoyon etish imkonini yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha kishilarga mos bo'lgan ta'limni olishi, kasb egallashi, uni takomillashtirib borishlariga to'la sharoit yaratishga mo'ljallangan.
Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlashning milliy dasturi o'zaro mantiqan bir –biriga bog'langan bo'lib, hozirgi sharoit uchun eng mukammal ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning metodologik asosi vazifasini o'taydigan mazmunni kasb etadi. Bu hujjatlar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ta hayotiy bo'lib, uni sinchkovlik bilan o'rganishni, ta'lim –tarbiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda va hayotga tadbiq etishda unga amal qilishni taqozo etadi.

Nazorat topshiriqlari:

*1.« Ta'lim to'g'risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur» nechanchi yil va kaerda qabul qilindi?*
*A. 1997 yil 19 avgust Oliy majlisning IX sessiyasida.*
*B. 1998 yil 29 avgust Oliy majlisning X sessiyasida*
*V. 1997 yil 29 avgust Oliy majlisning IX sessiyasida*
*G. 1992yil 29 avgust Oliy majlisning XI sessiyasida.*
*2. « Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur» qonunlarining hayotga tadbiq etilishi qanday ahamiyatga ega?*
*A. Xalq xujaligini tubdan isloh etilishini ta'minlaydi.*
*B. xalq xujaligigining barcha soxalarini yangi taraqqiyot bosqichlarga ko'tarish uchun xizmat qiladi.*
*V. xalq xujaligini barcha bosqichlarini tubdan isolx etilishini ta'minlaydi.*
*G. Oliy, O'rta maxsux va Xalq ta'limini isloh etilishini ta'minlaydi.*

*3. «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida»gi qonunlarning mohiyatini tushuntradi.*
*4. «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida»gi qonunlarning mohiyatini izohlaydi*
*5. «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida»gi qonunlarning mazmunini sharxlaydi*
*6. «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida»gi qonunlarning mohiyatini asoslaydi.*

2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmuni:

O'qituvchining maqsadi: «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini talabalarga tushuntiradi. qonunni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari (vazifalari):

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini aytib beradi
«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini asoslab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1 - chaqiriq 9 sessiyasida 1997 yil 29 avgustida tasdiqlangan qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat.

Umumiy qoidalar G'8 moddaG'.
Ta'lim tizimi va turlari G'11 moddaG'.
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish 5 G'moddaG'
Ta'lim tizimini boshqarish G'5moddaG'
YAkunlovchi qoidalar G'5moddaG'.

Umumiy qoidalar:

Bu bo'limda mazkur qonunning maqsadi, qonun hujjatlari, xalqaro shartnomaga amal qilish yo'llari, davlatning (siyosatining ta'lim soxasida asosiy tamoyillari printsiplari), ma'lumot olish huquqlari, pedagogik faoliyat yuritish huquqi, ta'limiy muassasalarning huquqiy makomlari, davlatning ta'lim to'g'risidagi standartlari va ta'limni qanday tilda olish kabi holatlar ko'rsatilgan.
qonun barcha fuqarolarning ta'lim, tarbiya va kasb tayyorgarligi olishining konstitutsiyaviy asoslarini belgilab beradi.
O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ta'lim soxasidagi asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:
*-ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik va demokratiyaga amal qilishi;*
*-ta'limning uzluksizligi va izchilligi;*
*-o'rta umumiy, o'rta maxsus hamda kasb ta'limining majburiyligi;*
*-o'rta maxsus, kasb ta'limi beruvchi akademik litsey hamda hunar kollejini tanlashning ixtiyoriyligi;*
*-ta'lim tizimining dunyoviylik xususiyati;*

*-davlat ta'limi standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun tengligi;*
*-ta'lim dasturini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;*
*-iste'dod va ta'limga qiziqishni rag'batlantirish;*
*-ta'lim tizimini boshqarishda davlat va jamoatchilikning uyg'unligi.*

O'zbekistonda yashayotgan har bir kishi ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, barcha tafovutlarga qaramasdan teng huquqlidir. Ta'lim olishning bepul va pullik shakllaridan foydalanish mumkin.
CHet el fuqarolari xalqaro shartnomalar asosida ta'lim olish huquqiga egadirlar. fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ta'lim olishda teng huquqli sanaladi.
Ta'lim muassasalari huquqiy makomga ega bo'lib, attestatsiyadan o'tkazilgan holda akkreditatsiyaga G'ruxsatnomagaG' ega bo'ladi. nodavlat ta'lim muassasalari Respublika Vazirlar Maxkamasi tomonidan o'rnatilgan tartib asosida akkreditatsiyadan o'tkazilgandan keyingina huquqiy shaxs makomiga ega bo'ladi.
Ta'lim muassasalari qonuniy hujjatlar asosidagi ustav bilan ish yuritadi. Bir qancha ta'lim muassasalari birlashib, o'quv tarbiya kompleksi, yoki o'quv ilmiy ishlab chiqarish uyushma va assotsiatsiyalari tuzishi mumkin.
Ustav asosida pullik xizmat ko'rsatish va boshqa tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'ullanii mumkin.

2. Ta'lim tizimi va turlari:

O'zbekistondav ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim dasturlarini amalga ooshruvchi, ilmiy pedagogik muassasalar va boshqarish tashkilotlari hamda ularning joylardagi bo'linmalaridan iborat bo'ladi.
O'zbekistonda ta'lim tizimi yaxlit va uzluksizdir.
Ta'limning quyidagi turlari mavjud:
*-maktabgacha ta'lim: (6-7 yoshgacha);*
*-o'rta umumiy ta'lim: (boshlang'ich 1-4,o'rta umumiy1-9 sinf);*
*-o'rta maxsus kasb ta'limi: (3 yillik akademik litsey, kasb xunar kolleji);*
*-oliy ta'lim (bakalavr 4 yil, magistratura-2 yil );*
*-oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (aspirantura, doktarantura, ad'yunktura, ilmiy tadqiqotchi);*
*-kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;*
*-maktabdantashqari ta'lim.( yoshlar ijodiy saroylari, uylari, klublar, markazlar, jismoniy tarbiya va sport maktablari, studiyalar, kutubxonalar,* sog'lomlashtirish oromgoxlari); Bulardan tashqari oila ta'limi va mustaqil ta'lim shakllari ham davlat tomonidan qo'llab kuvvatlanadi.
Akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarini bitirganlar uchun davlat tartibidagi hujjatlar beriladi. (guvoxnoma, diplom, sertifikat, yorliq).

3. Ta'lim jarayonini ishtirokchilarini ijtimoiy himoyalash:

O'quvchilarni ijtimoiy himoyalash maqsadida imtiyozlarini belgilovchi maxsus qonuniy hujjatlar bilan bir katorda, naFaqa, yotokxonalar berish mo'ljallangan.
Ta'lim soxasidagi xizmatchilar quyidagicha himoyalanadi:
Kiskartirilgan ish vakti, o'quv yili so'ngida o'zaytirilgan mehnat ta'tili, qonun asosidagi imtiyozlar (energiya vositalariga 50% xaq to'lash, turar joylarni xususiylashtirish va x.k.) xizmatchini rahbatlantirish uchun imkoniyat darajasida qo'shimcha ish xaqi to'lash mumkin.
Etim va karovsiz qolgan bolalar to'la davlat hisobidan ta'lim tarbiya olish huquqiga egadirlar.
*Jismoniy va ruxiy kamolati izdan chiqqan yoshlarni tarbiyalash uchun maxsus o'quv muassasalari tashkil etiladi. Ularga qabul qilish va qaytarish maxsus ruxiy tibbiy pedagogik komissiya tomonidan yo'lga qo'yiladi. Maxsus o'quv muassasalari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.*

4.Ta'lim tizimini boshqarish:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi ta'lim soxasidagi yaxlit davlat siyosatini amalga oshiradi. Ta'limga rahbarlik qiluvchi davlat tashkilotlarini boshqaradi. Ta'limni rivojlantirishning dasturlarini ishlab chiqadi va amalga tadbiq etadi. Ta'lim muassasalarini ochish, o'zgartirish va yopishning tartibini ishlab chiqadi va bajaradi.
Ta'lim–tarbiya muassasalari va ilmiy kadrlarni attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish.
O'zbekistonda chet el ta'lim muassasalariga faoliyat yuritishiga ruxsat berish. CHet el ta'lim hujjatlarini tan olish tartibini o'rnatish. Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash. Ta'lim muassasalariga qabul qilishning davlat (grant) miqdorini belgilash va qabul tartibini ishlab chiqish. Oliy o'quv yurtlarining rektorlarini tayinlash va boshqalar.
Ta'limni boshqarishning davlat tashkilotlari vazirliklar, xalq ta'limi boshqarmalari o'z imkoniyati va ta'sir doiralarida ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga solib boradi.
Ta'lim muassasasini boshqaruvchi rahbar mas'ul shaxs hisoblanadi. Belgilangan tartib asosida jamoatchilik boshqaruv tashkiloti tuzilishi mumkin.
Nodavlat ta'lim muassasalari davlat ta'limni boshqarish tashkilotlari tomonidan nazorat qilib boriladi.

5.YAkuniy qoidalar:

Ota-onalar yoki qonun bo'yicha vakillarining vazifalari. Ta'limni mablag' bilan ta'minlash respublika va maxalliy budjet (sarmoya) hamda budjetdan tashqari jamg'armalar asosida bo'ladi. ta'limni taraqqiy ettirish fondi ixtiyoriy tulovlaro (yuridik va jismoniy shaxslarning) asosida bo'ladi. ta'lim muassasalari xaqaro hamkorlik imkoniyatlariga ega bo'lib, to'g'ridan–to'g'ri ta'limiy muammolarni xal etish bo'yicha aloqalar o'rnatish mumkin. qonunga mos holda birgalikda muassasalar ochish huquqi berilgan. Ta'lim qonunini bo'zgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Nazorat topshiriqlari:

*« Ta'lim to'g'risida»gi qonun necha bo'lim va moddadan iborat?*
*A. 4 ta bo'lim va 34 ta modda;*
*B. 3 ta bo'lim va 54 ta modda;*
*V. 5ta bo'lim va 44 ta modda;*
*G. 5ta bo'lim va 34 ta modda;*
*qaysi katorda ta'lim turlari to'g'ri ko'rsatilgan?*
*A. maktabgacha ta'lim, o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.*
*B.maktabgacha ta'lim, oila ta'limi, o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim*
*V.maktabgacha ta'lim, oila ta'limi, mustaqil ta'lim, o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.*
*G.maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lm, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.*
*3.Oliy ta'lim bosqichlari qaysi katorda to'g'ri ko'rsatilgan?*
*A. magistratura,aspirantura ;*
*B. bakalavriat, magistratura;*
*V. doktorantura, magistratura;*
*G. ilmiy tadqiqotchi,magistratura aspirantura, bakalavriat, doktorantura;*
*4.ta'lim tizim qanday boshqariladi?*
*A. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan;*
*B. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan;*
*V. Vazirlar maxkamasi tomonidan;*
*G. Ta'limga rahbarlik qiluvchi davlat tashkilotlari tomonidan.*
*5. Ota –onalar yoki qonun bo'yicha vakillarning vazifalarini yozma ravishda izohlab bering.*
*6. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda belgilab qo'yilgan ta'lim tizimini yaxlit va uzluksizligini asoslab bering.*

*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi « Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida.*

<u>O'qituvchining maqsadi:</u> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida ekanligini talabalarga tushuntiradi. Davlatimizning ta'lim soxasiga oid qonunlarni o'rganishga qiziqish uyg'otadi.
Identiv o'quv maqsadlari:

*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida ekanligii tushuntiradi*
*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida ekanligini asoslaydi.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jaxon miqyosidagi yutuklar asosida tayyorlangan.

Milliy dasturning maqsadi –ta'lim soxasida tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik darlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash (dasturi) Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ruyobga chiqarish quyidagi vazifalar xal etilishini nazarda tutadi.

Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash soxasida raqobat muxitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash.

Milliy dasturing maqsad va vazivalari bosqichma-bosqich ruyobga chiqariladi.

Birinchi bosqich: (1997- 2001 y.y.) -mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy, moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 y.y.) –milliy dasturni to'liq ruyobga chiqarish, mehnat bozoriing rivojlanishi va real iqtisodiy ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Majburiy umumiy, o'rta va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyachtlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich. (2005-va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlashning milliy modelini asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

SHaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti ta'lim soxasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshruvchisi:

Davlat va jamiyat-ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kofillari:

Uzluksiz ta'lim-malakali raqobatdagi kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muxitini o'z ichiga oladi:

Fan - yuqori malakali mutaxassis tayyorlovchi va ulardan foydalanuv-chi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi:

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi:

SH A X S

Kadrlar tayyorlash soxasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uzviy bog’liq bo’lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi.

D A V L A T VA J A M I YA T

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilish va rivojlantirishning kafillari, yuqori malakali raqobat bardosh mutaxassislar tayyorlash bo’yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg’unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko’rsatadi.

U Z L U K S I Z T A ‘ L I M:

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi. Uzluksiz ta’lim quyidagi turlarni o’z ichiga oladi:

*-maktabgacha ta’lim;*
*-umumiy o’rta ta’lim;*
*-o’rta maxsus, kasb hunar ta’limi;*
*-oliy ta’lim;*
*-oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim;*
*-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;*
*-maktabdan tashqari ta’lim.*

M A K T A B G A CH A T A ‘ L I M:

Maktabgacha ta’lim bola sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, unda o’qishga intilish xissasini uyg’otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’lim bola 6-7 yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

U M U M I Y U R T A T A ‘ L I M:

To’qqiz yillik ( 1-9 sinflar) o’qishdan iborat umumiy o’rta ta’lim majburiydir. Umumiy o’rta ta’lim tugallanganidan keyin ta’lim fanlari va ular bo’yicha olingan baholar ko’rsatilgan holda davlat tomonidan ta’minlangan namunadagi attestat beriladi.

O’ R T A M A X S U S, K A S B X U N A R T A ‘ L I M:

Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi yunalishi akademik litsey yoki kasb hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni jadal intellektual rivojlanishi chuqur, soxalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yunaltirilgan ta'lim olishni ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yunalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agar va boshqa soxalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fani chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus hunar ko'nikmalarini o'zida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ruyobga chiqarishlari mumkin.

Kasb hunar kolleji - tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi beradi; o'quvchilarning kasb hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish tanlab olingan kasb hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

O L I Y T A ' L I M:

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik shartnomaviy asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yunalishi bo'yicha fundamental va kamaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavriat dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb hunar faoliyati bilan shug'ullanishi huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magmstrlik dasturining intixosidir. Magistrlarga davlat tomonidan tasdiqlangan, kasb hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

O L I Y U K U V Y U R T I D A N K E Y I N G I T A ' L I M:

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar bo'lgan ehtiyojlarini kondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb hunar manfaatlarini kanoatlantirishga qaratilgan. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy tadqiqot muassasalarida olish mumkin. oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlari dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

YAkuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko’ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI qAYTA TAYYORLASH:

Kadrlar malakasini oshirish va qayta mutaxassislarning kasb bilimlarini va ko’nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalaridagi o’rni natijalariga ko’ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvoxnoma yoki sertifikat topshiriladi.

MAKTABDAN TASHqARI TA’LIM:

Bolalar va usmirlarning ta’limga bo’lgan, yakka tartibdagi, talab ehtiyojlarini kondirish; ularni bush vaktini va dam olishni tashkil etish uchun, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik va jismoiy shaxslar madaniy estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yunalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etadilar.

KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YUNALISHLARI

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va shakllantirish quyidagi ustivor yunalishlarni kamrab oladi.
Ta’limni uzluksizligini ta’minlash: Ta’limni o’z ichiga maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb hunar ta’limini kamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb hunar ta’limning bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktarantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo’yicha raqobatbardosh ta’lim muassasalari vujudga kelitiriladi
Ta’lim muassasalarini xududiy yunalishga o’tkazish va tarkibiy tuzilmasini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi.
Uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagogik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustivorligi ta’minlanadi.

PEDAGOGIK VA ILMIY PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH

Pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta’limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko’zlovchi tizimi vujudga keltirladi. Pedagog kadrlarni jadal qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo’llab kuvvatlash ta’minlanadi. Oliy ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlariga mos yuqori malakali o’quvchilar tayyorlash bo’yicha maxsus Faqultetlar, shuningdek respublika viloyatlarida umumiy utra va o’rta maxsus, kasb hunar ta’lim uchun

o’qituvchilar va mutaxassislar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash yuzasidan maxsus markazlar tashkil etiladi.

Ta’lim jarayonini mazmunan isloh qilish:

Kadrlarni o’qitish va tarbiyalash miliy tiklanish printsiplari va mustaqillik yutuklari, xalqning boy milliy, ma’naviy va intellektual salohiyati hamda umubashariy qadriyatlarga tayangan, insonparvarlikka yunaltirilgan ta’limning mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida isloh qilish talab etiladi. Ta’lim oluvchining shaxsiga, undan ta’lim va bilimlarga bo’lgan ishtiyoklarni kuchaytirishga, mustaqil ish to’tishni, iftixor va insoniy kadr-kiymat tuygusini shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Pedagogik kadrlarning obru e’tibori. Ma’suliyat va kasb ko’nikmasini oshirish yuzasidan sobitkadam davlat siyosati olib boriladi. Ilg’or pedagogik texnologiyasi, ta’limning yangi shakl va uslublari, o’quv shu jumadan differentsiyalashgan dasturlar amaliyotga joriy etiladi.

Ma’naviy –axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar:

YOsh avlodni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. SHaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta’minlanadi.umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma’rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.
O’zbekiston Mustaqilligi printsiplariga sadokatli hamda jamiyat tarakkieiga munosib xissa kushishga kodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta’lim muassasalari ota-onalar, oila maxalla kumitalari « Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi, jamoat tashkilotlari, fondlar bilan o’zaro puxta hamkorlik qiladilar.

Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar

Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash va o’qitish uslubiyati, psihologik pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o’quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o’quv tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta’minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san’at o’rgatish markazlari hamda miliy ta’lim muassasalari tashkil etiladi.
Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasb jihatidan tayyorgarlikdan o’tkazishga qaratilgan sobit kadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o’quvchilarga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste’dod soxiblariga, bilimning tegishli soxalaroi va fanning aniq yunalishlari bo’yicha o’z tibbiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o’zlaridagi noyob iste’dodni ruyobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Ta'lim tizimini boshqarish:

Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'limi muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vaqolat doiralari «Ta'lim to'g'risi» dagi qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning normativ huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya xujalik faoliyati olib borish hamida ta'lim ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mo'takilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim soxasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi.
Muassis tashkilotlarning, maxalliy xokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va xomiylarning vakillarini o'z ichiga luvi vosiylik va ko'zatuv kengashlari tuzish orqali ta'lim muassasalarining samarali. Jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.
Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish Ta'lim boshqaruvi organlariga bog'liq bo'lmagan, kasb hunar ta'limi sifatini attestatsiyadan o'tkazuvchi davlat xizmati tashkil etiladi.

Ta'lim tizimini moliyalash:

Ta'limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillash-tiriladi, uning ko'p variantli tizimi joriy etiladi, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiy hamda chet el investitsiyalarini ta'lim soxasiga jalb etish rag'batlantiriladi.

Moddiy texnika ta'minoti:

Moddiy texnika ta'minotida barcha bosqichdagi ta'lim jarayonlarini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish amalga oshiriladi.
Ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish: Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi.
Ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish: Ta'lim va kadrlar tayyorlash soxasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan ta'lim xizmati ko'rsatishning raqobatga asoslangan bozori shakllantiriladi.

TA'LIM SOHASIDA IJTIMOIY KAFOLATLARNI TA'MINLASH HAMDA BU SOHANI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB QUVVATLASH.

Ta'lim oluvchilarnign va pedagoglarning o'qishi, sogligi va dam olishi uchun davlat tomonidan zarur sharoitlar yaratiladi.
*Fan bilan ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish.*

O'quv ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalar, apparatlar va asboblar bilan jixozlash rag'batlantiriladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikdagi ilmiy texnologik echishlar yaratishda korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi, ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab-kuvvatlantiriladi. Ilg'or texnologiya soxasida pedagog kadrlarning malakasi bevosita ishlab chiqarishda muntazam ravishda oshirib boriladi.

*Ta'lim va kadrlar tayyorlash soxasidagi xalqaro hamkorlik.*

Kadrlar tayyorlash soxasida ilmiy pedagogik kadrlar talabalar va ukvchilar almashish kengayadi.

Nazorat topshiriqlari

O'rta maxsus, kasb hunar ta'limining bosqichlari qaysi katorda to'g'ri ko'rsatilgan.
A. bakalavriat, kasb hunar kolleji.
B. bakalavriat va magistratura.
V. akademik litsey va kasb hunar kolleji.
G. akademik litsey, magistratura.
ta'limning qaysi turlari majburiy hisoblanadi.
A. o'rta maxsus kasb hunar ta'lim.
B. oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
V. maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim.
G.maktabdan tashqari ta'lim, umumiy o'rta ta'lim.
3. Ta'limning qaysi turlari ixtiyoriy majburiydir.
A. o'rta maxsus kasb hunar ta'lim.
B. oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.
V. maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim.
G.maktabdan tashqari ta'lim, umumiy o'rta ta'lim
4.Mutaxassisliklar yunalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim bu.
A. magistratura
B. aspirantura.
V. bakalavriat
G.doktorantura.
5Kadrlar tayyorlash milliy dasturining modelini yozma ravishda izohlab bering.
6.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim to'g'risidagi qonunning mantiqiy davomi sifatida ekanligini asoslab bering.

IY. «TA'LIM TO'G'RISIDA» QONUN VA KADRLAR TAYYORLASH MILIY DASTURINING NAZARIY VA AMALIY QIYMATI

O'qituvchining maqsadi: «Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini talabalarga tushuntiradi va qonunlarning mohiyatini chuqur o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari

*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini tushuntiradi.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini izohlaydi.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini asoslaydi.*

«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturi pedagogika fanining asrlar davomida to'plagan boy ilmiy va nazariy ta'minotlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Unda jaxondagi eng ilg'or pedagogik goyalarning mohiyati aks etgan. CHunki pedagogika fani shaxsning har tomonlama kamol topishini : aqliy, axokiy, jismoniy va ruxiy ulgayishini tadkik etib keladi. Ta'lim qonuni va miliy dasturda shaxs, uning jamiyatdagi o'rni, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda ta'lim tarbiya muassasalarining uzviybog'liqligi chuqur ilmiy asoslangan. Hozirgi zamon sharoitida xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning tamoyillari, uzluksiz ta'lim tizimi, unga kirgan muassasalarning maqsad va vazifalari aniq belgilangan. Mazkur hujjatlar shunchalik davlatning ta'lim tarbiya soxasidagi siyosatining ifodasi bo'lib qolmasdan, aniq bajariladigan, bosqichma-bosqich hayotga tadbiq etiladigan vazifalar majmui ham hisoblanadi.
O'zbekistonda iqtisodiy, ijtimoiy islohatlarning takomillashib borishiga mos holda ta'lim soxasi ham yangilanib borishi nazarda tutilgan
Ta'lim soxasidagi amaliy o'zgarishlar yoshlarga beriladigan bilim mazmunining yangilanishi, ilg'or pedagogik texnologiyaldarning joriy etilishi, zamonaviy ta'lim vositalarining keng kulamda qo'llanilishi, yosh avlodning ma'naviy dunyosining boyishiya. Kasb sir va maxoratlarini mukammal egallashlarida namoyon bo'ladi.
Respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari ham shaqlan, ham mazmunan o'zgarib, XXI asr talablariga mos holatda etkaziladi. CHunki ularda ta'lim va tarbiya oladigan yoshlar xalqimiz takdirini yangi asrda qanday bo'lishini ifodalaydi.

Nazorat topshiriqlari

*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dastur nimalarga asoslanadi?*
*A. Pedagogikanig asrlar davomida to'plagan boy ilmiy va nazariy ta'limotlariga.*
*B. Rivojlangan davlatlaring pedagogika puplagan ilmiy nazariy ta'limotlariga.*
*V. Davlat tomonidan ta'lim soxasi bo'yicha chiqarilgan qonunlarga va konstitutsiyaga.*
*G. Vazirlar maxkamasi tomonidan chiqarilgan qonunlarga.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturda shaxs, uning jamiyatdagi o'rni, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda ta'lim tarbiya muassasalarining uzviybog'liqligi qanday asoslanganligini ezma ravishda izohlab bering.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini tushuntiring.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini sharxlab bering.*

*«Ta'lim to'g'risida» qonun va kadrlar tayyorlash miliy dasturining nazariy va amaliy kiymatini asoslab bering.*

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

*Barkamol avold orzusi, T., 1999.*
*Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori , T., 1998.*
*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi , T., 1992.*
*Gaybo'llaev va boshqalar, Ijtimoiy islohatlar va ta'lim tarbiya, T., 1995.*

## TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Ajratilgan vaqt - 2 soat

Asosiy savollar:
Pedagogikada tarbiya maqsadi muammosi.
Tarbiyaning bugungi kundagi asosiy maqsad va vazifalari.

*Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar*: maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.
*Mavzuga oid muammolar:*
Tarbiyaning maqsadi jamiyat va unda mavjud bo'lgan tuzumning shart-sharoitlariga mos holda belgilanadi. Tuzumning o'zgarishi tarbiya maqsadlarini ham ma'lum darajada o'zgartiradi. O'zbekiston Milliy istiqlolga erishgandan keyin tarbiya maqsadlari qanday o'zgarishlarga uchradi? Ba'zi maqsadlar o'zgarishsiz qoldi. Uning sababi nimada?
Maqsaddan vazifalar kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri sanalgan yoshlarga milliy va umuminsoniy tarbiya berish qanday vazifalarni keltirib chiqardi deb o'ylaysiz?
Tarbiyaning tarkibiy qismlarini izchillik bilan yoshlarga singdirish uning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Sizningcha tarbiyaning tarkibiy qismlari qanday tartibda yoshlarga berilgani ma'qul deb sanaladi?
Turli davrlarda tarbiyaning maqsadi muammosi turlicha bo'lgan. O'sha davrlarda tarbiya berishning asosiy vositalari, shakllari nimalardan iborat bo'lgan? Javobingizni izohlang.

*1- savol bo'yicha darsning maqsadi*: pedagogika uchun tarbiya maqsadini belgilab olish muhim muammolardan biri ekanligi, uning doimo o'zgarib, rivojlanib borishini talabalarga etkazish, ushbu masalaga nisbatan ularda munosabatni shakllantirish.

*Identiv o'quv maqsadlar:*
Pedagogikaning asosiy muammolaridan biriga aniqlik kiritadilar.
Tarbiya ijtimoiy hayotda qanday xarakterga ega bo'lib kelganligini asoslab beradilar.
Tarbiyaning maqsadi to'rli davrlarda turlicha bo'lganligini tahlil qilib beradilar.

*1- savol bayoni*

Tarbiya ijtimoiy hayotning hayotiy va uzluksiz tushunchasi bo'lib, tarixiy xarakterga ega. qadimgi Gretsiyada va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda yaxshi fazilatga fuqaroni, vatanparvarlikni, jasurlikni, sadoqatni, do'stlikni rivojlantirish bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib, ya'ni feodalizm davrida yosh avlod diniy e'tiqod, iymon, ahloqqa ega bo'lishi kerak bo'lgan, Markaziy Osiy xalqlari bu yo'nalishda katta yutuqqa erishgan.

Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarish bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi.

Bizning hayotimizga qizil imperiyaning kirib kelishi bilan kommunistik mafkura tarbiyaning bosh maqsadi bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik. Bugungi tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodga Dunyo standartlari bo'yicha zamonaviy bilim berish, ularni har tomonlama etuk, ma'naviyatli etib tarbiyalashdir.

*Muhokama uchun savollar.*

Pedagogikaning bosh muammolaridan birini ayting va javobingizni izohlang.

2. Tarbiya qanday xarakterga ega?
3. Jasur, vatanparvar fuqaroni tarbiyalash maqsadi muammosi qaysi davrga xos?
4. Mustamlaka davrida tarbiyaning bosh maqsadi?
5. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz an'anlarimizdan uzilib qolgan davrni asoslang.

*2- savol bo'yicha darsning maqsadi:* tarbiyaning bugungi kun asosiy maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot berish, talabalarda o'z shaxsiy fazilatlariga nisbatan munosabatini shakllantirish.

*Identiv o'quv maqsadlari:*

Tarbiyaning asosiy maqsadi va unga erishish yo'llarini izohlaydilar.

Tarbiyaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqani ko'rsatadilar.

Tarbiya vazifalarini o'z mohiyatiga ko'ra bir-biridan farqlaydilar.

*2- savol bayoni.*

Tarbiyaning asosiy maqsadi-yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

YOshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda shakl mutafakkirlarining meroslari dasturlash bo'lib xizmat qiladi. A.Farobiy, A. YAssaviy, B.Naqshbandiy,Al-Buxoriy, Al- Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Firdavsiy, A.Temur, Navkiy va Bobur singari jaxonga taniqli bir necha aql egalarining ijtimoiy – siyosiy falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

YOsh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish – bizning muqaddas burchimiz or –nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy oson emas. U ko'plab, oylab, yillab,sabr –toqat,chidam va qat'iyatlilik iroda talab etadi.

Aqliy tarbiya

Bu barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo'lib o'tuvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri xaqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik xislatlarini parvalishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axloqiy tarbiya

Axloq- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning jamiyatga, boshqalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xuquq, odob qonun - qoidalarini majmuasidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deyiladi.

Jismoniy tarbiya

Barkamol inson tarbiyasining tarkibiy qismlaridan yana biri jismoniy tarbiyadir.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va Vatanimiz himoyasi uchun qo'rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol-aslaxalardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi.

Ma'lumki, o'quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida beriladi.

Jismoniy tarbiya vositasida o'quvchilarga odamning anatomiyasi, fiziolognyasi va gigienasiga oid tizimli bilim ham beriladi, ko'nikma va malakalar xosil qilinadi.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat va mehnat tarbiyasi nison kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigox tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his kilsa, usha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat — kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Estetik tarbiya

Estetika lotincha «estezio — go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi. Aqliy, ahloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur kilib bulmaydi.

Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifasi o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga etishga, shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal tomonini ko'ra bilishga, go'zal bo'lishi uchun ko'rashishga o'rgatishdan iboratdir. Estetik tarbiya ahloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktablarimizdagi musiqa, rasm, ashula darslari, adabiyot va boshqa fanlar estetik tarbiyaning vositasi hisoblanadi.

*Muhokama uchun savollar:*

Tarbiyaning asosiy maqsadi?

2. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini aniqlang va javobingizni izohlang.
3. Tarbiyaning tarkibiy qismlariga ta'rif bering.
4. Tarbiyaning asosiy vositalariga nimalar kiradi? Javobingizni izohlang.
5. Tarbiyaning turli tarkibiy qismlariga SHarq allomalarining bergan ta'riflarini tahlil qiling.

*Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:*
O'quvchi yoshlarda vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish.

4 MAVZU: BARKAMOL AVLOD KAMOLOTI XUSUSIYATLARI
VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Ajratilgan vaqt – 5 soat
Asosiy savollar:

SHaxs Kamoloti haqida tushuncha.
Barkamol shaxs kamol topishiga va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
Turli yosh davrlarda bolaning o'sish xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar:
Kamolot, ulg'ayish, aqliy kamolot, jismoniy kamolot, axloqiy kamolot, ruhiy kamolot, kamolot omillari, irsiyat, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muhit, faollik, bola yoshini davrlashtirish, go'daklik, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, balog'at yoshi.

*Mavzuga oid muammolar:*
Barkamol shaxs kamol topishiga va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni solishtiring va ular o'rtasida bog'liqlik, farq va o'xshashlikni aniqlang. Siznig nazaringizda qaysi omilning ta'siri shaxs kamolotiga kuchliroq bo'ladi, biror omilni kuchliroq deyish mumkinmi?
Turli yosh davrlarda bolaning o'sish xususiyatlarini tahlil qiling va har bir davr o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bering. Turli yosh davrlari bir-biridan farq qiladi. qanday farqlar har bir davrni boshqasidan ajratib turadi?
*1- savol bo'yicha dars maqsadi:* SHaxsning kamol topishi haqidagi ilmiy ta'limotlarni talabalarga tushuntirib berish, shaxs sifatida kamol topishning xususiyatlarini farqlashga o'rgatish, har bir talabada o'zining kamolot xususiyatlarini tahlil qilishga o'rgatish.

*Identiv o'quv maqsadlari:*

SHaxs va uning kamolot xususiyatlarini tushuntirib beradi.
SHaxs kamoloti haqidagi har xil ta'limotlarni solishtirib xulosalar chiqaradi.
Aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy ulg'ayishning takomillashib borishini aniqlaydi.

<u>1-savolning bayoni:</u>

SHaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lmogi uchun ruxiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining

harakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu ruxiy xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga etsagina uni mukammal kamol topgan inson deyiladi.

*Muhokama uchun savollar:*
1.Insonning shaxs sifatida kamol topish xususiyatlarini so'zlab bering.
2.SHaxs kamolotining yunalishlarini aniqlang va javobinigzni izohlang.
3. SHaxs-ta'lim tizimining asosiy ob'ekti va sub'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi ekanligini izohlab bering.
4. Turli omillar tomondan shaxs kamolotiga yondashuvlarini yozma tarzda ifodalab bering.

*2- savol bo'yicha darsning maqsadi*: barkamol shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni talabalar ongiga etkazish, har bir omilning o'ziga xos ahamiyatini uqtirish, o'z kamolotida qaysi omilning ta'siri kuchli ekanligini aniqlash.

*Identiv o'quv maqsadlari.*
SHaxs kamolotiga ta'sir etadigan omillarning farqini ajratadi.
Har bir omilning shaxs kamolotiga ta'sirini izohlaydi.
Ayrim kursdoshlari yoki maktab o'quvchilarining kamolot darajalarini tekshirib ko'radi.

*2- savolning bayoni*

SHaxsning kamoliga etishida nasl-irsiyat ijtimoiy muhit ham, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim –tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. SHaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun qoidalariga asosan kamol topadi. SHu jamiyatning moddiy va ma'naviy boylikdan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi.

Inson kamolotida irsiyatning ta'siri.

Kishi tug'ilganidanoq o'ziga xos muayyan qobiliyat nishonlari bilan dunyoga keladi. Ular insoniyatning turli jixatlarini rivojlantirishda, ayniqsa psixik jarayonlari rivojida, his – tuyg'uni izxor etish soxasida, iste'dod turida jiddiy rol o'ynaydi.

Odam irsiy axborotni va fizologik faoliyat ko'rsatish xarakterini, nerv sistemasi tipini, oshiradigan yuksak darajadagi nafisligini bir biridan meros qilib organizm uchun muhim xayotiy moyillar va tarkibiy extiyojlarning fiziologik mexanizmi irsiyatga bog'liqdir.

Inson kamolotida muhitning ta'siri.

«Muhit» tushunchasi insonning hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tashqi vaziyatlarning murakkab sistemasini anglatadi. Bu vaziyatlar jumlasiga individ hayotning tabiiy sharoitlari bilan barobar ijtimoiy sharoitlari ham kiradi. SHaxs Bilan muhitning o'zaro birgalikdagi harakatida ikkita hal qiluvchi sharoitni;
- shaxs aks etadigan hayotiy vaziyatlar ta'sirining xarakterini;
- vaziyatlarni o'z ehtiyojiga va manfaatlariga bo'ysundirish

CHunki:
- ta'lim –tarbiya jarayonida kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni o'rganib oladi.
- ta'lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini kerakli tomonga o'zgartirish mumkin.
- ta'lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.
- ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinibgina qolmay, balki bolada ilmiy dunyoqarashi ham shakllanadi.
Insonning kamol topishida shaxsiy qamolotning ahamiyati.
Ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi. Iste'dod, qobiliyatini o'stiradi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq ro'yobga chiqa boshlaydi. SHuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berar ekan, ularning o'z oldiga maqsad qo'yish va uni ro'yobga chiqarish, tinmay izlanish, mehnat qilish sifatlarini, iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalab borishi kerak.

Muhokama uchun savollar
SHaxs kamolotining omili nimada?
2. Ta'lim va tarbiyani shaxs kamolotining omili sifatida izohlab bering.
3. SHaxs kamolotining asosiy omillariga nimalar kiradi?
4. Tashqi qiyofa, qon aylanishi, oliy nerv faoliyati qaysi omil ta'sirida shaklanadi?
5. Til o'rganishda, urf-odatlarni egallashda qaysi omilning ta'siri kuchli bo'ladi?
3- savol bo'yicha darsning maqsadi: Bola yoshini davrlashtirish haqida ilmiy-nazariy ta'limotlarni talabalarga tushuntirish, har bir yosh davrlarda beriladigan ta'lim-tarbiyaning mohiyatini ochib berish, talabalarda barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishga moyilikni tarkib toptirish.
*Identiv o'quv maqsadlari:*
Bola yoshini davrlashtirishning ahamiyatini aytib beradi.
Turli yosh davrlardagi o'zgarishlarni aniqlaydi.
Ayrim o'quvchilarning kamolot darajalarini aniqlab ko'radi.
*2 savol bayoni.*
Rivojlanish darajasi faqat kechirilgan umrning natijasigina emas, har qanday yoshda, ayniqsa bolalik rivojlanishiga tarbiyaviy ta'sir sistemasi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. YOsh davrlar har bir bolaning rivojlanishi uchun bosqichlardir. Tibbiyot, bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogika fanlari yutuqlariga ko'ra bolaning yosh davrlarini quyidagicha guruhlarga ajratishgan.
Go'daklik davri (Tug'ilganidan to 1 yoshgacha)
YAsli davri-1 yoshdan 3 yoshgacha
Maktabgacha tarbiya-3 yoshdan 6-7 yoshgacha
Maktab yoshidagi kichik o'quvchilar 6-12 yoshgacha
O'rat maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smir) 12-16 yoshgacha
Maktab yoshidagi katta o'quvchilar(o'spirinlar)16-18 yoshgacha.
*Muhokama uchun savollar:*
Bola yoshini davrlashtirishning ahamiyatini tushuntiring.

Turli yosh davrlarda bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy va ruhiy ulg’ayishlarida bo’ladigan o’zgarishlarni izohlab bering.
Vaqt tushunchasining mohiyatini bola qaysi davrda aniq ifodalaydi?
4. O’spirinlik davrining murakkablik tomonlarini yozma bayon eting.
5. Turli sinf o’quvchilaridan bir necha bolaning yoshiga Kamolotini o’rganib chiqing va tavsiyalar yozing.
*Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar.*
Bolaning turli rivojlanish davrlariga mos ta’lim tarbiya berishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish.

3-amaliy mashg’ulot. Barkamol shaxs kamoloti va unga ta’sir etuvchi omillar.
Dars maqsadi: Talabalarga shaxs kamoloti haqida tushuncha berish, shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishga o’rgatish, turli yoshdavrlarda bolaning o’sish xususiyatlarini tahlil qilish.

Identiv o’quv maqsadlar:
SHaxs kamoloti haqida tushuncha beradi.
Barkamol shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni solishtiradi.
Barkamol shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiladi.
Turli yosh davrlarda bolani rivojlanishini o’rganib, uni takomillashtirish bo’yicha maslahatlar beradi.
Kerakli jihozlar: darslik, ko’rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiya omiliga doir hujjatli va badiiy film tasmalari.
Ishni bajarish tartibi:
Barkamol shaxs Kamolotini o’rganish;
Barkamol shaxs Kamolotiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish. Irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya, faoliyatning ta’sirini muhokama qilish
Turli yosh davrlarda bolaning o’sishi, rivojlanishini o’rganish;
Turli yosh davrlarda bolaga ta’lim-tarbiya berishning yo’l-yo’riqlarini ishlab chiqish.
Mashg’ulotga yakun yasash.
Mustaqil ish topshiriqlari
SHaxs kamoloti va shaxs kamolotining yo’nalishlari haqida ma’lumot yig’ish.
Turli olimlar tomonidan shaxs kamolotiga yondashuvlarni yozma tarzda ifodalash.
SHarq mutafakkirlarining shaxs kamoloti haqidagi ta’limotlarini o’rganish.
Turli yosh davrlarda o’quvchilarning o’sish xususiyatlarini o’rganib, kamolotining qay darajada ekanligi haqida yozma tahlil qilish.
Asosiy adabiyotlar:
Tursunov I., Nishonaliev U., Pedagogika kursi, T.,1997 y.
Munavvarov A.K. Pedagogika, T.,1990 y.
S.P.Baranov, L.Bolotina,.V.A.Slastyonin, Pedagogika, 1990 y.
qo’shimcha adabiyotlar:
Karimov I.A. Buyuk kelajak sari T.1998 y.
Barkamol avlod orzusi. T. 1999 y.
Barkamol avlod–O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 y.

# 3 MAVZU: BARKAMOL AVLOD KAMOLATI XUSUSIYATLARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

2 –soat ma'ruza.
Asosiy savollar:

*SHaxs kamolati haqida tushuncha.*
*Barkamol shaxs kamol topishiga va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.*
*Turli yosh davrlarda bolaning usish xususiyatlari.*

Tayanch tushunchalar:

Kamolat, ulgayish, aqliy kamolat, jismoniy kamolat, axloqiy kamolat, ruxiy kamolat, kamolat omillari, irsiyat, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy muxit, faollik, bola yoshini davrlashtirish, gudaklik, bolalik, usmirlik, uspirinlik, balogat yoshi.

Asosiy savol: SHaxs kamolati haqida tushuncha:
O'qituvchining maqsadi: SHaxsning kamol topishi haqidagi ilmiy ta'limotlarni talabalarga tushuntirib beradi. SHaxs sifatida kamol topishning xususiyatlarini farqlashga o'rgatadi. Har bir talabada o'zining kamolat xusu-siyatlarini tahlil qilishga o'rgatadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

*SHaxs va uning kamolat xususiyatlarini tushuntirib beradi.*
*SHaxs kamolati haqidagi har xil ta'limotlarni solishtirib xulosalar chiqaradi.*
*Aqliy, axloqiy, jismoniy va ruxiy ulgayishning takomillashib borishini aniqlaydi.*
1-savolning bayoni:

SHaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lmogi uchun ruxiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining harakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu ruxiy xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga etsagina uni mukammal kamol topgan inson deyiladi. SHaxsning ijtimoiy vokelikka, mehnatga, kishilarga , jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha. Uning faollik darajasi va axlok-odob borasidagi etukligi ham turlichadir. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak. SHu sababli pedagogika fani - *bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga etishi qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi ob'ektiv va subektiv omillarni rivojlanish jarayoniga davrlarni aniqlashi kerak.*
SHunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishida ta'lim-o'qitish, tarbiya va bola faolligi, o'z-o'zini tarbiyalash bosqichlarini ham aniqlash lozim.
Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish pedagogikada oddiydan-murakkabga,quyidan-yuqoriga,eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish,yagilanish,yangilanishning paydo bo'lishi va eskini ulib borish miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga olib keluvchi murakkab harakat jaraeni deb karaydi.Rivojlanish jaraeni karama-karshiliklardan iborat.
Ma'lumki inson butun umri mobaynida o'zgarib boradi.Lekin bolalik,usmirlik va uspirinlik davrida rivojlanish nixoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillar mobaynida ham jismoniy,ham psixik jihatdan usishi va o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga etadi,bunda berilaetgan tarbiyaning maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol,murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munomib o'rin egallaydi. Odamning munosabatlari doirasida kishilar bilan aloqasigina emas,balki tabiatga,jamyatga ,xaetga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shu xil ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobilyati va qiziqishini,o'z bilimi va ukuini naoen qiladi, o'z ishiga, vazifa-siga,burchiga,xalqiga va Vataniga,o'z-o'ziga bo'lgan munosabalarini ifodalaydi.
Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar Faqat tarbiyaning maxsulidir. SHunga ko'ra, aslida rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi,deyishi mumkin. SHaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga eshi, bilimi, odatlari, tajribasi va nixoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Agar ana shu masalaga o'quvchi nuktai nazardan karasak vokae tamoman o'zgacha ro'y beradi. Masalan, bir xildagi ta'sir yoki vokaega turli bola turlicha munosabatda bo'ladi, bunga ayni vaqtda bolaning ehtiyoji qandayligi ta'sir etadi; bolalar uyin yoki kitob o'qish bilan ovora edi. Tarbiyachi- «bo'ldi, bekorchi ishlarni yig'ishtiring. Endi dars tayyorlashga kirishing»- deydi. O'z ishiga o'ta berilib ketgan bolaga bu gap kor kilmaydi. Ammo shunchaki vakt o'tkazish uchungina ovora bo'lib to'rgan bola ko'rayotgan kitobi yoki uynayotgan uyinini darhol chetga yig'ishtirib, tarbiyachi talabini bajarishga kirishadi. SHu holga nisbatan birinchi bolani tarbiyasiz, kuloksiz deyish aslo mumkin emas.CHunki, o'quvchi qizikib qolgan ishini oxiriga etkazmasdan dikkatini boshqa narsaga jalb kila olmaydi. Afsuski, amalda tarbiyachilar anglamaslik orkasida ko'pgina xatoliklarga yo'l kuyadilar. Bolalar xulqini ham shunga qarab baholaydilar: odobli, tirishkok, yaxshi ukiydi, to'polonchi, kuloksiz, yomon ukiydi. Bularning zamirida nima yotganini bilmay turib chiqarilgan noto'g'ri bo'lishi tabiiy. Xushmuomala deb bilgan bolamiz xulqidagi bu sifat laganbardorlik, odoblilik esa ko'rkish passivlikning oqibati bo'lishi,aksincha to'polonchlik faxm-farosating utkirligi,urtoklari bilimidan ustunligi,emon o'qish qobiliyatining yo'qligidan emas,balki o'qish yo'lini bilmsligidan bo'lish mumkin. Ba'zi fandan past ukiydigan bola boshqa fandan zur qobiliyatini namoen qilish eki aqliy mehnatda bush bola jismoniy mehnatda o'quvli, ijodkor bo'lishi mumkin. SHaxs fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasiga kuyib kuzatish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy kiefasi, ijobiy fazilatlari ro'yobga chiqadi.
Demak ,shaxsni rmvojlantirish vazifasini to'g'ri xal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmok kerak.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun uning usish va rivojlanishi qonuniyatlarini bilish va hisobga olish lozim. SHunday qilib, rivojlanish bilan tarbiya o’rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.
Tarbiyachi bolaga maqsadga muvofiq ta’sir etmok uchun,ir tomondan, rivojlanish qonuniyatlari va shaxsning individualligini chuqur bilishi va ikkinchi tomondan,tarbiya rivojlanishiga kachon va kanaka ta’sir eta olishini anglashi va tarbiyaviy ta’sir etishida shulardan kelib chiqish kerak.
Bolalardagi individual farqli,ular psixik protstsesni turlicha ro’y berishini,xulqi va qarashlardagi farqni qaysi omil belgilaydi: biologik omilni ijtimoiy omil eki tarbiya omilmi? Hozirgi kunimizda ham turli nuktai nazarlar mavjud.
Biz uchun jamiyatda shaxs tushunchasi va uning rivojlanishigia ta’sir etuvchi yuqoridagi 3 omilning roli haqidagi masalaga qanday qarashini bilish nixoyatda muhimdir.

Nazorat topshiriqlari:

*1.Insonning shaxs sifatida kamol topish xususiyatlarini so’zlab bering*

*2.SHaxs kamolatining yunalishlarini aniqlang.*
*A. Mehnatga loyakatli bo’lish.*
*B. Aqliy ulgayish.*
*V. Vatan himoyasiga shay turish.*
*G. Xunar kasb egallash.*
*D. Jamoatchilik orasida xurmat e’tiborga ega bo’lish*
*3. Bilimdon, ukimishli,keng duneqarashga ega bo’lishlik.*
*A. Ruxiy kamolatga erishganlik*
*B. Axloqiy komillik*
*V. Aqliy ulgayganlik*
*G. Ruxiy etuklik*
*D. Zamon talabiga javob beruvchi shaxs.*

*4. SHaxs-ta’lim tizimining asosiy ob’ekti va sub’ekti,ta’lim soxasidagi xizmatlarning istemolchisi va ularni amalga ooshruvchi ekanligini izohlab bering.*
*5. Turli omillar tomondan shaxs kamolatiga endoshuvlarini ezma tarzda ifodalab bering.*
*6. SHox Akbar tajribasini mohiyatini tahlil qiling.*

2.Asosiy savol. Barkamol shaxs kamol topishiga va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.
O’qituvchining maqsadi: barkamol shaxs kamolatiga ta’sir etuvchi omillarni talabalar ongiga etkezish. Har bir omilning o’ziga xos ahamiyatini uktirish. O’z kamolatida qaysi omilning ta’siri kuchli ekanligini aniqlattirish.

Identiv o’quv maqsadlari.

*SHaxs kamolatiga ta'sir etadigan omillarning farqini ajratadi.*
*Har bir omilning shaxs kamolatiga ta'sirini izohlaydi.*
*Ayrim ko'rsdoshlari eki maktab o'quvchilarining kamolat darajalarini tekshirib ko'radi.*

2 asosiy savolning bayoni

Pedagogika kamolatiga etishishini murakkab va zidiyatli jaraen deb biladi . SHaxsning kamoliga etishida nasl-irsiyat ijtimoiy muxit ham , maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim –tarbiya va nixoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. SHaxs qaysi jamtiyatda yashasa O'sha jamiyat xaetidagi qonun qoidalariga asosan kamol topadi. SHu jamiyatning moddiy ava ma'naviy boylikdan baxramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi.Agar shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligi yuksak bo'lsa , u shaxsga shu kadar katta ta'sir ko'rsatadi va aksincha.Ikkinchi tamondan esa,shaxs faoliyati davomida mehnat orqali o'z moddiy va manaviy boyligi yuksak bo'lsa,u shaxsga shu kadar katta tasir ko'rsatadi va aksincha.
Ikkinchi tomondan esa shaxs faoliyati davomida mehnat orqali o'z moddiy va manaviy boyligini yaratish jarayonida ongni hayotini sharoitini ham yaxshilab boradi.Anashunday ijtimoiy faoliyatlari o'z novbaida mehnat turlarining takomillashiga olib keladi.Texnika va texnologiya mukammallikka erishib boradi.Oqibat natijada,ular ham o'z novbatida odamni aqliy va axloqiy jihatdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Odam atrofni, obektiv borlikni ko'prok bilgani sari onglilik darajasi usadi, fikrlash doirasi kengayadi, ya'ni malaka va ko'nikmalarni egallaydi. YAngi qiziqishva ehtiyojlar vujudga keladi.
Demak shaxs kamolga etishuvi jamiyat rivojiga chambarchas bog'liqdir.

Inson kamolotida irsiyatning ta'siri.

Kishi tug'ilganidanoq o'ziga xos muayan qobiliyat nishonlari bilan dunyoga keladi. Ular insoniyatning turli jixatlarini rivojlantirishda,ayniqsa psixik jarayonlari rivojida, xis – tuyg'uni izxor etish soxasida, istidod turida jiddiy rol o'ynaydi.
Kishining murakkab tana tuzilishini uzoq evalyuttsiya jarayonida irsiyat qonknlari tasiri ostida o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlash yo'li bilan rivoj topdi. Irsiyat tufayli odamning asosiy biologik belgilari, xususiyatlari avloddan avlodga o'tib keladi. Genlar irsiyatning modda tashuvchilari xisoblanadi. Odam irsiy axborotni va fizologik faoliyat ko'rsatish xarakterini, nerv sistemasi tipini, oshiradigan yuksak darajadagi nafisligini bir biridan meros qilib arganizim uchun muxim xayotiy moyillar va tarkibiy extiyojlarning fiziologik mexonizmi irsiyatga bog'liqdir.
Biologlar odamlardagi genlar bilan uning etimol tutilgan o'zgarishlaridan xulosa qilish mumkin bo'lgan jarayonlarni sonini odamlar mavjud atomlar sonidan xam ko'proq bo'ladi deb xisoblanadi.Lekin baribir shaxsning rivojlanishi jarayoni biologiya fondning jo'ngina namayon bo'lishi va kengayishi degani emas. O'z vaqtida Darvin xam jonli organizimlarning rivojlanishini irsiyatning kurashi va xayot

kechirishi sharoitiga ioslashuvi orqali, eskilarini meros qilib olish va yangi belgilarini o'zlashtirish orqali sodir bo'lishini ko'rsatib berar edi. Ilgari ko'plab olimlar genlar o'zgarmaydi , Mutlaqo barqarorligi bilan ajiralib turadi, deb fikr yuritar edi. Endilikda xujayralarning irsiy strukturasi O'zgaruvchanligi qatiyan aniq bo'ldi. O'zgaruvchanlik xam irsiyat kabi organizimning tub belgisi xisoblanadi.
Irsiyatning axamiyati qanchalik katta bo'lsa , uning tasiri tarbiya sistemasi tasiri yordamida yuzaga chiqadi.

Nazorat topshiriqlari:
*Dars qanday faoliyat turlarini umumlashtiradi?*
*A. O'quvchilarning faoliyatini;*
*B.  O'qituvchining faoliyatini;*
*V. Maktab jamoasining faoliyatini;*
*G. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini;*
*D. Maktab ma'muriyatining faoliyatini.*

*Darsda asosiy figura kim bo'lishi kerak?*
*A. O'qituvchi va o'quvchilar;*
*B. O'qituvchilar;*
*V. O'quvchilar;*
*G. A'lochilar;*
*D. Sinf rahbari.*
*Darsga qo'yiladigan asosiy talab.*
*A. Ma'lum maqsadga yunaltirilganligi;*
*B. Amaliyot turmush bilan bog'langanligi;*
*V. Vaqtdan unumli foydalanish;*
*G. Ta'lim vositalaridan unumli foydalanish;*
*D. Barcha talablar asosiy hisoblanadi.*
*Darsga qo'yiladigan talabni o'z fikringiz bilan yozma ifodalab bering.*
*Darsga qo'yiladigan talablar ko'prok kimga  (o'qituvchi yoki o'quvchi) daxldor ekanligini tushuntirib bering.*
*Darsda ta'lim va tarbiyaning milliy asoslariga qanday qilib amal qilishni ma'kul ko'rasiz.*

3-asosiy savol. Dars turlari va tarkibiy qismlari.

O'qituvchining maqsadi:
*Dars turlari va tarkibiy qismlari to'g'risida iula ma'lumot berish.*
*Har bir dars turidan namunalar keltirish va misollar bilan dalillash.*
*Darsni tahlil qilishga va baholashga o'rgatish.*

Identiv o'quv maqsadlari:

*1.Fanning xususiyatlari va mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holdaturli ko'rinishdagi darslar bo'lishini farqlaydi.*

*2.Dars turlari va maqsadlarining uzviybog'liqligini aniqlaydi.*
*3.Har xil dars turlari rejalarini solishtirib ko'radi.*

3- savolning bayoni.

*Maktabda turli-tuman o'quv fanlaridan o'quvchilarga bilim beriladi. Ularning mazmuni, o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ham har xildir.SHuning uchun dars turlari xilma xil bo'ladi.Bunda aynan utiladigan mavzu yuzasidan qo'yiladigan maqsadlar ham alohida rol uynaydi. Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularni tuzilishini kuydagicha izohlashimiz mumkin:*
1soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashgulot turi dars turlari deb yuritiladi.Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari kuydagilardir:
*1. YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.*
*2. Utilgan materiallarni multaxkamlash darsi.*
*3. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.*
*4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.*
*5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi)*
Har bir dars to'rining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishga,mustaxkam esda qoldirishga,takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.
Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashgulotlarda ikkinchi, xatto uchunchi bir dars to'rining elementlari bo'lishi mumkin.
Masalan,maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri-yangi bilimlarni bayon qilish darsidir.Bu dars turi quyidagicha tuziladi:
*a) YAngi bilimlarni bayon qilish.*
*b) YAngi bilimlarni mustaxkamlash.*
*v) YAngi bilimlar ustidan mashk qilish.*
*g) YAngi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalrini topshirish.*

Demak, dars boshdan-oyok bir dars turi bilan olib borilmaydi,balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustaxkamlash, yangi bilimlar ustidan mashk o'tkazish uyga vazifa, kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin.SHunga karamay,darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa,butun didaktik usullar shunga buysundiriladi.SHuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi. Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir elementlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni payitda asosiy dars to'rining tuzilishini tashkil qilishi mumkin.Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars to'rining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi. Birok, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism-didaktik usul,dars tuzilishi bo'lavermaydi.U o'qitishning usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil kila oladi.YA'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilanok dars olib borish usuli ham o'zgaradi.Demak,darsning shu qismiga kelib,darsning shakli ham,usuli ham o'zgaradi,yangilanadi.Bu bilan darsnng yangi bosqichi boshlanadi.Dars tuzilishini

biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars baskichi deb yuritiladi. Masalan,aralash dars to'rining tuzilishi:
*1. Uy vazifalarini surash tekshirib ko'rish.*
*2. YAngi materiallarni bayon qilish.*
*"Iqtisod alifbosi" 1-2 sinf. (boshlang'ich sinflar uchun o'quv qo'llanma).*

MAVZU: NAFOSAT VA JISMONIY TARBIYA

Ajratilgan vaqt 5- soat.
Asosiy savollar:
*Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha*
*Maktabda nafosat tarbiyasini berishning mohiyati*
*Maktabdan tashqarida nafosat tarbiyasini berish tartibi*
*YOshlarni jismoniy tarbiyalash tizimi*

Mavzuning asosiy tushunchalari: Nafosat, nafosat tarbiyasi, did, faxm-farosat, go'zallik, nafosatli rivojlanish, nafosat madaniyati, nafosat ongi, nafs ehtiyojlari, nafosat qiziqishi, nafis tuyg'ular, badiiy tarbiya, jismoniy tarbiya, ulg'ayish, jismoniy madaniyat.

Mavzuga oid muommalar:
Turli davrlarda har bir xalqda nafosat tarbiyasi yoshlarga turli vositalardan foydalangan holda berib kelingan. Inson hayotida, jumladan yoshlar tarbiyasida nafosat tarbiyasi berishning ahamiyati nimada deb o'ylaysiz? Bugungi kunda nafosat tarbiyasi berishning asosiy vositalari sifatida nimalarni sanaysiz? Fikringizni izohlang.
Maktab yoshlarga nafosat tarbiyasi berishning asosiy o'rinlaridan sanaladi. Maktabda nafosat tarbiyasi tizimini siz qanday izohlaysiz? Sizningcha maktabda nafosat tarbiyasi berishda yana nimalarga e'tibor qaratishni muhimroq deb hisoblaysiz?
Jismoniy tarbiya inson kamolatida alohida ahamiyatga ega bo'lib, tananig to'g'ri o'sishi, kuchli, chaqqon, epchil chidamli va mustahkam irodali bo'lishini ta'minlaydi. SHarqda qadimdan sog'lom avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelingan. SHarq va G'arbdagi jismoniy tarbiya to'g'risidagi eng dastlabki qarashlarni solishtiring. Ular o'rtasidagi o'xshashlikni va farqni shu davr ehtiyojidan kelib chiqqan holda tahlil qiling. Bugungi kundagi jismoniy tarbiyaning eng muhim vazifasi sizningcha nimalardan iborat.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga nafosat tarbiyasining mohiyatini tushuntirish, nafosat haqida ilmiy tushuchalarini izohlab berish, jamiyatdagi va kishilar faoliyatidagi go'zallikni o'rgatish, did, faxm-farosatni shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadi.
1. Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunini farqlaydi.
2. Nafosat tarbiyasiningmohiyatini so'zlab beradi.
3. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarni taqqoslab ko'radi.

1-asosiy savol bayoni:
Nafosat tarbiyasi – borliqdagi va san'atdagi go'zallikni tushunish, ulardan zavqlanish va uni yaratishga intilishni tarkib toptirish.
Inson xar doim go'zallikka intiladi, undan ma'naviy ozuqa oladi.O'z xayotini, faoliyatini, turmush sharoitini, o'zini o'rab turgan atrof- muxitni go'zalroq bo'lishga xarakat qiladi.
Bu xol o'z navbatida uning dilini, nozik xis-tuyg'ularini shakllantiradi.
Odamlarni o'ziga rom etuvchi go'zallik namunalari xayotning turli jabxalarida namoyon bo'ladi.
SHuning uchun bolaga juda yoshligidan oilada, maktabgacha tarbiya muassaslarida, ayniqsa maktabdan nafosat tarbiyasi aloxida e'tibor bilan beriladi.
Nafosat tarbiyasi xar bir davrda, xar bir xalqda turlicha bo'lsada, uni amalga oshirishning asosiy vositalari, tabiat go'zalligini sanab o'tadi. Bu vositalar bir- birini to'ldirib,boyitib beradi.
Barchasidan to'la baxramand bulgan kishining ma'naviy boy, yuksak didli bo'lsagina zavqli xayot kechirishi mumkin.
Tabiat o'ziga xos go'zalliklarga ega bo'lib, ma'lum qonuniyatlari asosida o'zgarib, jilolashtiradi. Yil fasllarning almashinuvi tabiatning ranglarini, shakllarining xushbo'y xidlaru, turli,jonzotlarning yoqimli tovushini,inson shu o'ringa tortiq etadi.Ular har bir kishini baxtiyor poklik,beg'uborlik olamiga olib kiradi.
Nafosat tarbiyasining yana bir tarbiyasi badiy ijod namunalari hisoblanadi. Ayrim pedagogik adabiyotlarda badiy tarbiya deb nomlanib, o'z ichiga badiy adabiyot,musiqa,qo'shiq va raqs sa'natini,teatr va kino sa'natin, tasviriy san'atning, xaykaltaroshlik, me'morchilik, halq amaliy sa'nati va boshqalarni oladi. Bu san'at asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda imkoniyatlari cheksizdir. Ayrim sa'nat asarlarini qiymati dunyoviy boyliklarda nixoyat darajada ustun turgannidek, badiiy tarbiya ham odamlarning ma'naviy boyishlarida tengi yo'q ta'sir kuchiga egadir. Dunyoning etti mo'jizasi sanalgan Misr firavnlarning ehromlari, Bobilning osma bog'lari, Efesdagi Artemida ibodotxonasi, Rodosskiy xaykali va Fors orolidagi mayoq hayratomuz go'zallik namunalari sanaladi. YOshlarga nafosat tarbiyasi berishda inson shaxsiyatidagi go'zallik namunalari sanaladi. YOshlarga nafosat tarbiyasi berishda inson shaxsiyatidagi go'zallikka ega bo'ladi.
Rus yozuvchi A.CHexov »Insonda hamma narsa go'zal bo'lish kerak» degan edi, ammo ularning orasida alohida ajralib turadigani ma'naviy go'zallikdir.

SHuning uchun xam milliy istiqlolga erishgandan keyin xalqning ma'naviyatini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda.
Muhokama uchun savollar:
Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunini farqini ajratib chiqing.
Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarni taqqoslab ko'rsating.
Inson shaxsidagi go'zallik namunalarini taxlil qiling.
O'zingizning va yaqin kishilaringizning nafosat xususiyatlarini qiyoslab chiqing.

2-asosiy savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga maktabda nafosat tarbiyasi berishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini tushuntirish. Maktabda turli fanlarni o'qitish orqali o'quvchilarning go'zallikka bo'lgan munosabatini shakllantirishini o'rgatish. Talabalarni yuksak didli, ma'naviy go'zal bo'lishlariga yo'naltirish.
Identiv o'quv maqsadlari:
Maktabda o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berishning tizimini aniqlab oladi.
Nafosat tarbiyasi berishga mo'ljallangan maxsus fanlarni o'qitishning xususiyatlarini qayd etadi.
Umumiy ta'lim fanlarining o'quvchilarga nafosat tarbiya berishdagi ahamiyatini izohlaydi.
2-asosiy savol bayoni:
Maktab yoshlarga nafosat tarbiyasi berishning asosiy o'rinlaridan biridir. O'rta umumiy ta'lim tarkibiga kirgan barcha fanlarni o'qitishda o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berib boriladi,maxusus nafosat tarbiyasi fanlari o'qtiladi,ularga rasm,ashula,chizmachilik va boshqalar kiradi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, mehnat darslarida ham nafosat tarbiyasi doimiy berib boriladi.
Bulardan tashqarii adabiyot, ona tili, odobnoma, tabiatshunoslik, jug'rofiya va boshqa fanlarni o'qitishda mavzuning mazmuniga mos holda nafosat tarbiyasi beriladi.
Bevosita nafosat tarbiyasi beruvchi rasm va ashula darslari o'quvchilarning eng qiziqadigan hamda ijodiy o'rgandigan o'quv darslaridir. Bu darslarda o'quvchilar go'zallikni ongli idrok etibgina qolmasdan, ko'nikma va malakalar hosil qiladi.Buyuk rassomlar, bastakorlarning asari bilan tanishadi. O'zlari rasm chizadi, musiqa tinglaydi, ma'nasini tushunadi,imkoniyat darajasida ijrochilik mahoratlarini egallaydilar.
O'quvchilarga nafosat tarbiyasini berishda maktabda tashkil etiilgan badiiy to'garakning ahamiyati katta. O'quvchilar qobiliyati va qiziqishlariga mos holda rasm, musiqa, raqs, xalq amaliy san'ati to'garaklarida ishtirok etib, tegishli malakalarni egallaydilar.
Maktabda havaskor rassomlaarning ko'rgazmalarinig tashkil etilishi mukin. Unda «chevar qo'llar» to'garagi qatnashchilarining maktab ustaxonasida tayyorlanyotgan amaliy sa'nat namunalarni ham namoyish etish foydalidir. Maktab yoshlariga nafosat tarbiyasi berishning markazi vazifasini o'tay oladi. Bunga misol qilib, Mirzabod tuman R.Muxammedov nomli 21-son o'rta umumiy ta'lim maktabini ko'rsatish o'rinlidir.

Muhokama uchun savollar:

Maktabda o’quvchilarga nafosat tarbiyasi berishning tizimini mohiyatni ochib bering.
Nafosat tarbiyasi berishga mo’ljallangan maxsus fanlarni o’qitishning xususiyatlarini ajratib chiqing.
Umumiy ta’lim fanlarining o’quvchilarga nafosat tarbiya berishdagi ahamiyatini izoh bering.
Darsdan va sinfdan tashqarida nafosat tarbiyasi berishning shakllarini ko’rsatib beradi.
Badiy to’garaklarning nafosat tarbiyasi berishdagi imkonyatlarini sharhlab beradi.

3-asosiy savollar bo’yicha dars maqsadi.
Talabalarga maktabdan tashqarida nafosat tarbiyasini berishning mohiyatini tushuntirish. Badiiy ijod namunalaaridan zavqlanishga o’rgatish. O’z shaxsiyatida go’zallik yaratishga odatlantirish.
Identiv o’quv maqsadlari.
1. Vatanimizning go’zal tabiat manzaralari ta’siri ostida nafis his-tuygularini shakllantiradi.
2. Tasviriy san’at muzeylari va ko’rgazma zallarini kuzatib, estetik tuyg’ularini takomillashtiradi.
3. Me’morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan shaxarlarga sayohatlar uyushtiradi.
4. Musiqa va qo’shiq tinglashga,raqsdan zavqlanishga intilishninamoish etadi.

3-asosiy savol bayoni:
YUqorida ta’kidlanganidek nafosat tarbiyasiga tabiat manzaralari, yilning turli fasllarida unda sodir bo’ladigan o’zgarishlar ta’sir qiladi. SHahar va qishloqlarning qiyofasi ulardagi noyob binolar, bog’-rog’lar, me’morchilik yodgorliklari, xiyobonlar, maydonlar, favvoralar, xar-hil bezaklar, xatto tozalik, saranjom-sarishtalik bolalarning yuksak didli bo’lishlariga ta’sir etadi. SHu o’rinda ayniqsa, muzeylar, teatr va kinoxonalarning ahamiyatini aloxida ta’kidlamoq kerak.

O’zbekistonda dunyoga mashxur bo’lgan shaxarlar, ulardagi me’morchilik yodgorliklari va san’at muzeylari ko’plab kishilarni xayratlantirib, o’ziga maxliyo qilish imkoniyatiga ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, qo’qon, SHaxrisabz va boshqa joylarda go’zalligi bilan asrlar osha nafosat tarbiyasi berib kelayotgan inshoatlar bor.

O’zbekiston qadimdan badiiy ijod va san’atning markazlaridan biri sanalib kelingan. SHuning uchun ham unda A.Navoiydek shoirlar etishib chiqqan. Zaxriddin Bobur, B.Mashrab, Uvaysiy, Nodirabegim, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, X.X.Niyoziylarning o’zbek badiiy adabiyotini yangi cho’qqilarga ko’tardilar.

G’.G’ulom, H.Olimjon, A.qaxxor, S.Abdulla, Zulfiya, X.G’ulom, S.Axmad, M.Ismoiliy, J.SHaripov va boshqalarning asoslari xalqimizning qalbidan munosib o’rin egallaganlar.
Hozirga davrda o’zbek adabiyotini jaxonga tanitayotgan E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, M.Ali, O’.Xoshimov, N.Normurodov,O.YOqubov, P.qodirov va yana ko’plab shoir va yozuvchilarning asarlari yoshlarga nafosat tarbiyasini berishning bebaho xazinasiga aylanmoqda.

M.Nabiev, A.Abdullaev, J.Umarbekov, CH.Ro'ziev, B.Axmedov va boshqalarning asarlari jaxon ko'rgazmalarida namoish etilib, yuqori baholanmoqda. O'quvchilarni bu ijod namunalari bilan tanishtirish orqali ularda etuk did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular tarbiyalanadi.

Muhokama uchun savollar:
Vatanimizning go'zal tabiat manzaralari ta'siri ostida nafis xis-tuygularini shakllantiring va taxlil qiling.
SHoir va yozuvchilarning asarlarini chuqur o'rganib chiqing.
Tasviriy sa'nat ustalarini asarlari bilan tanishib chiqing va ularga baxo bering.
4.O'zbek kinosining nodir namunalarini jahon kinolarining ishlariga taqqoslab ko'rig. Milliy kinoning qadrli ekanligi qakida xuloslargizni bildiring.

4-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:
Jismoniy tarbiyaning ahamiyati,uni berish yo'llarini va shakllarini, maktab,oilada va jamoachilik ta'sirida jismoniy tarbiya berish haqida bilim,tushuncha va kunikmalar hosil qiladi.O'zining jismoniy kamolati haqida qayg'urishga o'rgatish.
Identiv o'quv maqsadlari:
Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolatidagi ahamiyatini aytib beradi.
Jismoniy tarbiyaga davlat tomonndan berilayotgan e'tiborni izohlaydi.
Jismoniy tarbiya bo'yicha olgan bilimlaridan kundalik hayotida fodalanadi.
Maktabda, oila va jamotchilik asosida jismoniy tarbiya berishni tekshirib ko'radi.
O'zining shaxsiy kun tartibi va jismoniy mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni loyihalashtiradi.
Jismoniy kamoloti turlicha bo'lgan yoshlarning jimoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari taqqoslandi.

4-asosiy savolning bayoni:
Jismoniy tarbiya inson kamolotida alohida ahamiyatga ega bo'lib, tananing to'g'ri o'sishi, kuchli, chaqqon epchil chidamli va amaliyotda ham mustaxkam irodali bo'lishini ta'minlaydi.

SHarqda sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta asrda SHarqda etuk insonni tarbiyalashga qaratilgan xarakatlarni Farobiy o'zining qator asarlarida umumlashtiradi. Olim o'z asarlarida qalb holatini mo'tadil saqlash uchun sog'lom avlod zarur deb ta'kidlaydi.

Farobiyning fikricha, jismoniy tarbiya shaxsni xar tomonlama rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi kundamuldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarni jismoniy sog'lom bo'lib o'sishga va o'z sog'lig'ini saqlashga o'rgatishdir. Mustaqil respublikamizda sog'liqni saqlash, jamiyatimizdagi sog'lom avlodni etishtirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda. SHulardan biri «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishidir.

Maktab o'quvchilariga jismoniy tarbiya berish uchun, jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni shunday tashkil qilish kerakki, o'quvchilar o'zlaridagi mehnatsevarlik, jasurlik, tashabbuskorlik xislatlarini to'la namoyish qila olish hamda xarakatli

o’yinlar va jismoniy mashqlarni yanada sevib, o’z yutuqlarini yanada takomillashtirishga ega bo’lsainlar.

Jismoniy tarbiya bo’yicha mashg’ulotlar ochiq xavoda, zalda yoki shu maqsadga muvofiq ajratilgan xonalarda o’tadi.

Jismoniy tarbiya darslarida o’quvchilar albatta maxsus kiyimda bo’lishi kerak. Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida xamma o’quvchilar ishtirok etishi kerak. Jismoniy tarbiya darsida, sinfdan tashqarii Mashg’ulotlarida va o’quvchilar uchun tartibda jismoniy tarbiya berishning asosiy mavzusi sinflar uchun chiqarilagan maxsus dasturda belgilab berilgan. O’quvchilarga jismoniy tarbiya berishda o’qituvchi avvalo o’z ishini yaxshi bilishi va sevishi kerak. Xar tomonlama etuk pedagog va sport texnikasi maxoratiga ega bo’lishi kerak. CHunki o’qituvchining pedagogik maxorati qanchalik, yuqori va jismoniy tarbiya bo’yicha maxsus bilimlar doirasi keng bo’lsa, unda tarbiya masalalarni xal etish imkonini shuncha ko’p bo’lishi sir emas, albatta. O’qituvchi, tarbiyachi umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg’ulotlarida o’quvchilarning sog’lig’i, yoshi va jismoniy tayyorgarligini xisobga olish zarur. O’yin va jismoniy mashqlar mashg’ulotlarida sinflar va guruxlar yoshiga qarab tanlanishi maqsadga muvofiq. Masalan: 1-2 sinflar (6-7 yoshli) 3-4 sinf (8-9yosh) o’quvchilarini birlashtirish mumkin. Sog’lomligiga qarab asosiy va tayyorlov guruhidagi o’quvchilar darsdan so’ng tashkil etiladigan jismoniy mashq va o’yin mashg’ulotlariga xech qanday cheklanishsiz kiritiladi. Tarbiyachining umumiy nazorati ostida o’quvchilar jismoniy tarbiyadan uy vazifalarini bajaradilar.

Muhokama uchun savollar:

Muntazam jismoniy tarbiya bilan shug’ullanasizmi? qanday mashqlar bajarasiz, qanday xarakatli o’yinlarga qiziqasiz? Erishgan natijalaringizni tahlil qiling.

Maktabda olgan jismoniy tarbiya siz uchun etarlimi, oilada uni qanday to’ldirish mukin. Ijtimoiy jismoniy tarbiyaning tomonlarini taqqoslang.

O’zingiz uchun kun tartibi tuzganmisiz, unga qat’iy amal qilasizmi? O’zgartirish, to’ldirishga zarurat seziladimi, ko’rgan foydangizni taxlil qiling.

O’rtoqlaringizni o’zingiz qiziqqan jismoniy tarbiya tadbirlariga qiziqtira olasizmi? qanday natijalar bergan, ular sizni qoniqtirdimi?

Mavzu bo’yicha echimini kutayotgan ilmiy mummolar:

Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini tahlil qilish.

Jismoniy tarbiyaga davlat tomondan berilayotgan e’tiborini bugungi kun taraqqiyotidagi ta’sirini aniqlash.

Buyuk sharq allomalarining jismoniy tarbiya haqidagi jismoniy tarbiya merosining bugungi kundagi ahamiyatini tahlil etish.

YOshlarga nafosat tarbiya berish tizimini hozirgi sanoat namunalari asosida ilmiy taxlil etish.

Nafosat tarbiyasi berishga mo’jallangan maxsus fanlar mazmunini boyitish va tasirchanligini oshirishni ta’minlash.

1-amaliy mashg’ulot: Nafosat va jismoniy tarbiya.

Dars maqsadi:

Talabalarga maktabdan tashqarida nafosat tarbiyasini berishning mohiyatini tushuntirish, nafosat haqida ilmiy tushuchalarni izohlab berish, jamiyatdagi va kishilar faoliyatidagi go'zallikni o'rgatish, did, faxm-farosatni shakllantirish.
Identiv o'quv maqsadi:
Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha beradi.
Maktabda nafosat tarbiyasini berishning mohiyatii izohlaydi.;
Maktabdan tashqarida nafosat tarbiyasini berish tartibini belgilaydi.
Nafosat tarbiyasi berishda badiiy adabiyotning ta'sirini aniqlaydi.

Kerakli jihozlar: Darsliklar, pedagogika xrestomatiyasi, o'quv qo'llanmalar. Adabiyot namoyondalarining asarlaridan namunalar. Ko'rgazmali qurollar, test topshiriqlari.

Ishni bajarish tartibi:
Maktabda o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berishning tizmini aniqlab olinadi.
Nafosat tarbiyasi berishga mujallangan maxsus fanlarni o'qitishning xususiyatlarini qayd etadilar.
Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunini farqlaydi.
Nafosat tarbiyasini berishda tabiat manzaralarining ahamiyatini taxlil etish.
Vatanimizning go'zal tabiat manzaralari ta'siri ostida nafos his-tuyg'ularini shakllantirish mohiyatni o'rganadi.
Tasviriy san'at muzeylari va ko'rgazma zallarini kuzatib, estetik tuyg'ularini takomillashtirib boradi.
Mashg'ulot yakuni.
Asosiy adabiyotlar:
Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» T 1994
Munavvarov A.K. – "Pedagogika", T., "O'qituvchi" 1996 y.
qo'shimcha adabiyotlar:
Mavlanova R.A., Turaeva O.T., Holikberdiev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 y.
Tursunov .I, Nishonaliev U . Pedagogika kursi T.1997

1-laboratoriya mashg'uloti.
Dars maqsadi: Jismoniy tarbiyaning ahamiyati,uni berish yo'llarini va shakllarini, maktab,oilada va jamoachilik ta'sirida jismoniy tarbiya berish haqida bilim,tushuncha va kunikmalar hosil qiladi. O'zining jismoniy kamolati haqida qayg'urishga o'rgatish.
Identiv o'quv maqsadi:
Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolatidagi ahamiyatini aniqlaydi.
Jismoniy tarbiyaga davlat tomondan berilayotgan e'tiborni izohlaydi.
Jismoniy tarbiya bo'yicha olgan bilimlaridan kundalik hayotida foydalanilanish metodikasini ishlab chiqiladi.
Maktabda, oila va jamoatchilik asosida jismoniy tarbiya berishni tekshirib ko'radi.

Kerakli jihozlar: 1-soatlik dars ishlanmasi,darsliklar, o’quv qo’llanmalar. Jismoniy tarbiya namoyondalarining asarlaridan namunalar. Ko’rgazmali qurollar, test topshiriqlari. Jismoniy tarbiya va sport haqidagi davlat hujjatlaridan namunalar.

Ishni bajarish tartibi:
Jismoniy tarbiyaning inson kamolotiga ta’sirini aniqlash.
Jismoniy tarbiyaning ahamiyati hakida qaysi allomalar ibratli fikr aytib berganlari tahlil etiladi.
Jismoniy tarbiya bo’yicha olgan bilimlarida kundalik hayotida foydalanish tahlil qilinadi.
Maktabda, oila va jamoatchilik asosida jismoniy tarbiya berishni imkoniyatlari tekshirib ko’riladi.

Asosiy adabiyotlar:
Karimov «Istiqlol va ma’naviyat» T 1994
«Barkomal avlod orzusi» T, 1999.
Munavvarov A.K. – “Pedagogika”, T., “O’qituvchi” 1996 y.
Mustaqil O’zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risidagi qonuni. Toshkent-1992 yil .
qo’shimcha adabiyotlar:
Mavlanova R.A., Turaeva O.T., Holikberdiev K.M. Pedagogika, T., O’qituvchi, 1999 y.
Tursunov .I, Nishonaliev U . Pedagogika kursi T.1997

Mustaqil ish topshiriqlari.
1. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarni taqqoslab va farqlarni qiyoslab chiqing.
Umumiy ta’lim fanlarining o’quvchilarga nafosat tarbiya berishdagi ahamiyatini o’rganing.
Musiqa va qo’shiq tinglashga,raqsdan zavqlanishga intilishni izohlang. Milliy musiqa sa’natiga xavas xaqida aytib bering.
Guruh bo’lib teatrga va muzeyga borish, unda ko’rganlarini muhokama qilish. Natijasini referat shaklida rasmiylashtirish.
Yilning eng asosiy jismoniy tarbiya va sport tadbirini izohlang.

Ushbu topshiriqlarga qo’ydagi adabiyotlaridan javob topasiz:
Asosiy adabiyotlar:
Karimov «Istiqlol va ma’naviyat» T 1994
«Barkomal avlod orzusi» T, 1999.
Munavvarov A.K. – “Pedagogika”, T., “O’qituvchi” 1996 y.
Mustaqil O’zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risidagi qonuni. Toshkent-1992 yil .
qo’shimcha adabiyotlar:
Mavlanova R.A., Turaeva O.T., Holikberdiev K.M. Pedagogika, T., O’qituvchi, 1999 y.
Tursunov .I, Nishonaliev U . Pedagogika kursi T.1997

---------------------
MAVZU: JAMOA VA O’QUVCHILAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH.

2 soat ma’ruza.

Asosiy savollar (masalalar):

*O’quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o’rni.*
*O’quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari.*
*O’quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi.*

Tayanch iboralar:

Jamoa, o’quvchilar jamoasi, farmal jamoa, nofarmal jamoa, umummaktab jamoasi, jamoada shaxs tarbiyasi, jamoa faollari, topshiriqlar, jamoaning rivojlanish bosqichlari, o’z-o’zini boshqarishh, istiqbol rejalar, parallel tarbiyaviy ta’sir, an’analar, yagona talab.

1. O’quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o’rni:

O’qituvchining maqsadi: O’quvchilar jamoasining mohiyatini bayon etadi. Jamoaning paydo bo’lishi va tarkib topishida topshiriqlarning ahamiyatini ochib beradi.
Jamoaning o’quvchi shaxsiga ta’siri va tarbiyaviy imkoniyatlarini tushuntiradi.
Talabalarning o’z jamoalarida to’tgan o’rni va mavkeini anglashga yunaltiradi.

Identiv o’quv maqsadlari:

*Jamoa va o’quvchilar jamoasining mohiyatini aytib beradi.*
*Jamoaning o’quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini izohlaydi.*
*Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini sharxlaydi.*

Pedagogika fani o’quvchilar jamoasini tashkil etish va shakllantirishga tarbiya nazariyasi va amaliyotining markaziy masalalaridan biri deb karaydi. Jamoada, jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash tarbiya nazariyasining muhim printsiplaridan biri hisoblanadi. Inson bolasi dunyoga kelganidan umrining oxirigacha turli jamoalarning a’zosi bo’lib yashaydi. Oila jamoasi, maktabgacha tarbiya, maktab jamoasi, ishlab chiqarish jamoalari o’zok davom etadigan farmal jamoalar hisoblanadi.
Farmal jamoa aniq tartib-qoidalar asosida ma’lum muddat davomida birlashgan kishilar uyushmasidir.

Nofarmal jamoa- kiska, tasodifiy yoki vaktinchalik birlashgan kishilar yigindisidir. Bunda har bir kishining o'ziga yarasha maqsadi asosiy rol uynaydi.
Nofarmal jamoaning o'zok vakt davom etadigan va shaxsga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shakli urtoklar guruhi (ulfatchilik) hisoblanadi.
Bola shaxsiga tarbiyaviy ta'sir etuvchi jamoa – ukvchilar jamoasidir.jamoa deyilganda umumiy maqsad (ijtimoiy foydali ahamiyat kasb etgan) va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarninng birlashmalari tushuniladi. Bolalarning jamoadagi o'zaro munosabati, shaxsiy javobgarlikni xis etishi, huquqdan foydalanish va vazifalarni bajarishda barcha a'zolarning tengligi bilan belgilanadi. Jamoaning asosini boshlang'ich jamoa tashkil etadi. Boshlang'ich jamoa A.S.Makarenko ta'biri bilan aytganda «shaxs bilan aloqada bo'lishi asbobi»dir, chunki, unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, hamma vakt birgalikda harakat qiladilar, butun jamoaga qo'yilgan maqsadni xal etishda katnashadilar. Har bir boshlang'ich jamoa(sinf) o'z tarkibiy qismlariga ega bo'lsada, umumiy jamoaning bir qismi hisoblanadi. Bu jamoa maqsadlarining birligi va umumiy ishlarni tashkil etishi bilan bog'liq bo'ladi.
O'quvchilar jamoasi kattalar jamoasidan faoliyatining romantik-ligi, rang-barangligi bilan farqlanadi. Jamoa ta'sirida o'quvchilar ma'naviy, iqtisodiy eqologik, jismoniy jihatdan tarbiyalanadilar. Jamoada bir-biriga gamxurlik qilish, o'zaro yordam, Faqat o'z haqida emas, balki boshqalar haqida ham uylashga intilish, jamoa manfaatini o'z qiziqishidan ustun qo'yish ko'nikmalari xosil bo'ladi. jamoada urtogklik va dustlik xissi mustaxkamlanadi. O'quvchilar jamoasini to'zayotib, tarbiyalayotib maktab o'qituvchilari uning har bir a'zosini shakllan-tiradi.
Xalqimizning buyuk allomalari, olimlari hamda atokli pedagoglari tarbiyada jamoaningn ahamiyatini yuksak baholaganlar.
Jamoa bo'lib yashash, ishlash va umuman faoliyat yuritish bizning odat hamda axlok normalarimizning ajralmas qismini tashkil etishi zarurligini ko'rsatganlar. Bunday xis yaxshi tashkil etilgan jamoadagini xosil bo'ladi va mustaxkamlanadi. Boshlang'ich jamoada bolalar bir birlari bilan yaqin munosabatda bo'ladilar. Ham ijobiy, ham salbiy ishlarni ko'radilaryu. Urtogining xatti-harakatlarini baholashga, boshqalar ishi uchun javob berishga o'rganadilar. Maktab jamoasining doimiy harakatdagi organlari bilan bir katorda jamoaga (ayrim sinflarda) va ayrim o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar ham alohida o'rin tutadi.
Jamoaga vaktincha beriladigan topshiriqlar ko'pchilik o'quvchilarni doimiy faoliyatga jalb etishni ko'zda tutadi. Jamoaga vaktincha beriladigan topshiriqning keeng tarkalgan turi – sinfning maktab bo'yicha navbatchilik qilishidir. Navbatchi sinf o'z vazifalarini yaxshi bajara olsa, navbatchilik qilishda ishonch bilidirilganini sezsa va bundan faxrlansa, navbatchilik huquqidan maxrum etilganda buni jiddiy jazo deb bilsa – bu tadbirdan ko'zlagan maqsadga erishilgan bo'ladi. shunga uxshash navbatchiliklar o'quvchilarda tashkilotchilik malakalarini, topshirilgan ish uchun javobgarlik xissini tarbiyalaydi, o'z ishlarining natijasini ko'rish imkonini beradi.
Navbatchilik ishlari uchun sinf faollari javob beradi. Navbatchilik ishlari moxirlik bilan tashkil etilgan kuvchilar jamoasiga ma'lum huquqlar berilgan joyda o'qituvchilar uchun navbatchilik ishlari bilan bog'liq bo'lgan xech qanday kiyinchilik

sezilmaydi, ayni vaqtda, bu o'qituvchilar o'quvchilarga maslaxatchi va yo'l ko'rsatuvchilar sifatida ish olib boradilar.
Ba'zi maktablarda yuqori sinf o'quvchilarini maktab xovlisini va unga yaqin joylarni tozalashga javobgar qilib tayinlaydilar. Bulardan tashqari, ular turli tadbirlar o'tkazish, umummaktab devoriy gazetasini chiqarish, muntazam radio eshittirishlarini uyushtirish uchun ham mas'ul bo'ladilar.
Ayrim o'quvchilarga beriladigan alohida topshiriqlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Topshiriq berishda har bir o'quvchining qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish zarur. Topshiriq - sust o'quvchilarni faollashtirishda, jamoa uchun foydali ishga jalb etishda juda yaxshi vositadir.
Alohida topshiriqlar o'quvchilarga kuyi sinfda boshlab beriladi. Kuyi sinflarda (1-2 sinf) o'quvchilar navbatchi sanitarlar, gulchilar, daftar tarkatuvchilar bo'lib xizmat qiladilar. YUqori sinf o'quvchilari Faqat sinf doirasidagiishlarni emas balki maktab undan tashqarida qilinadigan topshiriqlarni ham bajaradilar. Otalikka olingan sinf bilan ishlash, ko'rsatma materiallar tayyorlash, karovchilari bo'lmagan keksa oilaga qarashish kabi ishlar shular jumlasidandir.
Topshiriq beriladigan sharoit hamda topshiriq berish oxangi ishning bajarilishida juda muhim ahamiyatga ega. Topshiriq aniq bo'lishi, jiddiy tabiiy oxangda o'quvchiga ishonch bildirib, ba'zida tabassum hamda xazil aralash va hamma vakt har bir o'quvchiga alohida dikkat e'tibor bilan gapirish kerak. Topshiriqlarninng o'z vaktida bajarilishini nazorat qilish, uning bajarilganligihaqida hisobott berishni talab qilish nixoyatda muhimdir. Agar bola bajarish vaktida birorta yangilik kiritsa, topshkirlik namoyon etsa buni albatta takidlab o'tish kerak.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*Jamoa bo'lishning asosiy belgisi.*
*A. Maqsad birligi.*
*B. Ruxiy yaqinlik.*
*V. YAshash uchun kulay sharoitga ega bo'lish.*
*G. Zerikib qolmaslik.*
*D. O'zaro yordam.*
*Farmal jamoani ko'rsating.*
*A. Kino zalida utirib tomosha qiluvchilar.*
*B. Futbol ko'rish uchun stadionga yigilganlar.*
*V. Futbol uynayotgan komanda a'zolari.*
*G. Avtobusdagi yo'lovchilar.*
*D. Bozordagi haridorlar.*
*Nofarmal jamoani aniqlang.*
*A. Oila jamoasi.*
*B. Sinf jamoasi.*
*V. Maktab jamoasi.*
*G. Urtoklar yigini.*
*D. Tugarak a'zolari.*
*O'quvchilar jamoasining asosiy xususiyatlarini so'zlab bering.*

*O'qituvchilarning boshlang'ich jamoasi*
*A. O'quvchilar.*
*B. Tarbiyasi kiyin o'quvchilar.*
*V. Maktabning barcha o'quvchilari.*
*G. Bir kuchada (maxallada) yashovchi o'quvchilar.*
*D. Sinf o'quvchilari jamoasi.*
*O'quvchilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini yozma bayon eting.*
*O'quvchilar jamoasiga topshiriqlar berishda nimalar e'tiborga olinadi.*
*A. O'quvchilarning yosh xususiyatlari.*
*B. O'quvchilarning bush vakti.*
*V. Moddiy manfaatdorlik.*
*G. O'qituvchilarning nazorat qilishiga kulaylik.*
*D. Maktab direktorining buyrugi.*
*Topshiriqning muhim xususiyati.*
*A. Engil bajarilishi.*
*B. Murakkabligi.*
*V. O'z vaktida bajarilishi.*
*G. Bajaruvchi uchun foydaliligi.*
*D. Kasb egallashga qaratilganligi.*
*Jamoaga va alohida o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning jamoaning mustaxkamlashdagi o'rnini aniq misollar bilan izohlab bering.*

<u>2. O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari:</u>

O'qituvchining maqsadi: O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlarini birma-bir talabalarga tushuntirib beradi. Har bir bosqichda jamoa qanday holatda bo'lishini izohlaydi.
Talabalarni jamoa tarkibida faol bo'lishga odatlantiradi.
Jamoani xurmat qilishga va uning barcha talablarini bajarishga o'rgatadi.

<u>Identiv o'quv maqsadlari:</u>

*O'quvchilar jamoasining bosqichlarini so'zlab beradi.*
*Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi.*
*Jamoa faollarining xususiyatlarini tavsiflaydi.*

O'quvchilar jamoasi sinf tashkil topgan kundan boshlab shakllanib boradi. Ammo, dastlabki davrlarda xali jamoa jipslashmagan, alohida o'quvchilar guruhi sifatida mavjud bo'ladi.
O'qituvchining, umummaktab jamoasining va sinf o'quvchilarining sa'y-harakatlari bilan sekin-asta jamoa tartib-qoidalari namoyon bo'lib bora boshlaydi.
Bu jarayon bir-biriga uzviybog'liq bo'lgan bir qancha bosqichlarda o'z takomiliga etadi.
<u>Birinchi bosqich:</u> O'quvchilar bilan ishlashning dastlabki davrida – xali jamoa tashkil etilmagan, faollar shakllanmagan vaqtda, shaxsga nisbatan jamoaning talabi

bo'lmaydi, har bir o'quvchi o'zi uchun javob beradi, o'quvchilar xali o'z urtoklari oldiga ham biror talabni kuya olmaydilar. SHuning uchun ham bu davrda o'qituvchining o'quvchilarni o'zlashtirish va intizom masalasini tushunishini talab etish qoidasidir. Rivojlanishning bu bosqichida o'qituvchinigng talabi kat'iy, jiddiy, izchil printsipial bo'lishi kerak. Bu talablar tashkil etishga ilgaridan uylangan murakkablashib boruvchi foydali ishlar tizimini bajarishga yunaltirilgan bo'lishi muhimdir. O'qituvchining talablari bolalar yoshi va imkoniyatiga mos, etarlicha jiddiy bo'lishi kerak. Uo'qituvchi yuqori talablarni qo'yish asosida o'z atrofiga faollarni – jamoaning eng yaxshi qismini yigadi. Faol o'qishga qizikuvchi sinf, maktab obro'yinin saqlab qolishga harakat qiluvchi, o'qituvchining talablarini qo'llab kuvvatlovchi o'quvchilardir.

SHunday qilib, birinchi bosqichda pedagogning eng muhim vazifasi sinf jamoasining yadrosi bo'lgan faollarni shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi bosqich Faollar bilan astoydil ishlash, ularni jipslashtirish va birgalikda ishlashaga o'rgatish, jamoa ishlarini tashkil qilish bilan harakterlanadi. Buning uchun esa faollarni tez-tez yig'ish, ular bilan ayrim muhim masalalar bo'yicha seminarlar o'tkazish, o'z maktabining ishlari hamda istiqbollari haqida suhbatlashish, ular bilan birgalikda kundalik masalalarni xal qilish, faollar ichida rahbarlik ishiga layokatli bolalarni tanlash (saylash) zarur.

Boshqalarga qaraganda faollardan intizomga kat'iy rioya qilishni ko'prok talab etish, ularni o'qishda va intizomda, jamoatchilik ishida ham boshqa bolalarga namuna ko'rsatishga undash zarur. Faollarga berilgan imtiyozlar adolatli bo'lishi va u o'quvchilar tomonidan qo'llab-kuvvatlanishi, bu uning jamoa oldidagi xizmatlari natijasi ekanligini o'quvchilar xis etmoklari kerak.

Faollarga nisbatan qo'yiladigan talablarning pasayishi, o'rinsiz imtiyozlar berishi sinfda yomon vaziyat tugdirishi mumkin. pedagoglar faollar e'tiborini jamoa a'zolari bilan ishlashga karatmoklari kerak. Faollar boshlang'ich jamoaga tayangan holda maktab hayotiga ko'plab o'quvchilarni jalb etadi. Bu bosqichda faollar jamoaga ko'prok talablar kuyib, o'ziga ham talabchan bo'ladi. Faollar rivojlanishning bu bosqichida xali bush va beqaror bo'ladi, birok shunday bo'lishiga karamay, pedagog tarbiyaviy vazifalarni xal qilishda ularga tayanadi. Bu bosqichda o'qituvchining muhim vazifasi faollarni jamoa a'zolari bilan ishlashga o'rgatish, jamoani yanada mustaxkamlashdan iboratdir.

Uchinchi bosqich: Jamoa hayotining bark urishi o'zaro munosabatlarning shakllanishi jamoaning shaxsga ta'siri bilan harakterlanadi.

Faollar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlari ta'sirida jamoa rivojlanadi. U yoki bu faoliyatni bajarish jarayonida o'quvchilar jamoa bo'lib ishlash tajribasini orttiradilar. O'quvchilar organlari tomonidan belgilangan talablarga muvofiq o'zlarida xulq-atvor tarbiyalaydilar. Uchinchi bosqichda o'qituvchi va faollarning talablarini ko'pchilik o'quvchilar qo'llab kuvvatlaydilar. O'qituvchining pedagogik mavkei yashirin shaklga kirib boradi.

O'qituvchi shaxsga sinf jamoasi orqali ta'sir etadi. Bunday ta'sir ko'rsatish natijasida ham shaxs ham jamoa tarbiyalanib boradi. Bunday metod parallel pedagogik ta'sir ko'rsatish metodi deb hisoblanadi. O'qituvchining har bir shaxsga kuyadigan talabi

jamoaga kuyadigan talablariga qaraganda ta’sirlirok, sezilarlirok bo’ladi. Bu bosqichda bir-biriga bog’liq ikki masala: jamoatchilik fikri va an’analarni yuzaga chiqarish xal etiladi. Bu davrda Ayniqsa axlok nazariyasini o’rganish, birgalikdagi faoliyat natijasida to’plangan tajribalarni anglash, milliy mafkura asoslarini tarkib toptirish muhimdir. Axloqiy printsiplarni , axlok-odob mavzusidagi suhbatlar,munozaralar o’tkazish, ukilgan kitob va ko’rilgan kinofilmlarni muxokama qilish yo’li bilan tushuntirish zarur. Buning uchun jamoada zamin mavjud bo’ladi. uchinchi bosqichda bolalar o’rtasida dustlikni shakllantirish katta ahamiyatga ega. O’qituvchining bolalarga munosabati ham nixoyatda samimiy bo’lishi kerak. Bu davrga kelib o’qituvchi tarbiyalanuvchilarning harakteri, qiziqishi, talabi bilan tanishib, ruxiy holatini yaxshirok biladigan bo’ladi.

<u>To’rtinchi bosqich:</u> Bu davrda pedagogik vazifalar murakkablashadi. Jamoaninng ayrim shaxsga ta’sir doirasi kengayadi. Har bir o’quvchining axlokiga va jamoatchilik o’rtasidagi o’zini to’ta bilishiga bo’lgan talabi kuchayadi. Bu bosqichda barcha masalalarni shu bilan birga axloqiy o’zlashtirigsh, turmush masalalarini ham, buning ustiga Faqat xatti-harakatlarnigina emas balki shu xatti-harakatlargi undovchi motivlarni ham jamoa muxokamasiga qo’yish mumkin. shaxsning o’ziga kuygan talabi boshqalarga kuygan talabiga qaraganda yuqorirok bo’ladi. Bu bosqichda o’quvchilar jamoasi kattalar jamoalari bilan hamkorlik o’rnatadilar. Ishlab chiqarish korxonalari, zavod, fabrikalar, xususiy tadbirkorlik va fermer xujaliklarning ish faoliyatlarini o’rganadi.o’quvchilar kelajakda o’zlari kushilishi mumkin bo’lgan jamoalar bilan tanishib boshlaydilar. Jamoa va shaxs tarbiyaning Faqat sub’ekti bo’lib qolmay, ob’ekti hamdir. Jamoaning bosqichma-bosqich rivojlanishi murakkab, karama-karshi va dialektik jarayondir. Ayrim bolalar jamoa rivojlanishidan o’zib yoki orqada qolib ketishi mumkin. birok bosqichlar o’rtasida keskin o’zgarish ko’zga tashlanmaydi. SHu boisdan bosqichlarga bo’lish shartli harakterga egadir. Jamoaning rivojlanishida o’qituvchining roli katta. U jamoaning tarbiya maqsadiga muvofiq rivojlanishga yunaltiradi. Pedagog jamoa rivojlanishining qonunini bilsa, jarayonni tezlashtiradi, bilmasa sekinlashtirib yuborishi mumkin.

Nazorat topshiriqlari:

*O’quvchilar jamoasi (to’la shakllanganiga kadar) necha bosqichdan iborat bo’ladi.*
*A. Ikki bosqichdan.*
*B. Besh bosqichdan.*
*V. Uch bosqichdan.*
*G. To’rt bosqichdan.*
*D. Un bosqichdan.*

*Jamoa tarkib topishining birinchi bosqichida kim asosiy rolni uynaydi?*
*A. Maktab direktori.*
*B. Tarbiyaviy ishlar bo’yicha muovini.*
*V. Sinf o’qituvchisi.*
*G. A’lochi o’quvchilar.*
*D. Sinf faollari.*
*Ikkinchi bosqichning harakterli xususiyati.*

*A. Faollar ishini yo'lga qo'yish va birgalikda ishlash.*
*B. Muqobil rejalar qabul qilish va bajarish.*
*V. O'qituvchining ukuchilar shaxsini o'rganishi.*
*G. Maktab ma'muriyatintng buyruqlarini bajarish.*
*D. Tezrok uchinchi bosqichga o'tish.*
*Jamoaning shaxsga ta'siri qaysi bosqichda kuchayadi.*
*A. To'rtinchi bosqichda.*
*B. Uchinchi bosqichda.*
*V. Hamma bosqichlarda.*
*G. Ikkinchi bosqichda.*
*D. Birinchi bosqichda.*

*O'qituvchining o'quvchi shaxsiga sinf jamoasi orqali ta'sir etishi _________________ bosqichda amalga oshadi.*
*Jamoa taraqqiyotining to'rtinchi bosqichida ahamiyatli bo'lgan holatni aniqlang.*
*A. Jamoa a'zolarining bir-birini o'rganishi.*
*B. Jamoa faollarini tanlash.*
*V. Kattalar jamoalari bilan hamkorlik o'rnatish.*
*G. O'qituvchi ta'sirining ortib borishi.*
*D. O'qishga qiziqishning ortishi.*
*Jamoa faollarini tanlashda e'tibor beriladigan xususiyatlarni aniqlang va yozma bayon eting.*
*Faollarga yondoshishda bola shaxsini xurmat qilish va imkoni boricha talabchan bo'lish qoidasiga amal qilishning mohiyatini tushuntirib bering.*
*Jamoa faollarining vaxloqiy fazilatlari qanday bo'lishi kerak. Kachon ularni barcha o'quvchilar tan oladilar. Fikringizni yozma bayon eting.*

3. O'quvchilar jamoasini shakllantirish metodikasi:

O'qituvchining maqsadi: O'quvchilar jamoasini shakllantirishning metodikasini talabalarga tushuntirish. Jamoa oldiga va ayrim o'quvchilarga talablar qo'yishning usullari, istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish yo'llari, an'analarga tayyorgarlik ko'rish va shnishonlash metodikasi haqida ma'lumo beriladi. Talabalar ishtirok etishi mumkin bo'lgan jamoalarda o'z o'rnini topishga, faollik ko'rsatishga odatlantiriladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

*O'quvchilar jamoasini mustaxkamlashda talablar qo'yishning samarali yo'llarini qayd qiladi.*
*Ukvchilar jamoasini shakllantirishning turli yo'llarini farqini ko'rsatadi.*
*Talab qo'yish, istiqbol rejalar tuzish va bajarish, an'analarni nishonlash usullarini takkoslaydi.*

Jamoani shakllantirishda ukvchilarga qo'yiladigan yagona talabning ahamiyati kattadir. Maktabning «yagona talabi» – bu har xil sharoitlarda ukvchilarning xatti-

harakatini tartib ga soluvchi bir necha unlab bandlarni o’z ichiga oluvchi hujjatdir. YAgona talab o’quvchilarning darslardagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaktidagi jamoat joylarida, uydagi madaniy xulq-atvor qoidalarini o’z ichiga oladi.pedagoglar jamoasi tomonidan kuymilgan talablar quyidagi sharoitlardagina ijabiy natija beradi:

*O’quvchilarga qo’yiladigan talablar o’quvchini xurmat qilishni o’z ichiga olish kerak.*
*Pedagoglar jamoasi yagona talablarni muayyan maktabning, sinfning aniq sharoitini hisobga olgan holda qo’yilishi kerak.*
*Talablar aniq bo’lishi kerak. O’quvchilar o’zlaridan nima talab qilinayotganligini aniq tushunishlari lozim.*

*O’quvchilarga talablar qo’yish metodikasi* bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib ularning ahamiyatini tushuntirishi,tajriba orttirishi hamda ularni muntazam suratda nazorat qilib borishdan iborat. Nazorat qilib borish hakllari xilma-xildir.: xulq-atvor jo’rnalini yuritish, darsdagi nojuya harakatlar haqida sinfning munosabati, sinfdagi navbatchilik uchun baxo kuyib borish shular jumlasidandir.
Nazorat ob’ektiv va muntazam bo’lishi kerak. Hisob aniq va tushunarli bo’lishi, ularning natijasi bolalarga ma’lum qilinishi lozim.
O’quvchilar jamoasi shunday ishlarni tanlab olishi kerakki, bu ishlar barcha ukvchilar hamda har bir o’quvchining qiziqishiga javob bersin. Bunday istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish maqsadga muvofiqdir.
Istiqbol rejalar belgilashning ikki asosiy metodi borligini ko’rsatish o’rinlidir.

*O’qituvchining o’zi o’quvchilar oldiga vazifa kuyadi, bunda u ana shu vazifalarni xal etish yo’llarini ko’rsatadi va o’quvchilarni qiziktirishga intiladi.*
*O’quvchilarning o’zlari qizikarli tadbirdlarni ilgari suradilar, o’qituvchi bu tashabbusni qo’llab-kuvvatlaydi hamda amalga oshirish usullarini topishda yordam beradi.*

Birinchi metod o’quvchilar jamoasini tarkib toptirishning dastlabki bosqichida, ikkinchisi esa ancha yuqorirok bosqichda, o’qituvchi tomonidan qo’yilgan talabni sinf faollari qo’llab kuvvatlaydigan davrda qo’llaniladi.
SHunday qilib, o’quvchilar faoliyatini uyushtirishda Faqat istiqbolni qo’yish, uning mazmunini to’g’ri belgilashgina emas, balki bu tadbirlarni amalga oshirish va muddatini belgilash ham ahamiyatlidir.
YOsh jamoada yoki kuyi sinf o’quvchilaridan tashkil topgan jamoada ishni yaqin istiqbolni qo’yishdan boshlagan ma’kul.
Sinf xonasini tartibga keltirish, shahardan tashqariga sayr, birgalikda kino ko’rish, yaqinrokdagi tarixiy yodgorliklarga borish kabi ishlarni boshlang’ich sinf o’quvchilari kuvonch bilan qabul qiladilar.
O’quvchilar jamoasi o’sib va mustaxkamlanib borishi bilan ularning oldiga o’rtacha va o’zok istiqbollar qo’yiladi. Ipak ko’rti boqiladigan bino ko’rilishi, otalikka olingan bogcha uchun uyinchoklar yasash, maktabni ilgari bitirgan o’quvchilar, shahar yoki kishlok ishlab chiqarishining eng yaxshi xodimlari bilan uchrashuvlar, xosil

bayramini o’tkazish, jonajon ulka buylab yozgi turistik sayoxatni uyushtirish ana shunday ishlar jumlasidandir. Jamoa doim faoliyatda bo’lishi uchun uning oldiga yangi qizikarli istiqbollar qo’yilishi kerak.
O’quvchilar belgilangan ishlarni bajarib bo’lishlari bilan ular oldiga oldingisiga qaraganda ko’prok kuch gayrat sarflashni, ko’prok tashabbus ko’rsatishni talab etuvchi boshqa vazifalar qo’yish zarur.
O’qituvchining vazifasi o’quvchilar jamoasi faoliyatini o’zlashatirishni yuqori ko’tarish uchun ko’rashga yunaltirishdan iborat.
Belgilangan ishlar quyidagi sharoitlarga rioya qilingandagina yaxshi natija berishi mumkin:

*A) Ishlarni bajarishga puxta tayyorgarlik ko’rish;*
*B) Tayyorgarlik ishlarida iloji boricha ko’prok ukvchi katnashish.*

Tayyorgarlik davomida o’quvchilar o’zaro xilma-xil munosabatda bo’ladilar, buning natijasida maktab jamoasi o’sib, mustaxkamlanib boradi. Har bir o’quvchi ma’lum vakt davomida maktabda bo’ladi. maktabning kelajagi, uning boyligi, madaniy hayoti hamma vakt katta va jiddiy maqsad sifatida jamoa oldida turishi shart. O’quvchilar maktabni sevsalar uning kelajagiga qizikib karaydilar.
Pedagogning maxorati o’quvchilar jamoasi oldiga muhim istiqbollar kuya bilishdan, vazifalarni amalga oshirishga chakiribgina qolmasdan bolalar gayrat shijoatini, topshiriqlarini bajarishga karatishdan ham iborat.
O’quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim o’rin tutadi. An’ana o’quvchilarning birgalikdagi faoliyatining shunday shakliki unda munosabatlar harakteri hamda ijtimoiy fikr yorkin ifodalanadi. Mavjud an’analarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

*A. Kundalik turmush an’analari.*
*B. Bayram an’analari.*

*Kundalik turmush an’analari* o’quvchilarning o’quv faoliyatini, mehnat faoliyatini va boshqa faoliyatlarni o’z ichiga oladi.
*Bayram an’analari*ga davlat tomonidan belgilangan kunlarni nishonlash, bitiruvchilar kechasi, paxta bayrami o’tkazish, «alifbe kuni» va boshqalar kiradi.

Nazorat topshiriqlari:

*O’quvchilar jamoasini mustaxkamlashning foydali yo’llaridan birin aniqlang.*
*A. Talabning aniq bo’lishi.*
*B. Muntazam nazorat qilish.*
*V. Jamoa a’zolariga keng erk berish.*
*G. Kattikkullik qilish.*
*D. Faollarni rag’batlantirib turish.*
*Maktabning «YAgona talabi» deganda nimani tushunasiz?*
*A. Direktorning buyruqlarini.*

*B. O'qituvchilar kengashi qarorini.*
*V. O'qituvchilarning xulqini tartibga soluvchi qoidalar yigi-ndisi.*
*G. Sinf majlisining qarorlari.*
*D. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari rejasi.*
*O'quvchilarga qo'yiladigan talablar______________________ kushib olib borilganda ijobiy natijalar beriladi.*
*«O'quvchilardan talab qilishdan oldin, o'qituvchi o'zidan talab qilishni o'rganishi zarur» - degan fikrni kim bildirgan.*
*A. X.X.Niyoziy.*
*B. A.Avloniy.*
*V. A.Navoiy.*
*G. K.D.Ushinskiy.*
*D. A.S.Makarenko.*
*Faollar bilan ishlashda kuyi sinf o'quvchilari, o'rta yoshdagi o'quvchilar hamda yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ish usullarini tahlil qiling.*
*Istiqbol rejalar qabul qilish va bajarishning tarbiyaviy ahamiyatini so'zlab bering. Ularning yutuklarini izohlang.*
*Kiska, o'rta va o'zok muddatli istiqbol rejalarga misollar keltiring. Ularning qabul qilinishi, bajarilishi va yakunlanishini takkoslab ko'ring.*
*Maktabda nishonlanadigan an'analar necha guruhga bo'linadi.*
*A. Ikki guruhga.*
*B. Uch guruhga.*
*V. To'rt guruhga.*
*G. Besh guruhga.*
*D. Olti guruhga.*
*Parallel ta'sir etish printsipining mohiyatini tushuntirib bering va uning ahamiyatini izohlang.*
*O'zingiz a'zo bo'lgan jamoaning shakllanganlik darajasini aniqlang. Faollar munosib tanlanganmi. qanday o'zgarish kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. jamoangizning yutuk va kamchiliklarini yozma tahlil qiling.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

*Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.*
*Barkamol avlod orzusi. T., «SHark», 1999.*
*Pedagogika. A.K.Munavvarovning taxriri ostida. T., 1996.*
*Pedagogika. T.A.Ilina taxriri ostida. M., 1984.*
*Makarenko A.S. Bola tarbiyasi haqida suhbatlar. T., 1978.*

MAVZU: TARBIYACHI VA SINF RAHBARINING ISH USLUBI

2 –soat ma'ruza.
Asosiy savollar:

*Maktabda tarbiyaviy ishlari yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibi;*

*Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talblar;*

Tayanch iboralar:

Sinf, jamoa, o'quvchilar jamoasi, tarbiyaviy ish reja, tarbiyachi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, tarbiyaviy soat, ota-onalar qo'mitasi, pedagogik hamkorlik.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibi

O'qituvchining maqsadi: Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish tushuntiradi. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish tartibini o'rganish orqali talabalarda rahbarlik va tarbiyachillikka qiziqish uyg'otadi.

Indentiv o'quv maqsadlari:

*Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishni tushuntiradi;*
*Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibini asoslaydi.*

MAVZU: DIDAKTIKA HAQIDA TUSHUNCHA.

2 –soat ma'ruza.

Asosiy savollar:

*Didaktika tushunchasining mohiyati.*
*Didaktikaning paydo bo'lishi, taraqqiyoti va asosiy didaktik muammolar.*

Tayanch tushunchalar:

Didaktika, o'qitish, bilim, ta'lim, bilish, faoliyat, o'qituvchi, o'quvchi, «buyuk didaktika»

1. Didaktika tushunchasining mohiyati:

O'qituvchining maqsadi: Didaktikaning mohiyatini talabalarga tushuntiradi. Ularga ditaktika tushunchasini chuqur egallashiga yordam berib, o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otadi.
Identiv o'quv maqsadlari:

Ditaktikaning mohiyatini tushuntiradi.

Didaktikaning mazmunini sharxlab beradi.
Didaktikaning mohiyatini asoslab beradi.
Ta'lim berish va o'qitish nazariyasi maktab o'quvchilari bilim olishi-ning va o'qituvchi faoliyatining qonuniyatlarini ochib beradi. O'qitish jarayonining mohiyati, printsiplari, mazmuni, metodlari hamda tashkil etilishini belgilaydi va izohlaydi.
"Didaktika " termini yunoncha " didaktikos " degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ta'lim beruvchi degan ma'noda tarjima qilinadi.
YA. A. Komenskiy yashagan davrdan etiboran didaktik zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy to'zumi tushuniladi. Hozirgi vaqtda " didaktika" termini bilan birgalikda keng ma'noda o'qitish nazariyasi ta'lim berish nazariyasi ishlatiladi.
Didaktika quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitish printsiplari, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkil etilishi
Didaktika sistemasini izchil tarzda o'zlashtirish o'quv-tarbiya jarayoning barcha jihatlarini tushunishga, ijodiy yondashishni va maxoratni ta'minlashga yordam beradi. Didaktika o'ziga xos tushunchalari va terminlariga ega. Ular asosan pedagogika faning shu bo'limida qo'llaniladi. O'qitish, ta'lim olish, o'rganish mustaqil ravishda o'qish ilmiylik, sistemalik ko'rgazmalilik, ta'lim olish, o'quvchilarning ong-liligi va faolligi ta'lim olishning individuallashtirish va diffe-rentsiyalashtirish, dars, sinf, amaliy va laboratoriya mashgulotlari,o'quv eksko'rsiyalari, o'zlashtirish va shu kabilar ancha ko'p qo'llanadigan terminlardir.

O'QITISH NAZARIYASINI O'ZLASHTIRISH UCHUN BU TUSHUNCHALARDAN HAR BIRINI ILMIY MA'NOSINI YAXSHI BILISH KERAK

*Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish», va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umuimy didaktika esa o'z navbatida ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustaxkam boglanadi. SHu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini echib boradi. Ayni vaqtda har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.*
*SHarku-Garb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi. Buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabilar tibbiyot, mantik, musika, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash goyasini olga surdilar. Ular dunyoviy ta'limni keng rivojlantirishga katta xissa kushdilar.*
*O'zbekistonda didaktik ta'lianing tashkil topishi va rivojlanishi A.Avloniy, X.X.Niyoziy, M.Rasuliy, K. Niyoziy, O.SHarafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatdagi formalizmning kat'iyan oldini olish, o'qitishdagi muqobil usul, shakl va vositalarini tanlash, pedagogika fani yutuklarini amalga joriy qilish vakti etdi. Usuliy ishlarni jonlantirish, o'qituvchilarning tashabbuslarini, ijodiy izlanishlarini har tomonlama rivojlantirish, ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish lozim.*
*Lekin bu dasturni amalga oshirishda xech bir holda avvallari pedagogika hamda didaktikada yaratilgan asarlarni. Xalq pedagogkasining nodir meroslarini chekkaga*

*surib qo'yish mumkin emas. Pedagoglar bir qancha avlodlarning mehnati bilan qo'lga kiritilgan, pedagogika fani erishgan barcha kimmatli yutuklar, zamon sinovidan o'tgan jamiki ilg'or qarashlarni avaylab asrashi va O'sha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak.*

Nazorat topshiriqlari:
Didaktika bu…
A. Tarbiya nazariyasidir.
B. Ta'lim nazariyasidir.
V. Ta'lim-tarbiya nazariyasidir.
G. O'qitishdir.
D. O'rgatuvchidir.
Didaktika qanday savollarga javob izlaydi.
A. Nimani qanday o'qitish.
B. qanday o'qitish.
V. Nimaga o'qitish.
G. Nimani, nimaga, qanday o'qitish.
D. Didaktik savollarga.
Didaktika qaysi kategoriyalarni o'z ichiga oladi.
A. O'qitish jarayoni, o'qitish printsiplari, o'qitish metodlari, uki-tishning tashkil etilishi..
B. Talim berish, tarbiya berish, o'rgatish, o'qitish.
V. Tarbiya, ta'lim, ma'lumot.
G. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlantirish.
D. Ta'lim va tarbiya.
Didaktika tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
Didaktika tushunchasining mohiyatini sharxlab bering.
Didaktika tushunchasining mohiyatini yozma ravishda asoslab bering.

2. Didaktikaning paydo bo'lishi, taraqqiyoti va asosiy didaktik muammolar:

O'qituvchining maqsadi: Didaktikaning tarixi, asosiy didaktik muammolar va rivoji haqida talabalarga tushuntirib, ularda ta'lim nazariyasini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

Didaktikaning paydo bo'lishi haqida tushuntiradi.
Didaktikaning taraqqiyoti va asosiy didaktik muammolar haqida sharxlab beradi.

O'qitish to'g'risidagi fikrlarni o'tmishdagi faylasuflar va olimlar qadim-qadimlardayok bildirishgan.O'qitish nazariyasini ilmiy bilimlar sistemasi sifatida pedagogika fani pedagogik taFaqko'r tarixini birinchi bo'lib YA.A. Komenskiy 17-asrda yaratdi, falsafiy fikrlarga, O'sha davrdagi maktablar ish tajribasini nazariy tahliliga tayanib u o'zining mashxur "Buyuk didaktika" (1658 y) degan asarini yozdi.

*Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki davirlarida o'qitish ishi tarbiya bilan bir butun holda,uzviybog'langan edi. Ta'limning mazmuni u kadar murakkab bo'lmay ko'pincha bolaning katta yoshdagilarga taklid qilishi.ular bilan birga ishlashi tarzida amalga oshirilar edi. Bola kattaga taklid qilib, uning ishlaridan na'muna olib ta jribasini o'rganar va o'zlashtirar edi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida o'qitish ishi ma'lum darajada tus oldi. Bilimlar murakkablashib va bilim faoliyatini maxsus ravishda tashkil etishni talab kildi. Ikkinchidan ijtimoiy ishlab chiqarishdagi mulokat va taksimot ayrim kasblarning mo'taxasislarini tayyorlash vazifasini o'rtaga kuydi. O'qitish ishi ta'limning o'ziga xos maqsadlarini mazmunini va tashkil etilishini aks ettiruvchi mustaqil harakterga ega bo'ldi.*

*Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan to'liqrok va aniqrok, chuqurrok bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda xissiy idrok etish ham, abstrakt taFaqko'r ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi. bilish ikki pallaga- nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariyada goya shakllanadi. Amalit bilimlarning xaqikiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish tajriba, o'zgartirish, yaratish – Bular amaliyot shakliga kiradi. Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Bu- o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni xosil qilish9, ularda dunyoqarash, fikr va e'tikodlarni shakllantirish, o'quvchilarning muayyan darajada ukimishli, fikrli, madaniyatli, tarbiyali, chin inson bo'lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini ustirishdan iboratdir.*

*Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quv-chilar ijtimoiy taraqqiyotining Hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.*

*Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birlikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama harakterga ega.*

*O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashki tomonini tashkil qiladi. CHunki u o'qitadi, ta'lim beradi.*

*O'quvchi faoliyati ichki jarayonni tashkil etadi. CHunki u o'qituvchi bergan bilimni ukib tushunib oladi.*

*O'qitish jarayonining ichki tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'qitish bilishdan farqli ularok muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirshdan iboratdir.*

*O'quvchilarning bilish faoliyati uchta bosqichda olib boriladi.*

*Bilimlarni o'zlashtirish, voke'likdagi narsa va xodisalarni sezish va idro qilish bilish faoliyatining birinchi bosqichidir.*

*O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqichi- bilimlarni tushunish va umumlashtirish.*

*Uchinchi bosqich- mustaxkamlash va kullashdir.*

*Bilim, ko'nikma va malakalarni muvafFaqiyatli egallab olish vositalaridan biri – avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda kullashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi. Ularni amalda qo'llanish ko'nikmasi xosil qilinadi. Amaliy*

*vazifalarni xal qilish vaktida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun to'rtki beradi*

O'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashning ,o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishning katta imkoniyatlari mavjuddir. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb xunar ta'limi ixlos qilishini asosiy yunalishlarida dikkat e'tibor Hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish va fan texnika taraqqiyotti sharoitlarida yoshlarni kasb tanlashga yo'lash,yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlashdan iboratdir. !997 yil 29 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respub-likasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash "Milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda Hozirgi yashab to'rgan jamiyatimizga yuqori malakali kadrlar tayyorlash Hozirgi demokratik jamiyatda yoshlarni erkin fikrga o'rgatish ,yoshlarni o'z qobiliyati, xavasi,kiyinishiga mos, hayotda o'ziga munosib o'rnini topishini ta'minlash oldimizga qo'yilgan vazifamizdan biri hisoblanadi.

Bu borada etuk mutaxassislar o'z tajribalariga tayangan holda nazariy jihatdan asoslangan bu bilimlarni amalga tadbiq etishmokdalar .

*Nazorat topshiriqlari:*

O'qitish nazariyasining ilmiy bilimlar tizimini birinchi bo'lib kim, qaysi asari bilan asoslab bergan?
A. K.D.Ushinskiy. «Onalar maktabi».
B. YU.X.Xojib. «Ko'tadgu bilik»
V. YA.A.Komenskiy. «Buyuk didaktika».
G. A.Navoiy. «Hamsa».
D. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axlok»
Ta'lim jarayonining mazmunini nimalar tashkil etadi.
A. Ta'lim-tarbiya.
B, Ta'lim nazariyasi.
V. Tarbiya nazariyasi.
G. Bilim, ko'nikma va malakalar.
D. Bilim, ta'lim.
Ta'limning asosiy maqsadi:
A. Kelajakda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish.
B. YOsh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikmalar, tarbiya bilan qurol-lantirishdan iborat.
V. YOsh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikmalar, malakalar bilan qurol-lantirishdan iborat.
G. Davalatimiz rivojiga xissa kushish.
D. YOsh avlodni komil inson qilib shakllantirish.
Ta'lim jarayonining ikki tomonlama xususiyatini yozma ravishda izohlab bering.
Ta'lim jarayonidagi bilish faoliyati bosqichlarini sharxlab bering.
Ta'lim jarayonidagi didaktik muammolarni asoslab bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . T 1998.*

*2. Munavvarov A.K. " pedagogika "  T. "o'qituvchi "  1996*
*3. S.P. Baranov   T. O'qituvchi  1996.*
*4. Ilina T.A.    Pedagogika     M.  1985.*
*5. Tursunov I.    Nishonaliev U.    Pedagogika ko'rsi     T  1996.*

MAVZU: TA'LIM JARAYONINING MOHIYATI

Ajratilgan soat –4
Mashg'ulot turi – ma'ruza

Asosiy masalalar:

*Ta'lim jarayoni haqida tushuncha;*
*Ta'lim jarayoni qarama-qarshiliklari;*
*Bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari;*
*O'quvchilarning o'quv motivlar;*

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

O'qitish, o'qish ta'limda ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyati turlari, ta'lim jarayonining falsafiy asosi, bilish nazariyasi, bilishning uch bosqichi, ta'lim jarayonining funktsiyalari, ta'limda qaram-qarshiliklar, bilimlrni o'zlashtirish bosqichlari, o'quv motivlari.

Asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi:

Ta'lim ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyat turi ekanligini, uning asosiy funktsiyalarini yoritib berish, talablarni o'quv-tarbiya jarayoniga nisbatan qiziqishlarni oshirish.

Indentiv o'quv maqsadlari:

*Ta'limning bosh maqsadini aytib beradilar;*
*Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligini ochib beradilar;*
*Bilish jarayonining asosiy bosqichlariga izoh beradilar;*
*Ta'lim jarayonining asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatdilar;*
--------------------
MAVZU:    TA'LIM QONUNIYATLARI VA QOIDALARI

Asosiy savollar:

*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasi.*
*Ta'lim qoidalari tasnifi*

Tayanch iboralar:

qonuniyat, qoida, barqarorlik, zaruriyat, xodisa, jarayon, ta’limning mazmuni, umuminsoniy tarbiya, ta’lim qonuniyatlari, ta’lim qoidalari, e’tikod, taFaqko’r, dars mazmuni, amaliy faoliyat, nazariy bilimlar, ishlab chiqarish amaliyoti, yuksak samaradorlik, diagramma, laboratoriya.

Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasi:

O’qituvchining masadi: Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasininng mohiyatini tushuntirib, uni asoslab beradi.

Identiv o’quv maqsadlari:

*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasining mohiyatini tushuntiradi.*
*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasining mohiyatini asoslab beradi.*

Ma’lumki, qonuniyat -bu barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mo’tanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o’quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari: usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o’qitish jamiyat talablarini e’tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta ko’rih, takomillashtirish kerak.
Demak, ta’lim berish, tarbiyalash va o’quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.
Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o’qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o’zaro boglanishda kullash ko’nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta’sirli o’zlashtirilishini ta’minlaydi. O’qitishni aynan shunday natijaga karatish uning onglilik, puxtalik, ta’sirchanlik qoidalarini harakterlaydi.
Ta’limning mazmuni hayot, Hozirgi zamon fain bilan bog’langan bo’lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o’z aksini topishi kerak.
Har bir o’qituvchi shuni anglab egishi muhimki, o’quv jarayonini samarali ko’rish - bu, ishda o’zini oklagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni Hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan holla, ulardan butunlay va o’zaro aloqada foydalanish demakdir.
O’qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e’tiborga olish zarur.
O’qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buki o’qitish qoidalari deb ataydilar-O’qitish qoidalarini bilish o’qitishning zarur usullarini yanada ishonchlirok tanlashga imkon beradi.
Ta’lim qoidalari - o’qituvchining faoliyatini va o’quvchilar tomonidan ilmiy bilmlarning o’zlashtirilishi, tegishli ko’nikma va malakalar xosil qilishning asosiy kopun va yo’l - yuriklarini o’z ichiga opadi. SHu bilan bir vaqtda ta’lim qoidalari har

ikkala faoliyatni, ya’ni o’qituvchi va o’quvchi tomonidan o’z oldiga qo’yilgan vazifalarni muvafFaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi.
Ta’lim qoidalari deb umuinsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o’qish va o’qitish jaraenlarining yunalishi, o’qituvchilar tomonidan ilmiy bilmlarning o’zlashtirilishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonunlarining yigindisiga aytiladi.
So’nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabietlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmokda. Ana shularga asoslangan holla quyidagicha ta’lim qoidalarini ko’rsatib o’tish mumkin.

*Ta’limning ilmiy bo’lish qoidasi.*
*Ta’limning tizimli va izchil bo’lishi qoidasi.*
*Ta’limningtarbiyalovchilik harakteri.*
*Ta’limda nazariyaning amaliyot bilan bog’liq bo’lishi qoidasi.*
*Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.*
*Ta’limda ko’rsatmalilik qoidasi.*
*Ta’lim jarayonida har qaysi o’quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish.*
*Ta’limda ilmiy bilim va ko’nikma, malakalarni puxta, mustaxkam o’zlashtirish qoidasi.*
*Ta’limning o’quvchiga mos bo’lishi qoidasi.*
*Ta’lim va tarbiyaning birligi qoidasi.*

Nazorat topshiriqlari:

*qonuniyat bu –*
*A. Barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mutonosiblik va muhim aloqa.*
*B. Barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi muhim aloqa.*
*V. Zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mutonosiblik*
*G. Barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o’rtasidagi mutonosiblik va ularning jamiyat bilan bog’liq holda o’zgarishi.*
*Ta’lim qoidalari o’z ichiga nimalarni oladi.*
*A. O’quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o’zlashtirilishini, tegishli ko’nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o’z ichiga oladi.*
*B. O’qituvchining faoliyatini va o’quvchilar tomonidan ilmiy bilim-larning o’zlashtirilishini, tegishli ko’nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o’z ichiga oladi.*
*V. O’qituvchining faoliyatini va ular tomonidan ilmiy bilimlar-ning o’zlashtirilishini, tegishli ko’nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o’z ichiga oladi.*
*G. O’quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o’zlashtirilishini, malakalar xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarini o’z ichiga oladi.*
*Ta’lim qoidalari bu-*

*A. Umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshi-rishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yunalishi, o'qituvchilar toimonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonuniyatlari yigindisiga aytiladi.*
*B. Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yunalishi, o'qituvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonuniyatlari yigindisiga aytiladi.*
*V. Milliy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshi-rishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yunalishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonuniyatlari yigindisiga aytiladi.*
*G. Umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshi-rishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yunalishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonuniyatlari yigindisiga aytiladi.*
*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasining mohiyatini izohlang.*
*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasining mohiyatini sharxlang*
*Pedagogikada qonuniyat va qoida tushunchasining mohiyatini asoslang.*

Ta'lim qoidalari tasnifi:

O'qituvchining maqsadi: Talabalarga qoida tasnifi haqida tushuntiradi, ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadi:

*Ta'lim qoidalari tasnifini tushuntiradi.*
*Ta'lim qoidalari tasnifini asoslab beradi.*

TA'LIMNING ILMIY BO'LISH qOIDASI

Ilmiy bo'limlar - vokelikning xaqkoniy in'ikosidir. Tevarak - atrofii urab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va xodisalarning ichki muhim xossalarini va o'zaro aloqalarini aks etgiruvchi bilmlargina ilmiy hisoblanadi.
Ta'limning ilmiyligi qoidasi o'quvchininig o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks etgirishi, tushinishi va o'zlashtirishi uchuy to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir. Nazariy qoidalarni tushinish - materiolni ilmiy asosida izohlab berishning muhim belgisi bo'lib, u o'quvchining fikrlash faoliyati xususiyatlarini belgilaydi. Ilmyy-bilimlar ilmiylngicha qolib, vokelikni har xil bo'lish qoidasi. Ilmiy izoh ta'limning hamma bosqichlarida, har bir sinfda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri - nazariy ma'lumotlar tizimini my ma'lumotlarda tevarak atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuktai nazaridan bilib olishdir.
Ilmiylik qoidasi barcha esh guruhlardagi va turli o'quv yurtlaridagi o'quvchilarga o'rganish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jaraenida o’quvchilarda ilmiy dune qarash, e’tikod tarkib topadi. TaFaqko’r rivojlanadi.
Ta’limning ilmiy bo’lish qoidasi ta’lim jarayonida o’quvchilarni Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishni ta’minlashga qaratilgan.
Didaktikaning ilmiylik qoidasi maktab ta’limning mazmunigagina aloqador bo’lib qolmay, o’qitish usullariga ham aloqadordir. U ta’lim jarayonida fan - texnika yutuklaridan foydalana oladigan o’qitish usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.

TA’LIMNING TIZIMLI VA IZCHIL BO’LISHI qOIDASI

Ijtimoiy tarakkietning har bir daridagi maktabning tarixiy tojribasi ta’lim vazifasini ma’lum bir tizimsiz bajarib bo’lmasligini ko’rsatadi.
O’quv materialini tushuntirish tizimi o’quv materiali aniq baen qilingan goyalarga, o’qituvchi bu gollarning qaysilarini tushuntirmokchi ekanligiga, bolalar eshi, ularning bilimlarni o’zlashtirishga qanchalik imkoniyat berishini, o’qituvchining yaxshi bilish bilmasligiga, shu esh va shu saviyadagi bolalarga xos fikrlash faoliyatining xususiyatlariga, darsdagi bilimlarni o’zlashtirish jaraeni odamda qanday tushunilishiga bog’liqdir.
Hozirgi zamon didaktikasi o’qitishda xusuiydak umumiyga qarab borishni talab qiluvchi klassik qoidaga o’zgartirishlar kiritdi. Ko’p hollarda boshlang’ich sinflardaek umumiy holatlardan yakka xususiy holatlarga boyish mumkinligi isbotlanadi, shu munosabat bilan. anchagina vakt tejaladi va yutqizilmaydi, aksincha, o’quvchilar taFaqko’rinirivojlantirish ishida yutuklargaerishiladi.
Dare mazmunining muqobil tuzilishini tanlash, ukntishdagi didktikaning tizimlilik qoidasini hisobga olishni talab qiladi.
Ta’limda izchillikka rioya qilib o’qitish lozim, toki bugun o’rganilgan bilmlar kecha o’rganilganlarni mustaxkamlansin, ertaga urgakniladiganlarga zamni Hozirlasin.
YA’ni utilaetgan fan yoki bayon qilinayotgan ligi materiolning o’quvchilarning oldingi o’zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko’nikma va malakalari bilan izchil va uzviyboglanishi, shu bilan bir vaqtda o’qitilaetgan o’quv materiallarini o’zlashtirish orqali kelajakdagi ligi bilmlarni o’zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta’lim bosqichiga zamni yaratilishi nazarda tutiladi.
Ta’limning tizimli bo’lishi uning izchil bo’lishi bilan bog’liqdir. Izchillikka asoslangan ta’limning harakterli belgisi shundaki, u o’quvchilarning oldindan o’zlashtirgan bilim va malakalari zamirila ligi bilim, ko’nikma va malakalar xosil kilih, ularning o’zaro boglanishlarini takomillashtirish va aksincha, ligi bilmlarni basi kilih jaarenida oldindan o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalarini lna ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustaxkamlashni ta’minlashga qaratilgandir.
Tizimlilik va izchillik o’quvchilarda har qaysi o’quv fanlarining bir - biri bila» uzviybog’liq bo’lishini ko’rsatishda ham muhim ahamiltga ega.
Ta’limning tizimli bo’lishi qoidasi bayon qilinaetgan o’quv materilalarini mustaxkamlash va ilgari utilgan matreriallarini to’ldirishga xizmat qilishini; o’quvchilarning uzluksiz va tizimli suratdamustaqilish olib borishlarini,

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va xosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga opadi.
Tizimlilik va izchillik qoidalri o'zaro bog'liq bo'lgan alohida o'quv fanlarini hamda kundalik o'quv materiallarini mantiqiy jihatdan bir biriga mustaxkam bog'liq holda va muayyan bir tartibda o'qitish hamda ta'lim jarayonida o'quvchilarni tizimli ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib olishlarini ta'minlaydi.

TA'LIM DA TARBIYANING BIRLIGI qOIDASI

Maktab o'quvchilariga ta'lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlari bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta'lim tazimida ta'lim tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va etakchi qoidalardan biri hisoblanadi. U didaktik qonunlarning o'qish va o'qitish borasidagi tub mohiyatini ifodalaydi. Binobarin o'quv fanlarining har biri, xatto, ayrim mavzu va mavzuchilari ham, shubxasiz, tarbiyalovchilik harakteriga ega.
Ta'lim jaraenida utilaetgan katta va kichik mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va xal qiluvchi ahamiyatga ega.
Demak bir butun ta'lim jaraenida ikki o'zaro bog'liqlik: xaetni bilih va unga bo'lgam munosabatni tarkib toptirish jaraeni ajralib turadi.
Maktabda beriladigan ta'lim bilan tarbiya o'rtasidagi pedagogik jaraenningbutunliginita'min etuvchi uzviybirlikhamishamavjud.
Maktab ta'limida o'quvchilar tabniy fanlarni-matematika, ximiya, biologiya, astronomiya va bogshka fanlarni o'zlashtirish orqali ilmiy e'tikodlari shakllana boroli. Ular duneni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, haqiqatta ishonch bilan, elgon narsalarga nafrat bilan karay oladigan bo'ladilar. Ular ustilay xaqkoniy xukm chiqaradigan aklli, idrokli, imonli inson bo'lib etishadilar.
Maktab ta'limida gumanitar fanlarning ham tarbiyaviy mohiyati judamuhimdir.Tarix fanini o'rganish orqali o'quvchilar jumxuriyatimiz tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, moddiy- madaniy, ilmiy-siesiy, ma'naviy jihatdan rivojlanishi, adabiy-baddiy merosi, bobokalonlarimiz tomonidan qoldirilgan kimmatli xazinalirimiz, Hozirgacha o'rganilmay kalgan xalq pedagogikasi durdonalari bilan tanishadilar. Adabiet va san'atni o'rganish o'quvchilarni chin inson qilib tarbiyalashdagi eng zarur shartlardandir.
Ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jaraenini to'g'ri tashkil qilish va o'qitishning xilma-xil usul va uslublaridan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim bilan tarbiyaning birliginita'minlamokuchun:

*a) baen qilinaetgan o'quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham goyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi;*
*b) o'qitilaetgan temaning ilmiy va tarbiyaviy moxnata ochib berilishi, ta'lim jaraenida xadislardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;*
*v) bayoi qilinaetgan puxta va mustaxkam o'zlashtirilishi va turmushda unga amal qilinishi;*

*g) ta'limda muammoli jaraenni vujudga keltirish, o'quvchilarning qiziqishlari, aktivlik va tashabbuskorliklarini ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi,*
*d) ta'lim jaraenida o'quvchilarning uyushkoklik, intizomlilik va javobgarlikni sezih, o'zaro erdam xislarini tarbiyalashni ta'minlamok zarur.*

## TA'LIMDA NAZARIYANING AMALIYOT BILAN BOGLAB O'qITISH qOIDASI

Didaktikada ta'limni turmush bilan, ishlab chiqarish amalieti bilan boglab olib borish eng asosiy va etakchi qoidadir. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana faoliyaga xizmat kilganligi va xaet bilan bog'langanligi sababli, bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o'zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qullay bilih ham kerak.

Bu qoida ta'limning ilmiy qoidasi bilan mustaxkam bog'langandir. O'quvchilar ilm bilan qurollanar ekan, ilmni nazariy jihatdan o'rganar ekan ilmning amaliy ehtiyoj tufayli paydo bo'lganini, ishlab chiqarish kuchlarini qanday taraqqiy etganini, texnika va iqtisod soxasidagi angiliklar ilmni tabora rivojlantirib borishini, ilm esa, o'z navbatida, ishlab chiqarishni takomillashtirishga va hayotni yaxshilashga yordam berishini bilib boradilar. Binobarin, barkamol inson tarbiyasining maqsad va vazifalari ham, ta'limning mazmuni ham, o'qitish usullari, ta'limni tashkil etish shakllari ham nazariya bilan amaliyotning birligiga asoslanadi.

Maktab ta'limi tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasi dastavval o'quv faning mazmuni va o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holla o'qish jarayonida amalga oshiriladi.

Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni amalda qullay olish, o'quv materiallarini idrok kilih, anglash shuningdek, uni
mustaxkam esda saqlab qolish kabi ruxiy operatsiyalar bilan bog'liq holda bir butun jarayonni tashkil etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan matematika, fizika, biologiya, ximiya, astronomiya va bashka tabniy fanlardan o'zlashtirgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar o'quv tojriba xonalari va laboratoriyalari, zamonaviy texnika vositalari, tojriba er uchastkalari va ishlab chiqarish mehnati jarayonida qo'llaniladi. Bu mashgulotlar ularni kelgusida zarur bo'lgan tojriba bilan qurollantiradi.

Ta'lim jarayonida nazariya bidon amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi oqibatidagina o'quvchilar o'quv materialining tub mohiyatini, tabniy va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchuy zarur bo'lgan maxorat, ko'nikma va malakalar xosil qiladi.

O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u laboratoriya va amaliy mashgulotlarda davom ettiriladi. Bu mashgulotlarda o'quvchilar o'qituvchi roxbarligida tojriba sharoitida olgan bilimlarning ishonarli ekanligini tekshiradilar, mustaxkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Bilimlarni amalda qo'llanish malakalarnini xosil qiladilar.

Ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilar amaliy faoliyatining muhim bosqichidir. Ular egallab olgan nazariy bilimlar asosida tanlagan kasblariga doir mehnat ko'nikmalari xosil qiladilar. SHu bidon birga nazariy bilimlarga ham aniq kiritab boriladi.
O'quvchilarning korxonalarda o'tkazadigan ishlab chiqarish amaliyt mashgulotlari o'qishni unumli mehnat bilan boglab olib borishning yakundovchi bosqichidir. Amaliy mashgulotlarda o'quvchilarning bajarayotgan hamma ishlari orqali ularda fan asoslarini o'rganish va mehnatga bo'lgan qiziqish, intilishi tabora rivojlanadi, mehnatga bo'lgan muxabbat, mehnat oxliga xurmat, extirom kamol topali.

TA'LIMDA ONGLILIK, FAOLLIK VA MUSTAqILLIK
qOIDASI

Bu qoida o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda kullash usullarini ongli va faol egallab olishadi. Ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatnda mustaqillik, taFaqko'r, pups madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tikod tarkib topali.
O'qitishning ongli qoidasi o'quvchilar ligi materiolni idrok qilishda tariflar, teoremalar, adabiyotdan sher yodlash va xaqazolarning ifodalanishigina emas, balki ularning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgam mazmunini ham tushunishlarini talab etadi. Aks holla bilimlarda yuzakichilik avj opadi, unda material ko'ruk yodlab olingan bo'ladi. O'quvchilar uni qayta aytib bera oladilar, Lekin uning mohiyatining tushunmaydilar va amaliy faoliyatlarida qullay olmaydilar.
Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish ukvchilarda bu bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat xosil qilishini, emotsional kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga opadi. O'quvchining bilimlarini o'zlashtirishga faol amunosabatda bo'lishi uning bilih faoliyatini aktivlashisheta yordam beradi.
O'qitish jarayonida onglilik va faollik qoidasi o'quvchilarda taFaqko'r va nutkni rivojlantirishni nazarda tutadi. Mustaqil taFaqko'r to'rni usullar bilan xosil qilinadi. TaFaqko'rni shakllantirish usullaridan biri mustaqil xal qilish, muammoli vazifalar qo'yishdir.
Ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligi, dastavval, ularning aqliy faoliyati-taFaqko'r qilish faoliyatidir. SHunga ko'ra, ta'limni ongli o'zlashtirish qoidasi, bir tomondan o'quvchilarni mustaqil, faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida o'quvchilarni mustaqillik va faolliklarini hamda mantiqiy fikr qilish faolitlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi.
Onglilik va faollik qoidasi o'quvchilarni mehnat va o'qishda ijodiy faoliyat usullariga o'rgatishni talab qiladi. qayta ko'rish davrining maktab va xalq ta'limi oldiga kuygan talablari ham shu maqsadga qaratilgan.
Xuddi shu maqsadga maktablar haqidagi hujjatlardagi tavsiyalar - darsning tashkil qilishning faol shakllarini kullash, yuqori sinflarga ma'ruza va seminar mashgulotlarini birga kushib olib borha, ishlab chiqarish korxonalariga eksko'rsiya, unumli mexmat davomida o'quv harakteridagi topshiriqlarmi bajarish va boshqalar xizmat qiladi. O'quvchilar faolligimi rivojlamtirish, ularnimg o'quv faoliyatlarining takomillashtirish tufayli aymi vaqtda o'qitishda yuksak samaradorlikka erishiladi, ya'mi o'quv jarayoni tezlashadi.

TA’LIMDA KO’RSATMALILIK qOIDASI.

Ta’limning ko’rsatmalilik qoidasi didaktik qoidalarning biri bo’lib, u o’qitish jarayoning sifatini ortiradi, o’quvchilarni bilim olishlarin osonlashtiradi.O’qitishning ko’rsatmaliligi shumi tasdiqlaydiki, agar ukubchilarda o’rganilayotgan marsa va xodisalarni bebosita idrok qilishga bog’liq muaydn xissiy amaliy tojriba bo’lgam takdirdagina ular bilimlarni ongli suratta o’zlashtiradilar. Bu qoida o’qitash jarayonida ko’ryah, eshitish, xid bilih, ta’m-maza bilih, tern, muskul- harakat kabi sezgi organlarining bir iuda obeket ustala safarbar qilinishini talab etadi.
Ko’rsatmalilik qoidasi ta’limning etakchi kopun -qoidalarni va talablarni amalga oshirishda vositachilik. CHunonchi:

*1. Baek qilinayotgan temaning mazmuniga moe keladigan materiallardan unumli va to’g’ri foydalanish o’quvchilarning utilayotgan materiolni o’zlashtirishga bo’lgam qiziqishimi ta’mimlaydi. Dare qizikarli ugodi.*
*2. Ta’limda qo’llanilayotgan ko’rsatmali qurollar o’quvchilarning qay darajada yakqol va aniq, obrazli idrok qilishini ta’minlasa va ko’zatayotgan ob’ektga mumkin kadar ko’prok sezgi organlari safarbar qilinsa, o’quv materiallari shunchalik tez, kulay va osok o’zlashtiriladi, o’zok vakt eslab qolish hamda qayta esga tushirish mumkin bo’ladi, oqibatda o’quv materiallarining puxta o’zlashtirilishi ta’minlanadi.*
*3. Ko’rsatmali materiallar orqali o’quvchilar ob’ektiv borlikdagi marsa, vokealar bilan, ularning xususiyati, belgilari bilan tanishadi. Mavxum xodisalarning aniq obrazlar orqali idrok qilinishi natijasida o’quvchilarni mantiqiy fikr qilish qobilyatlari rivojlanadi. O’quvchilarning Ayniqsa sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini takkoslash, tahlil kilih, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari alohida ahamiyatga egadir.*
*4. O’quv materiallarining ko’rsatmali bo’lishi o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tojribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo’llana olishlari uchun zarur bo’lgam kumikma va malakalar bilam ham qurollamtiriadi.*

Ta’limda ko’rsatmalilikmimg samarali matijalar berishi uchum umimg bashka tomomlariga ham e’tibor berish kerak.
Birinchidan, ishlatiladigan ko’rsatmali qurollar u yoki bu sinf ukubchilarining yoshi va o’ziga xos harakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi- saviyasiga moe keladigan bo’lishi lozim.
Ikkinchidan foydalanadigan ko’rsatmali qurollar utilayotgan dare mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo’lishini hisobga olmok, demak, uning to’g’ri tanlanishiga e’tibor bermok lozim.
Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko’rsatmali materiallardan unumli foydalanmok uchun zarur bo’lgam ta’lim usullari to’g’ri tanlangan bo’lishi zarur. Ayni paytda maktablarimizda qo’llanilayotgan materiallarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

*1). Buyum va narsalarni asli, tabiiy holda ko’rsatuvchi materiallar: usimliklar va ularning tarkibi, xayvonlar, ma’danlar, gerbariylar, qollektsiyalar, ashyolar,*

*asboblar va razryadlari xosil qilishni sinf yoki laboratoriya sharoitida namoish qilish va boshqalar,*
*2). Grafik-ko'rsatmali qurollar: chizmalar, diagramma, filmlar, diapozitivlar, ovozsiz kinofilmlar,*
*3). Tasviriy-ko'rsatmali qurollar: raem, fotosurat, diafilmlar, diapozitivlar, ovozsiz kinofilmlar,*
*4). Eshittirish bo'yicha ko'rsatmalilik, gramplastinkalar, magnit lentasiga yozib olingan badiiy o'qish namunalari, chet el tillaridagi so'zlarni to'g'ri talaffo'z qilishga oid materiallar.*

Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi Hozirgi zamon maktablari oldida to'rgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan va Hozir ham undan yanada samarali foydalanish borasida katta ishlar olib borilmokda.

TA'LIMNING O'qUVCHILARGA MOS BO'LISHI qOIDASI

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lishi qoidasi deganda o'quv materiallarning mazmuni, uning xajmi, harakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi-saviyasi va imkoniyatlariga loyik bo'lishi tushuniladi. Moslik qoidasida ta'limning ikki tomoni etiborda tutiladi:

*1) Ma'lum sinf uchun belgilangan o'quv materiallarining harakteri, mazmuni va xajmi shy sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi,*
*2) Har bir sinf uchun belgilangan bilim xajmi shy sinf o'quvchilarining saviyasiga mos bo'lishi lozim. Birok, shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, maktab islohatidan keyingi qayta ko'rish jarayoni uchun maktablarimiz faoliyatidagi mazkur ikki holatni kat'iy va xal qiluvchi didaktik talablar deb bo'lmaydi. CHunki, muayyan bir sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishida ham, bilim o'zlashtirishidagi kuch va qobilyatlarda ham, albatta, har-xilliklar bo'ladi va buni hisobga olmaslik aslo mumkin emas. SHuningdek, moslik qoidasini maktab ta'liminig mazmuning bolalarning kuch kuvatiga qarab "engillashtirish", "osonlashtirish" deb ham tushunmaslik lozim. Aksincha, o'quvchilarning saviyasiga muvofiq ravishda, asta sekin kiyin va murakkabrok bilimlar berib borsh talab qilinadi.*

Ilg'or klassik pedagogika namoyondalari talimning o'quvchilarga mos bo'lishi yuzasidan bir kator qoidalar ishlab chiqqanlar. Ulardan biri "Osondan kiyinga qarab borish" qoidasidir.
Utiladigan materialning xaddan tashqari chigal bo'lishi bolalarni qiziqishini sundirganidek, u bilimda olga qarab borishini ham ta'minlay olmaydi. Aksincha utilajak materiallar bolalar saviyasiga nisbatan ogir, tushunish kiyin bo'lsa, qo'yilgan misol va masalalarni echish, xal qilishga o'quvchilarning ko'rbi etmasa, ularda o'z kuchiga ishonmaslikqayfiyatitug'iladi. Moslikning ikkinchi bir qoidasi "Ma'lumdan noma'lumga qarab borha" dir. Bu qoidaga amal qilishda o'quvchilarda avvaldan mavjud bo'lgam ilmiy bilim va tojribalar zamirila yangi, xodi o'quvchilarga ma'lum bo'lmagan ma'lumotlar bilan qurollantirishni tushunmok lazim.

Moslik qoidasining uchinchisi "Soddadan murakkabga qarab borish"dir.
Ko'pincha biz tushunib etgan, o'zlashtirilgan hamma narsalar sodda, tushunib etmagan, o'zlashtirilmagan narsalar esa murakkabdek ko'rinadi.
Ta'limning sodda bo'lishi u yoki bu o'quv materialini ortikcha kuch sarflamay tushunib olishdir. O'quvchilar yaxshi tushungan, o'zlashtirigan bilimlarni yangi tushunchalar (murakkab) bilan aniq va ravshan qilib boglay olishlari natijasida sodda vazifalarni (misol va masalalar) bajara borib, murakkab materiallarni o'zlashtirish, murakkab bo'lgan masalalarni ham echishga-xal qilishga Hozirlanib boradilar.

## TA'LIMDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI PUXTA VA MUSTAXKAM O'RGANISH qOIDASI

Ta'limning puxta o'zlashtirish qoidasi muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustaxkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qullay olish malakalari bilan qurollantirishni anzarda tutadi.
Demak, puxta o'zlashtirishni harakterli belgisi ta'limni mustaxkam esda saqlab qolishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu qoida o'quvchilarning xotira faoliyati, ya'ni o'quv materiallarini esda qoldirish, esda saklash va qayta esga tushurish kabi xotira jarayoni faoliyatiga bog'liqdir. O'quv materiallarini mustaxkam esda saqlab qolish, ayni dare jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarini tazimli va ongli o'zlashtirilishiga bog'liq. Avvalgi mashgulotlarda xosil qilingan bilim uknikma va malakalar ancha murakkabrok materialini o'zlashtirib olish uchun pillapoya, baza bo'lib xizmat qiladi. Lekin xosil qilingan bilim puxta o'zlashtirilgan, yaxshi mustaxkamlashgan bo'lishi va o'quvchilarning xotirasida o'zok vakt saqlanishi kerak. Mustaxkamlash qoidasi shulardan iborat bo'lib, ularga rioya kilmaslik o'quvchilarning ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirolmasligiga sabab bo'ladi.
SHunday qilib, bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtrib olishning mustaxkamligiga avvalo hamma o'qitish qoidalari: tushunarlilik, tizimlilik va izchillik, nazariya va amaliyotning bog'liqligi,. ko'rsatmalilik, o'quvchilarning onglilik va faolligi qoidalarini amalga oshirish bilan erishiladi. Puxta o'zlashtirishni muvafFaqiyati ko'p jihatdan takrorlash va mashk kildirishga ham bog'liqdir.
Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jarayonida Faqat oldindan o'zlashtrilgan o'quv materiallarigina esga tushurilmay, balki shu o'quv materiallariga bog'liq bo'lgan yangi yangi ma'lumotlar ham beriladi, o'zlashtirilgan bilimlarning noaniq, tuman bo'lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to'ldiriladi.
Takrorlash, xotirada qayta tiklashni bir necha yo'l bilan olib borish mumkin. Har bir darsda avvalgi dars materiali bilan yangi material o'rtasida bog'liqlik o'rnatish maqsadida kundalik takrorlash o'tkaziladi. Mavzu yoki bo'lim yuzasidan o'rganilgan materialni tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash maqsadida o'quv yilining oxrida asosiy masalalar bo'yicha yalpi takrorlanadi.
Takrorlanishning ikkinchi turi maxsus qaytarishdir. Bunday takrorlash katta mavzularni o'tib bo'lgach, shuningdek, ma'lum bir chorak ichida utilgan material yuzasidan olib boriladi. Maxsus takrorlashning keng tarkalgan turi o'quv yili oxirida alohida ajratilgan soatlarda o'tkaziladi.

TA'LIMDA O'qUVCHIGA XOS XUSUSIYATLARNI HISOBGA OLISH qOIDASI

Ta'lim-tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o'quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga amal kilgan holda yo'l qo'yiladi. Birok, har bir o'quvchi o'ziga xos jismoniy, axloqiy, ruxni va bashka xususiyatlarga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi.

SHu jihatdan ta'lim jarayonida umumsinf o'quvchilarini, hamda shy sinfdagi har qaysi o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holla ish ko'rish muhim didaktik ahamiyatga ega.

O'quvchilarning real o'quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jihatlarini o'rganish Hozirgi vaqtda shunchaki xoxish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillllashtirish, uni boyitish aklga sigmaydi.

Sinf o'quvchilari jamoasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar, avvalo, ma'lum sinf o'quvchilarining jismoniy, aqliy va ruxiy rivojida namoen bo'ladi. Ta'limning muvafFaqiyatli bo'lishida o'quvchilaraning o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish va o'rganish hamda shy xususiyatga xos muomala qilish xal qiluvchi o'rin egallaydi.

Darsda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini To'la hisobga olish juda kiyin va har doim ham buning iloji bo'lavermaydi. Pedagog o'quvchilarni darsdagi va amaliy mashgulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini ko'zatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, yasagan ko'rgazma materiallarini tekshiradi. Darsdan tashqari vaktlarda urtoklari va boshqalarga bo'lgan munosabati , xulqi, irodaviy sifatlarini o'rganadi, ular bilan suhbat qiladi. Kuzatish jarayonida u o'quvchining kuchli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, taFaqko'ri, nutki, xotirasi, dikkati, xayoliga mos bo'lgan xususiyatlarni bilib oladi, o'quvchining hayotiy va mehnat qobilyatini o'rganadi. Bush o'zlashtiruvchi dasturning ma'lum bir bo'limi yoki fan buyncha arkada qolih sabablarini aniqlaydi. O'qituvchi ularni bilib olgandan keynn birinchi navbatda yomon holatlarning ta'siriga bardosh berish choralarini ko'radi.

Masalan: o'quvchining ko'rish qobilyati uncha yaxshi bo'lmasa yoki yomon eshitsa, uni birinchi katorga utqizishi kerak. Bu narsa dikkati beqaror bo'lgan o'quvchilarga ham tegishlidir. Bundan tashqari, ulardan tez-tez surash, undan urtogining javobini qaytarishta, to'ldirishga yoki u xaqda o'z fikrini bildirishga majbur etish lozim.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*quyidagilardan qaysi biri ta'lim qoidasi hisoblanadi.*
*A. O'rta umumiy ta'limning majburiyligi.*
*B. O'rta maxsus ta'limning ixtiyoriy va majburiyligi.*
*V. Ta'lim va tarbiyaning birligi.*
*G. Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlaridan iboratligi.*
*Ta'lim qoidalarining mohiyatini tushuntiring.*
*Ta'lim qoidalarining mohiyatini yozma ravishda izohlang.*
*Birorta o'qituvchingizning dars jarayonini ko'zating. U ta'lim printsiplari qay darajada amal kilganligini yozma ravishda izohlang.*

*Ta'lim qoidalarining tasniflarini sharxlang.*
*Ta'lim qoidalarining bir- biriga bog'liqligini va farqini takkoslang.*
*Ta'lim qoidalarining tasnifini asoslab bering.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.*
*Barkamol avlod orzusi. T., «SHark», 1999.*
*Pedagogika. A.K.Munavvarovning taxriri ostida. T., 1996.*
*Abdukarimov X. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi*
*O'rta maktab didaktikasi N. Skatkin tax ost M. 1975*
*Komenskiy YA. A. Buyuk didaktika T. 1971.*

MAVZU: MAKTABDA TA'LIMNING MAZMUNI

(2 soat ma'ruza)

<u>Asosiy savollar:</u>

*Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha*
*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mazmuni va mohiyati.*

<u>Tayanch iboralar:</u>

O'quv reja, o'quv dastur,darslik, O'quv-tarbiyaviy ish, tabiiy fanlaar, ijtimoiy fanlar,mavzu,o'quv material,ko'rgazmali qurollar.

<u>Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha:</u>

<u>O'qituvchining maqsadi</u>: Talabalarga maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha beradi va uni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

<u>Identiv o'quv maqsadlari:</u>

*Maktabda ta'limning mazmunini tushuntiradi.*
*Maktabda ta'limning mazmunini asoslaydi.*

Maktabda ta'limning mazmuni deganda o'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, ko'nikmalar ,malakalar tushuniladi. Maktabda ta'limning mazmuni bevosita uning maqsadidan kelib chiqadi. Maktabda o'rganiladigan har bir fan insoniyat ijtimoiy – tarixiy tajribasining bir tomoni, qismidir.Ta'lim mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimiga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.
Ta'limning mazmuni bir kator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

A.ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy to'zumining xususiyatlari;
B.davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga kuyadigan maqsad hamda vazifalari;
V.o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktabda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir.
Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, xajmi O'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.
XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma'lumotning mazmunini bola xoxishiga buysindirish" »ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko'zga ko'ringan vakili Amerikalik faylasuf-pedagog Jon Dyuidir.uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo'lgan tabiiy layokatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat kilmogi lozim.shunday ekan, maktablarda hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv rejasi va dasturlarning bo'lishi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layokatiga moslangan ma'lumotlar berilishi lozim.
Oktabr tuntarilishigacha bo'lgan davrda O'zbekiston xududi YII-YIII asrlardan beri davom etib kelgan eski -"usuli qadimiya", XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan – "usul savtiya" maktablari, xat savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan.
1905 yildan so'ng, ulkaning ba'zi yirik shaharlarida "jadid" maktablari paydo bo'la boshladi. Mazkur maktablarda savdo-sotik ishlari uchun zarur bo'lgan ayrim fanlar ( hisob, tibbiyot, geografiya va boshqalar) o'qitilar edi. SHunday qilib, maktablarning hammasi O'sha ijtimoiy to'zum-muxit talablaridan kelib chiqdi va shu davr iqtisodiy, ma'naviy maqsadlari uchun xizmat kildi.
Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan iymonli, e'tikodli yoshlarni tariyalab etishtirishdan iboratdir.
Bundan tashqari, maktablarda yoshlarga ko'ruk ilmiy bilimlar beril-masdan ularga turmushda zarur bo'lgan xalq xunarmandchiligi, tabobat asoslari, odob-axlok yunalishlaridagi fanlarni ko'prok o'qitish talab etilmokda.Maktablarda "odobnoma" , "islom tarixi va madaniyati"ni o'qitilishi joriy etilgan.
Xalq ta'limidagi bunday jumboklarning ijobiy echimi, jamyatga, o'quv – tarbiya ishiga katta foyda keltirishi tabiiy.
Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

Nazorat topshiriqlari:

*Maktabda ta'limning mazmuni deganda nimalar tushuniladi.*
*A. O'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar tushuniladi.*

*B. O'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, malakalar tushuniladi.*
*V. O'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan ko'nikmalar, malakalar tushuniladi.*
*G. O'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar tushuniladi.*
*Ta'lim mazmuni qanday ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi.*
*A. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy to'zumning xususiyatlari; Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga kuyadigan maqsad va vazifalari; o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.*
*B. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy to'zumning xususiyatlari; o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.*
*V. Ijtimoiy va siyosiy-iqtisodiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy to'zumning xususiyatlari; Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga kuyadigan maqsad va vazifalari; o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.*
*Maktabda o'rganiladigan fanlarning mazmuni nimadan iborat.*
*A. Insoniyat ijtimoiy tarixiy tajribasining bir qismidir.*
*B. Ijtimoiy- iqtisodiy tajribaning muayyan bir bo'lagi.*
*V. Buyuk allomalarning tajribalariga asoslanadi.*
*G. Pedagogika tajribasiga asoslanadi.*
*Maktabda ta'limning mazmuni mohiyatini izohlang.*
*Maktabda ta'limning mazmunini o'z tajribangizga asoslanib tushuntirib bering. Fikringizni yozma bayon eting.*
*Maktabda ta'limning mazmuni mohiyatini asoslang.*

2. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mazmun va mohiyati:

O'qituvchining maqsadi: Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklar haqida tushuntiradi. Ularning mazmunini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklar haqida tushuncha beradi.*
*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklarning mohiyatini asoslaydi.*
O'QUV REJASI:

O'quv rejasi davlat hujjatidir O'quv rejasi-barcha o'rta umumiy ta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinadigan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va O'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.
Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O’quv rejasi deb, o’qitiladigan fanlar, o’qitish uchun ajratilgan soatlar va o’quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.
O’quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

*O’quv rejasi o’quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad- ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qullay olishga o’rgatishdir.*
*Maktablar ning birligi o’z qoidalariga asoslanadi.( boshlang’ich ta’lim 1-4 sinflar, umumiy o’rta ta’lim 1-9 sinflar).*
*Umumiy o’rta maktablarida o’quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.*
*O’quv rejasiga kiritilgan fanlarning xajmi qaysi sinfda o’qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning xajmi, ogir-engilligi, didaktik ahamiyati ham e’tiborga olinadi.*

O’quv rejasiga kiritilgan fanlar birinchi navbatda umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta’limning ilmiyligi, goyaviylik hamda O’zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonni tarbiyalab, voyaga etkazish nazarda tutiladi. SHuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san’at va jismoniy tarbiya, sog’lom avlodning ma’naviy kiyofasi asosiy o’rinnni egallaydi.
O’quv rejasida tabiiy fanlar – tabiiy jugrofiya, biologiya, fizika, astranomiya, ximiya, matematika va informatika markaziy o’rinni egallaydi.
Ijtimoiy fanlar – tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar – ona tili, ingliz tili, rus tili va boshqa chet el tillari, badiiy va san’at asoslari– adabiyot, tasviriy san’at, musika va ashula; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir katorda hamma sinflarda mehnat ta’limini o’qitish uchun soatlar ajratiladi.
Bulardan tashqari o’quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, Ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo’yicha ham o’quvchilarning qiziqishi, xoxishlarini koniktirish, qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o’tkaziladigan Faqultativ mashgulotlar ko’rsatilgan bo’ladi.

O’QUV DASTURI.

Har bir o’quv fani uchun o’quv dasturi tuziladi. O’quv dasturi o’quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O’quv dasturi har bir o’quv fanining uitish uchun ajratilgan bilim xajmi, tizimi va goyaviy-siyosiy yunalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.
O’quv dasturida o’quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo’yicha o’quvchilarga berilgan ilmiy bilim, ko’nikma va malakalarning xajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o’quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzularorqali ko’rsatiladi.
Ma’lum mavzu yuzasidan o’quvchi o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar kiskacha ifodalab beriladi.
O’quv dasturi quyidagi bir kator qoidalarga amal kilgan holda tuziladi:

*Dasturning kat’iyligi. O’quv dasturlari jamiyatimiz tarakkiyo-tining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar soxasida*

*erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu ular har yili ko'rib chiqilishi kerak degan gap emas, aksincha, hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida kat'iy bo'lishiga erishmok darkor. Dasturning kat'iyligi kat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki. Bu darsliklar uzok yashashi va o'quv jarayonida uzok foydalanishi kerak.*
*O'quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borlikni aniq, xaqkoniy aks ettirgan ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli materiallar kiritiladi.*
*O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beradi.*
*Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O'quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarningg turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida to'tgan o'rni ko'rsatib beriladi.*
*O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O'quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o'quv fanlarining harakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o'qitishda tarixiy vokealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa kator fanlarni o'qitishda fan olamidagi ma'lum bir ilmiy xodisa, qoida va qonuniyatlarning paydo bo'lishi, uning kelajak istiqbollariga oid ma'lumotlar berib utiladi.*
*Dastur ikki usul bilan: ketma-ket va markazlashgan tarzda joylashtirilishi mumkin. Ketma-ket joylashtirilgan o'quv materiallarning har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo'ladi.*

Dasturning markazlashgan tuzilishida mazkur fanga tegishli o'quvmateriali ukiishning keyingi bosqichlarida murakkablashgan ko'rinishda takrorlanadi.
Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb xunar ta'limi dasturlari tuzilishi uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo'l-yuriklar – kiskacha uktirish xati; ikkinchi bo'limda o'quv materiallarining mazmunini; uchinchi bo'limda esa o'quvchilarning qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

DARSLIK

Darslik o'quv jarayoning zarur qismidir. Ko'p vaktlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi.
Darslik – o'quvchilarning ikkinchi «muallimi». CHunki u, avvalo, o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir.
Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.
Darsliklar bilan bir katorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashklar to'plami, xrestoma-tiyalar, atlaslar, lugat kitoblari v.x.k. lar shular jumlasidandir.
O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan

ishlasho'quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ulardagi ilmiy dunyoqarashning, axlok-odobning shakllanishiga, taFaqko'ri va nutkining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi.
Maktab islohati va xalq ta'limini qayta ko'rish darslik yaratuvchilari oldiga bir kator talablar kuyadi:

*Har qaysi o'quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning xajmi dastur talablariga hamda shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan darajada bo'lishi kerak.*
*Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va goyaviy yunalishi tizimli va izchil bo'lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta'kidlashi lozim.*
*Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.*
*Darslikda bayon qilinayotgan materialning harakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.*
*Darsliklar o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar aniq va kiska bo'lishi kerak.*
*Darslikning tashki ko'rinishi, bezagi, O'sha sinf o'quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo'lmogi lozim.*

Ilgarigi davrlarda Ovrupoda va garbda maktab, dorilfununlarda iloxiyot asosiy fanlardan biri hisoblangan. Mana shular asosida yoshlarga yaxshilik va yomonlik, gunox va savob, saxovat va razolat kabi eng muhim axloqiy, hayotiy, falsafiy tushunchalar o'rgatilgan. Hozirgi davrda bizning maktablarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan axlok-odob fani O'sha iloxiyot darslarining asosini tashkil etgan.
Maorif – ta'lim soxasidagi ming yillik madaniyatimiz xazinalarini jamlagan eski yozuvni o'rganish ham didaktik ta'lim mazmunidagi yangilikdir.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*O'quv rejasi bu-*
*A. Maktab tomonidan chiqarilgan hujjat.*
*B. Davlat hujjati.*
*V. Sinf rahbarining hujjati.*
*G. Har bir o'qituvchi uchun zarur qo'llanma.*

*O'quv dasturi qanday hujjatga asoslanib ishlab chiqiladi.*
*A. O'quv rejasiga asosan.*

*B. Darsliklarga asosan.*
*V. O'quv qo'llanmalariga asosan.*
*G. Maktabning ish rejasiga asosan.*

*Darslik yaratuvchilar oldiga qo'yiladigan talablar necha xil?*
*A. 5 xil.*
*B. 6 xil.*
*V. 7 xil.*
*G. 4 xil.*
*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini izohlang.*
*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini takkoslang.*
*Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini asoslang.*

ADABIYOTLAR RO'YXATI:


*1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori . T 1998.*
*2. Munavvarov A.K. " pedagogika " T " o'qituvchi " 1996*
*3. S.P. Baranov T O'qituvchi 1996.*
*4. Ilina T.A. Pedagogika M. 1985.*
*5. Tursunov I. Nishonaliev U. Pedagogika ko'rsi T 1996.*


MAVZU: TA'LIM METODLARI

2-soat ma'ruza
Asosiy savollar:

*Ta'lim metodlari haqida tushuncha;*
*Ta'lim metodlari tavsifi;*

Tayanch tushunchalar:

Metod, usul, tasnif, tavsif, ta'lim vositalari, faol metodlar, massiv metodlar, muammoli ta'lim, qisman izlanuvchanlik.

Ta'lim metodlari haqida tushuncha:

O'qituvchining maqsadi: Ta'lim metodlarining mohiyatini ko'rgazmalilik asosida tushuntirish. Metodlarning nazariy asoslarini amaliyotga bog'langan holda talabalar ongiga etkazish. O'qituvchilik kasbiga qiziqishni kuchaytirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*Ta'lim metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab beradi.*
*Ta'lim metodlarining boshqa metodlardan farkini ajratib ko'rsatadi.*

*Ta'lim metodlarining ahamiyatini tahlil qiladi.*

1-asosiy savol bayoni:

-------------

MAVZU: TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

2 –soat ma'ruza

Asosiy savollar:

*Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida tushuncha.*
*Dars va unga qo'yiladigan talablar.*
*Dars turlari va tarkibiy qismlar.*

Tayanch tushunchalar:

Talimni tashkil etish shakllari, sinf dars tizimi, asosiy shakllar, dars, dars turlari, tarkibiy qismlari, noan'anaviy dars, o'quv ishlarini rejalashtirish, kalendar mavzu rejasi, reja, matn, dars kuzatish va tahlil.

Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha:

O'qituvchining maqsadi: Ta'limni tashkil etishning shakllari muammosining pedagogika fanida ilmiy asoslanishini tushuntirish, talabalardadarsni tashkil etish va o'tkazishga qiziqish xosil qilish, ta'limning qo'shimcha shakllarini darsga boglagan holda bayon etish.

Identiv o'quv maqsadlari:

*1.Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida asosiy tushunchalarni aytib beradi.*
*2.Sinf dars tizimini izohlaydi.*
*3.Ta'limni tashkil etishning asosiy va qo'shimcha shakllarini takkoslaydi.*

1-savolning bayoni:

Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy to'zum va shu to'zumning manfaatlariga mos holda shakllangan.
16-asrdning oxiri va 17-asrning boshlarida buyuk chex pedagogi YA.A.Komenskiy tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.
YA.A.Komenskiyning ta'limni tashkil qilish haqidagi qarashlari bir kator jiddiy karshiklarga uchragan bo'lsa ham garb mamlakatlariga juda tez tarkaldi va ta'limni tashkil qilishning birdan-bir shakli deb e'tirof etildi.

Sinf-dars tizimi shark mamlakatlariga,jumladan Markaziy Osiedagi eski musulmon maktablariga tadbiq bo'lmadi. Ulardan oktabr tuntarishiga kadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi davom etib keldi.
Bir o'qish xonasida 6 eshdan 15-16 eshgacha bo'lgan bolalar guruhi bilan bir vaqtda mashgulot olib borilardi. SHuningdek,bir o'qish xonasidagi o'quvchining bilim darajasi ham turlicha Bular edi.
O'zbek maktabi oktabr tuntarishidan keyin sinf-dars tizimiga utdi. VKP (b) Markaziy kameteti 1932 yil 25 avgustda (boshlang'ich va o'rta maktabning o'quv dasturlari va rejimi to'g'risida) qaror qabul kildi.Bu qarorda "boshlang'ich,o'rta maktabda o'quv ishini uyushtirishning asosiy shakli-ma'lum guruh o'quvchilari bilan,kat'iy mashgulot jadvaliga muvofiq dars olib borish lozim; bunda bir guruh o'quvchilar sastavi sira o'zgarmasligi kerak; o'quv ishining bu shakli o'qituvchining rahbarligi ostida,butun guruhni birlashtirib ishlashi,birigadalarga bo'linib ishlash va har bir o'quvchining individual ishlashini o'z ichiga olishi;o'qitishning xlma-xil usullarini qo'llanishi kerak", deb ko'rsatib qo'yildi.

Endilikda mustaqil jumxuriyatimiz xalq ta'limi oldiga kuygan talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmokda sinf-yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir.Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashgulotlariga aytiladi.

*Dars- o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir.*
*Dars- o'quv ishlarining markaziy qismidir.*

Maktablarimiz bosib o'tgan tarixiy davr ichida ta'limni tashkil qilish shakllari o'zgardi,rivojlandi.Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf- dars tizimi kuydagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

*1.Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.*
*2.Dars mashguloti asosan 45 minutga mo'ljallangan bo'lib,kat'iy jadval orqali olib boriladi.*
*3.Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jmoa va yakka shaklda olib boriladi.*
*4.Dars utilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida albatda tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.*

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmokda.

*1.Sinf-dars shaklidagi olib boriladigan mashgulotlar.*
*2.Amaliy va tajriba ishlari shaklidagi olib boriladigan mashgulotlar.*

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashgulotlar o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimnli bayon qilib berishni,xlma-xil usullardan

foydalanishini,o'quvchilarning bilim,ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni o'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.
Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashgulotlar sinf sharoitidan tashqarida,o'quv ustaxonasi,tajriba uchastkalari va maydonlarida ishlash ekusko'rsiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.
Hozirgi zamon didaktikasi ko'p yillar davomida to'plangan o'qitish koydalari,fan yutuklari va ilg'or tajribalar asosida boyib bormoqda deyishga asos bor.Ammo o'quv jarayoning hamma qismlarini o'qitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan.Bularning hammasi didaktik koydalardan amalda foydalanishni kiyinlashtiradi.Maktab oldida to'rgan yangi vazifalar va ehtiyojlar o'quvchilarga beriladigan ta'lim va tarbiya sifatini oshirish uni yanada rivojlantirish va yuqori bosqichga ko'tarishni talab qiladi.
O'qituvchi o'zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko'p mos keladigan o'quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan holi emas.Bu ish darsning muhim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka bilim,ko'nikma, va malakalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishga qandaydir tasodifiy yondashishga yo'l kuymaydi.
Seminar mashgulotlari o'quvchilarning mavzudagi muhim masalarni chuqur o'rganish yuzasidan mustaqil ishlashini keyinchalik ularni jamoa bo'lib muxokama qilishni tashkil etishni shaklidir. Mavzu o'rganulgancha kadar o'qituvchi o'quvchilar uchun savol va topshiriqlar to'zib chiqadi.Kirish mashgulotida u o'quvchilarni materialning mazmuni qilinadigan ishning harakteri bilan kiskacha tanishtiradi, ularga har qaysi seminari uchun topshiriq beradi va tayorlanish uchun adabiyot ko'rsatadi. Bir vazifalar hamma uchun umumiy bo'ladi,boshqa vazifalar ayrim o'quvchilarga yoki 3-4 kishidan to'zilgan guruhga beriladi.Bunda hamma o'quvchilar seminar uchun dasturdagi majburiy materiallar minimumini ishlab chiqishlari kerak.Ta'limning bunday shakli qo'shimcha shakli deb yuritiladi.Seminar mashguloti o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi,u o'quvchilar ishini yunaltirib turadi,mavzu savollari muxokamasini yakunlaydi,zarur qo'shimcha to'zatishlar kiritadi,materialni sistemaga soladi va muxokamada katnashgan o'quvchilarga baxo qo'yiladi.
Ta'limning qo'shimcha shaklidan biri-amaliy-tajriba mashgulotlaridir.Bu mashgulot sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan mashgulot turi bo'lib,u maxsus jixozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchaskasida olib boriladi.Bu mashgulot ikki yo'l bilan olib boriladi:

1. *Amaliy tajriba.*
*Ekskrsiya.*

Ta'limning qo'shimcha shakllari seminar va amaliy tajriba mashgulotlari biror fanni chuqurrok o'rganish uchun yoki biror yangi soxani o'rganish uchun utiladigan qo'shimcha dars mashgulotidir.

Nazorat topshiriqlari:

*Sinf- dars tizimini ilmiy asoslanganga kadar ta'lim ishlari qanday tashkil etilganligini so'zlab bering.*

*Sinf-dars tizimini ilmiy asoslagan olim:*
*A. Unsurul Moaliy qaykoius*
*B. Alisher Navoiy*
*V. I.G.Pestalotsun*
*G. L.A.Komenskiy*
*D. K.D.Ushunskiy*
*Ta'limni yo'lga qo'yishning asosiy shakli:*
*A. Tajriba sinov mashgulotlari*
*B. Dars*
*V. Laboratoriya mashgulotlari*
*G. Uyga vazifa va maslaxatlar*
*D. YUzma-yuz mulokat mashgulotlari*
*Ta'limni tashkil etishning qo'shimcha shakllarini aniqlang.*
*A. YAngi bilim berish.*
*B. Uyga vazifa, maslaxat, eksko'rsiya.*
*V. Mustaxkamlash va takrorlash.*
*G. Dars.*
*D. Texnika vositalaridan foydalanish.*
*Sinf deganda nimani tushunasiz?*
*A. Maktab o'quvchilari jamoasi.*
*B.Eshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi o'quvchilarning doimiy guruhi.*
*V. Har xil eshdagi, turli bilimlarni egallovchi bolalar guruhi.*
*G. qobiliyatli va qiziqishi bir xil bo'lgan o'quvchilar.*
*D. Jinsiy tafavvuti hisobiga olingan guruh.*
*Dars va amaliy mashgulotlarni takkoslab ko'ring.Uxshash va farq qiladigan tomorlarini tahlil qiling.*
*Sinf va unda olib boriladigan darslarning ta'lim-tarbiyaviy mohiyatini asoslab berining.*

2.Asosiy savol. Dars va unga qo'yiladigan talablar:

O'qituvchining maqsadi:

*Dars haqida to'la ma'lumot berish, unga qo'yiladigan asosiy talabni tushuntirish. Darsning ijodiy jarayon ekanligini va unda o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'rni ko'rsatib berish.*

Identiv o'quv maqsadlari:

*1. Darsning o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda faoliyat yuritish jarayoni ekanligini tushuntiradi.*
*2. Darsga qo'yiladigan talablarni aniqlab beradi.*
*Darsga qo'yiladigan talablarning ahamiyatini isbotlaydi .*

2 asosiy savolning bayoni:

Dars o'quvchilarning bilim , ko'nikma va malakalar egallashlarida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan mashgulot shakli hisoblanadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatdlarini yuritadilar. O'qituvchi qanchalik faollik ko'rsatsalar, o'quvchilar ham shu darajada ongli ishtirok etishlari zarur. Olimlar, ilg'or o'qituvchilar darsini ijodiy jarayon deb hisoblangan holda, uni doimiy takomillashib borishini takidlaydilar. Har bir darsda mavzuning harakteridan kelib chikib xalqimizning boy pedagogik merosiga murojat qilish va undan foydalanmok imkoniyatini izlamok lozim.

Nazorat topshiriqlari:

*Dars qanday faoliyat turlarini umumlashtiradi?*
*A. O'quvchilarning faoliyatini;*
*B. O'qituvchining faoliyatini;*
*V. Maktab jamoasining faoliyatini;*
*G. O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatini;*
*D. Maktab ma'muriyatining faoliyatini.*

*Darsda asosiy figura kim bo'lishi kerak?*
*A. O'qituvchi va o'quvchilar;*
*B. O'qituvchilar;*
*V. O'quvchilar;*
*G. A'lochilar;*
*D. Sinf rahbari.*

*Darsga qo'yiladigan asosiy talab.*
*A. Ma'lum maqsadga yunaltirilganligi;*
*B. Amaliyot turmush bilan bog'langanligi;*
*V. Vaqtdan unumli foydalanish;*
*G. Ta'lim vositalaridan unumli foydalanish;*
*D. Barcha talablar asosiy hisoblanadi.*

*Darsga qo'yiladigan talabni o'z fikringiz bilan yozma ifodalab bering.*
*Darsga qo'yiladigan talablar ko'prok kimga (o'qituvchi yoki o'quvchi) daxldor ekanligini tushuntirib bering.*
*Darsda ta'lim va tarbiyaning milliy asoslariga qanday qilib amal qilishni ma'kul ko'rasiz.*

3-asosiy savol. Dars turlari va tarkibiy qismlari:

O'qituvchining maqsadi:

*Dars turlari va tarkibiy qismlari to'g'risida iula ma'lumot berish.*
*Har bir dars turidan namunalar keltirish va misollar bilan dalillash.*

*Darsni tahlil qilishga va baholashga o'rgatish.*

Identiv o'quv maqsadlari:

*Fanning xususiyatlari va mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holdaturli ko'rinishdagi darslar bo'lishini farqlaydi.*
*Dars turlari va maqsadlarining uzviybog'liqligini aniqlaydi.*
*Har xil dars turlari rejalarini solishtirib ko'radi.*

3- savolning bayoni:

Maktabda turli-tuman o'quv fanlaridan o'quvchilarga bilim beriladi. Ularning mazmuni, o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ham har xildir.SHuning uchun dars turlari xilma xil bo'ladi.Bunda aynan utiladigan mavzu yuzasidan qo'yiladigan maqsadlar ham alohida rol uynaydi. Dars,yuqorida ayt ib utilganidek o'qitishni tashkil etishning o'zgarmas shakli emas.O'quv amaliyoti va pedagogik taFaqko'r doimo uni takomillashtirish yo'llarini izlaydi. Bu soxada turli-xil ko'rik tanlovlar, jumxuriyat miqyosida o'tkazilayotgan pedagogik o'qishlarda o'rtaga qo'yilayotgan ilg'or o'qituvchilarning fikr va muloxazalari dikkatga sazovordir.
Turli- tuman fikr va muloxazalarni hisobga olgan holda dars kuydagi umumiy didaktik talablarga javob berish lozim:

*1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amlga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmogi lozim.*
*2. Xa bir dars mustaxkam goyaviy siyosiy yunalishga ega bo'lmogi lozim .*
*3. Har bir dars turmush bilan amaliyot bilan bog'langan bo'lmogi lozim.*
*4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foyda-langan holda olib borilmogi lozim.*
*5. Darsga ajratilgan har bir soat va dakikalarni tejab,undan unumli foydalanmok lozim.*
*6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'min-lamogi lozim.*
*7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, tex-nika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmok lozim.*
*8. Dars mashgulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.*
*9. Har bir darsda mavzuning harakteridan kelib chikib,xalqimizning boy pedogogik merosiga murojat qilish va undan foydalanmok imkoniyatini izlamok lozim.*

3. Asosiy savol. Noan'aviy dars va uni o'tkazish yo'llari:

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularni tuzilishini kuydagicha izohlashimiz mumkin:

1 soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashgulot turi dars turlari deb yuritiladi.Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari kuydagilardir:

*1. YAngi bilimlarni bayon qilish darsi.*
*2. Utilgan materiallarni multaxkamlash darsi.*
*3. O'quvchilarning bilim,malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.*
*4. Tkroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.*
*5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini birga qo'llanishi)*

Har bir dars to'rining ma'lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o'qituvchining o'quv materialini to'g'ri va samarali tushuntirishga,mustaxkam esda qoldirishga,takrorlashga va uning o'zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.
Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashgulotlarda ikkinchi, xatto uchunchi bir dars to'rining elementlari bo'lishi mumkin.
Masalan,maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri-yangi bilimlarni bayon qilish darsidir.Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

*a)YAngi bilimlarni bayon qilish.*
*b)YAngi bilimlarni mustaxkamlash.*
*v)YAngi bilimlar ustidan mashk qilish.*
*g)YAngi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalrini topshirish.*

Demak,dars boshdan-oyok bir dars turi bilan olib borilmaydi,balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustaxkamlash, yangi bilimlar ustidan mashk o'tkazish uyga vazifa, kabi boshqa elementlarning bo'lishi ham mumkin.SHunga karamay,darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa,butun didaktik usullar shunga buysundiriladi.SHuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.
Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir elementlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni payitda asosiy dars to'rining tuzilishini tashkil qilishi mumkin.Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars to'rining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.
Birok, dars turlari tuzilishidagi har qanday qism-didaktik usul,dars tuzilishi bo'lavermaydi.U o'qitishning usuli bilan bog'langandagina dars tuzilishini tashkil kila oladi.YA'ni dars tuzilishining o'zgarishi bilanok dars olib borish usuli ham o'zgaradi.
Demak,darsning shu qismiga kelib,darsning shakli ham,usuli ham o'zgaradi,yangilanadi.Bu bilan darsnng yangi bosqichi boshlanadi.Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakli hamda usullarining o'zgarishi dars baskichi deb yuritiladi.Masalan,aralash dars to'rining tuzilishi:

*1. Uy vazifalarini surash tekshirib ko'rish.*

*2. YAngi materiallarni bayon qilish.*
*3.YAngi materiallarni mustaxkamlash.*
*4. Uy vazifalari topshirishni o'z ichiga oladi.*

<u>Bunda:</u>

*a)Uy vazifalarini ko'rish suhbat (savol-javob),misol va masalalar ishlatish yo'li bilan olib borilishi mumkin.Bu dars tuzilishining birinchi qismi,darsning birinchi bosqichi;*

*b) YAngi materiallarni bayon qilish jarayonida o'qituvchi tushuntirish,xikoya qilish, maktab ma'ruzasi, suhbat kabi usullardan foydalanishi mumkin:Bu-dars tuzilishining ikkinchi qismi darsning ikkinchi bosqichi;*

*v) YAngi materiallarni mustaxkamlash jarayonida suhbat, mashk kildirish, kmtob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin.Bu dars tuzilishining uchinchi qismi, darsning uchinchi bosqichi;*

*g) Uy vazifalarini topshirish jarayonida tushintirish, suhbat usulidan fodalanish mumkin.Bu dars tuzilishining to'rtinchi qismi,darsning to'rtinchi bosqichidir.*

Dars bosqichlari va xillari takomillashib bormoqda.Hozirgi payitda dars bosqichlarining ketma-ketligiga kat'iy rioya qilish shart emas.Dars bosqichlari didaktik vazifa va maqsadga bog'liq holda uyganlashib ketishi ham mumkin Hozirgi paytda ta'lim jarayonida yoshlarni ta'lim oluvchilarni mustaqil faolliklarini ooshruvchi o'qituvchi va o'quvchi orasidagi ijodiy hamkorlikka asoslangan ijodiy hamkorlik darslari keng qo'llanilmokda.Ijodiy hamkorlik darslari yoshlarni o'z aro ijodiy hamkorligi va o'qituvchi hamda o'quvchi orasidagi ijodiy hamkorlikka asoslangan.Ijodiy hamkorlik darslarini tashkiliy masalalari joiy turlicha bo'lishi mumkin.Zamonaviy dars bosqichlari o'quvchi-yoshlar bilimlarini aktuallashtirish (esga tushirish va faollashtirish)yangi bilim,o'quv, ko'nikma, masalalarni ijodiy-amaliy egallash,bilimlarni ijodiy-amaliy kullash bosqichlardan iborat.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*Nima sababdan darslar har-xil turlarda tashkil etilishini tushuntirib bering;*
*Eng ko'p qo'llaniladigan dars turi;*
*A. Aralash durs turi;*
*B. Ekskursiya;*
*V. Noan'anaviy dars;*
*G. Didaktik o'yin darslari;*
*D. Masofadan o'qitish darsi;*
*qaysi dars turi o'quvchilarga ilmiy-nazariy bilim berishga qaratilgan?*
*A. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.*
*B. Mustaxkamlash va takrorlash.*
*V. Aralash darslar*
*G. YAngi bilim berish darslari*
*D. Tajriba-sinov darslari*

TA’LIM TARBIYA  JARAENINI TASHKIL

BOSHqARISH TIZIMI VA ISHLAB CHIqARISH

*1. Pedagogik boshqarish tushunchasi*
*2. Ta’lim tizimini boshqarish*
*3. Ta’lim –tarbiyani boshqarish bo’yicha vaqolati davlat fanlari.*

Mustaqil O’zbekiston  respublikasida Xalq Maorifi keng eyilishi,miqdor va sifati jihatidan jadal usishi,turli xildagi ta’lim tizimi va ta’lim muassasalaridan tashqari o’quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi,ta’lim va tarbiya jaraenini boshqarishning juda zarurligini takoza etadi.,turli xildagi ta’lim tizimi va ta’lim muassasalaridan tashqari o’quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi,ta’lim va tarbiya jaraenini boshqarishning juda zarurligini takoza etadi.

MAVZU: O’QUVCHILAR BILIMINI TEKSHIRISH, NAZORAT QILISH
VA BAHOLASH.

2 –soat ma’ruza.
Asosiy savollar:

*O’quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyati.*
*Bilimlarni tekshirish turlari va maktabda baxo normalari.*

Tayanch tushunchalar:

Bilim, baxo baholash, bilimlarni joriy tekshirish, bilimlarni oralik tekshirish, bilimlarni yakuniy baholash, baholash formalari.

1. O’quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish
va baholash:

O’qituvchining maqsadi: O’quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini talabalarga tushuntiradi. Ularda pedagoglik kasbiga qiziqish uyg’otadi.

Identiv o’quv maqsadlari:

*O’quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini tushuntiradi.*
*O’quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini asoslab beradi.*

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta’lim berish ahamiyati shundan iboratki, bunda o’quv materialining o’zlashtirilganligi haqida o’qituvchi ham, o’quvchi ham ijobiy harakteristikaga ega bo’ladi.. O’qituvchiga o’quvchi nimani bilish va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o’zlashti-rilganu, qaysi biri etarli darajada o’zlashtirilmaganligi yoki umuman o’zlashtirilmaganligi ma’lum bo’ladi.. bu o’quvchilarning bilish faoliya-tini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo’lib hisoblanadi. SHuningdek o’quvchiga o’quv materialida u nimani yaxshi, nimani konikarli va nimani yomon o’zlashtirgani tushunarli bo’ladi. tekshirish o’quvchining o’rganiliyotgan materialni tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish da-rajasini aniqlaydi. O’quvchi o’z bilimlarining ijobiy harakteristi-kasiga, maktabda va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilim-lari, malaka va ko’nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo’ladi.
Bilimlarni, malaka va ko’nikmalarni tekshirish va baholashning tarbi-yaviy ahamiyati shundaki, bunda o’quvchilarda o’qishga, o’z yutuklari va muvaf Faqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi. Kiyinchiliklarni engish istagi tug’iladi. Baxo unda hamisha o’quvchi sifatida, shaxs sifati-da o’ziga nisbatan muayyan bir munosabatni xosil qiladi. O’quvchining o’zi-ga nisbatan bu munosabatini, tuygularini o’qituvchi uning harakteridagi irodalilik, o’zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarni shakllanti-rish borasida ustalik bilan ishlatadi.
Bilimlarni tekshirish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Xalq ta’limi boshqarmalari o’quv faoliyatini tekshirish natijalariga, maktab o’quvchilari olgan bilimlar, malaka va ko’nikmalarning baxosiga binoman maktablar, o’qituvchilar jamoalarining ishi haqida, ukvchilarning o’zlashtirishi haqida xulosa chiqaradilar.
Maktab ma’muriyati, shahar, tuman, viloyat, xalq ta’limi bo’limlari, Xalq ta’limi vazirliklari har doim o’quvchilarning bilimlari, sifati haqida, maktablar va o’qituvchilar ishining afzal va kamchilik tomonlari haqida xulosa chiqarishi mumkin bo’lgan maxsus tekshiruv yoki nazorat ishlarini berish imkoniyatiga egadir.
Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak:
Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo’lishi shart. Bu talablarga rioya etilmasa o’quvchilarning o’qishga nisbatan munosabati yomonlashadi. Bilimlarning sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Maktab o’quvchilart darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. O’qituvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shuni talab qiladi.
Bilimlarni baholash yakka yondashuv harakteriga egadir. Har bir o’quvchi o’zining bilimlari, malaka va ko’nikmalari baholanayotganligini tushunishi kerak.
Maktab o’quvchilirining bilimlari, malaka va ko’nikmalari davlat o’quv dasturirining bajarilishi nuktai nazaridan tekshiriladi va baxo-lanadi. Dasturlar mazmunini o’zlashtirish sifati bilimlarni baholashda asosiy mezondir.
O’quvchilar bilimlarini, malaka va ko’nikmalarini tekshirish forma-lari rang-barangdir. Ba’zan, o’zok vakt mobaynida o’qituvchi bilimlarini tekshirishning bir xil usullari qo’llanadi. Unda surash, savol berish, yoki baxoni izohlash soxasida muayyan odat paydo bo’ladi. tekshirish formalarining rang-barangligi o’quvchilarni o’zlarining bilimiga, uni qaytarishga dikkatni jalb etishga majbur qiladi. Bu holda o’quvchi bamisoli o’qituvchiga yokish, uning uchun javob berish to’g’risida kamrok uylaydi. Tekshirish formalarining rang-barangligi Ayniqsa boshlang’ich sinflarda,

kachonki maktab o’qituvchilarida bilimlarni tekshirish va baholashga munosabat boshlangan bir paytda juda ham muhimdir.
*O’quvchilar bilimini tekshirish va baholash davomat miqyosida muhim ahamiyatga ega bo’lib, ayni payitda xalq maorifi organlari va maktab ma’muriyati o’qituvchi ishini nazorat qilib turish uchun asosiy vositadir.*
O’qishning har bir davrida tekshirish uchun nazorat ishlari, kuzatish ishlari, o’quvchilar ishini tahlil qilish va boshqa shuning singari tad-birlarni amalga oshirish mumkin. O’quvchilar bilimini tekshirish va o’qish natijalariga baxo berish metodlari o’quvchilar shaxsining rivoj-lanishiga, Ayniqsa boshlang’ich sinflarda katta tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi. Kichik yoshdagi o’quvchilar bilimlarga berilgan baxosi o’qish natijalarining asosiy va xal qiluvchi ko’rsatkichi deb xis qiladilar.
O’quvchilar bilimini tekshirishning o’quv jarayonida to’tgan o’rni va ahamiyati tekshirish usullariga hamda o’qituvchining uni tashkil etishga doir talablarni belgilab beradi. Bu talablarning asosiylari quyidagilardan iborat.

*Dasturda ko’rsatilgan o’quv materialini o’zlashtirish sifatida tekshiriladi va baholanadi.*
*Tekshirish bir xil sistemada, yagona davlat dasturidan kelib chiqadi.*

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*O’quvchilar bilimini tekshirish va baholashning ta’lim berish ahamiyati nimadan iborat?*
*A. O’quvchilar bilimini chuqurlashtiradi.*
*B. Bilim doirasini kengaytiradi.*
*V. Bunda o’quv materialining o’zlashtirilganligi haqida o’qituvchi ham, o’quvchi ham ijobiy harakteristikaga ega bo’ladi.*
*G. O’quvchi o’quv materialida nimani yaxshi, nimani konikarli yoki yomon o’zlashtirganini tushunib oladi.*
*D. O’quvchi faoliyatiga aniq baxo beriladi.*
*Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini tushuntiring.*
*Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini sharxlab bering.*
*Bilimlarni tekshirishning talablarini yozma ravishda izohlab bering.*
*O’quvchilarning bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.*
*O’quvchilarning bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bering.*

<u>2. Bilimilarni tekshirish turlari va maktabda baxo normalari:</u>

<u>O’qituvchining maqsadi:</u> Bilimlarni tekshirish turlari va maktabda baxo normalari haqida talabalarga tushuncha beradi. Ularda o’qituvchilik kasbiga qiziqish uyg’otadi.

Identiv o’quv maqsadlari:

*O’quvchilar bilimini tekshirishning mohiyatini tushuntiradi.*
*Maktabda baxo normalari haqida sharxlab beradi.*

Bilimlarni tekshirish turlari

Bilimlarni tekshirishning quyidagi turlari bor.
Har darsda tekshirish. O’qituvchi har bir darsda o’quvchilarning yangi bilimlarni o’zlashtirishga tayyorligini tekshiradi, bolalarning butun dars davomida o’quv materiali mazmunini qanday o’zlashtirayotgan-liklarini nazorat qilib turadi.
*Bilimlarni joriy tekshirish har bir darsda o’tkaziladi. U tushun-tirish, mustaxkamlash, materialni takrorlash chogida o’quv jarayonining zarur qismi hisoblanadi. Joriy tekshirish bilimlarni aniqlashga va o’quv jarayonini ana shu asosda olib borishga imkon beradi. Bilimlarni joriy tekshirish maxsus ajratilgan vaqtda surash, uy vazifasini tekshirish uchun mustaqil ish bajartirish shaklida o’tkaziladi. Ba’zida esa tushuntirish, takrorlash yoki mustaxkamlash chogida mavjud bilimlarni qaytarish uchun savollar va vazifalar berish tarzida ham o’tkaziladi.*
*Tematik tekshirish butun temani o’zlashtirilishini nazorat qilib borishni ta’min etadi..O’quv dasturining o’rganilgan mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Bu xildagi tekshirish materialni tizimiylashtirishda juda katta ahamiyatga egadir. Darsda kiska vakt mobaynida shunaka savollar berish yoki shunaka vazifalarni taklif etish kerakki, o’quvchi o’zini ularda temaning asosiy mazmunini, asosiy goyalarini ko’rib to’rganday xis qilish kerak.*
YAkunlovchi tekshirish o’quvchilarning o’quv yilining ma’lum davrida - bir necha xafta, o’quv choragi, yarim yil, bir yil ichida, bir necha yil davomida va To’qqiz yillik yoki o’rta ma’lumot bo’yicha olgan bilimlari tekshiriladi. YAkuniy baxo maktab o’quvchisining chorak yoki yil davomidagi ishining natijasini aks ettiradi.
Bilimlarni tekshirishining bu turlari ogzaki va yozma bo’lishi mumkin. O’quvchilarning o’quv materialini o’zlashtirish sifati ularning o’qituvchi savollariga bergan javoblariga mustaqil va amaliy ishlarni, maxsus ogzaki yoki yozma topshiriqlarni tekshirish maqsadida berilgan yozma ishlarni bajarishlariga qarab tekshiriladi. O’quvchining bilim-larni o’zlashtirish sifati haqida uning darsdagi bilish aktivligiga ka-rab ham fikr yuritish mumkin.
*YOzma, nazorat va mustaqil ishlar bilimlarni tekshirishning asosiy formalari hisoblanadi.*
Darsda bilimlarni odatdagi tekshirishning asosiy formasi o’rganilgan materialni o’quvchilardan yoppasiga va individual ravishda surab chiqishdir.

Maktabda baxo normalari

Hozirgi vaqtda bizning maktabimizda besh balli sistemasi qabul qilingan.

«5» (a’lo) baxo programma materialini chuqur va to’la tushungan, o’rganayotgan qoidalarini mustaqil ravishda tushuntirib bera olgan, savolga mantiqiy va adabiy to’g’ri formada, ishonarli va ravshan javob bergan, xato kilmagan o’quvchiga qo’yiladi.
«4» (yaxshi) baxo dastur materialini chuqur va to’g’ri o’zlashtirgan, ammo javobida noaniqliklarga hamda javobining mazmunida va tuzilishi formasida unga muhim bo’lmagan xatolarga yo’l kuygan o’quvchilarga qo’yiladi.
"3" (o’rta) baxo o’quv materialini o’zlashtirgan, lekin tushuntirganda xatoga yo’l kuygan o’quvchiga qo’yiladi .
"2" (konikarsiz) baxo bilimni, o’quv materialini o’zlashtirmagan o’quvchilarga qo’yiladi.
«1» (juda yomon) baxo kachonki, o’quvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda ko’pol xatolarga yo’l kuygan hollarda qo’yiladi.

<u>O’zlashtirmaslikning bir qancha sabablari mavjud:</u>

*Bolada ish qobiliyatining, intilishning va dikkat e’tiborning etishmasligi.*
*Bilimlarni puxta o’rganmay o’tkazib yuborganligi.*
*Materialdagi muhim belgilarni ajrata olmaslik, asosiy va ikkinchi darajali narsaning farqiga bormaslik.*
*Mazkur o’quv faniga qiziqish yo’qligi.*
*O’quvchining oilada yoki o’z tengko’rlari orasida nokulay axvolda qolishi.*

*Har bir o’quvchi yaxshi o’qishi, tarbiyalangan va irodali bo’lishi mumkin. Bu borada unga yordam berish o’qituvchi, maktab va oilaning vazifasidir.shuning uchun maktab o’quvchisining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganmay va yakka tarzda yondoshmay turib, yomon baxo qo’yishga shoshilmaslik kerak.*
Bilimlarni nazorat qilish, tekshirish va baholash ning yangi mohiyati..
Besh balli tizimda baholash bilan birgalikda Hozirgi vaqtda ko’p balli tizimda baholash ham mavjud. Bu tizim orqali o’quvchilarning fikrlash doirasi, bilim saviyasi, qobiliyati va bilimni har tomonlama chuqur egallaganlik darajasi mukammalrok aniqlanadi.
Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng ta’lim soxasida birmuncha o’zgarishlar ro’y berdi. Ta’lim soxasiga o’quvchilar bilimlarini test- reyting sinovi orqali baholash usuli kirib keldi. Hozirgi davrda bir necha yillardan buyon o’quvchilarni baholash , o’rta-maxsus va Oliy o’quv yurtlariga qabul qilish ham test orqali bo’lmoqda. O’quvchilarning olgan bilimlarini test orqali bilish, bilim darajasini tekshirish yaxshi samara berdi. Yil mobaynida bu samara tajriba maktablariga joriy qilinmokda. Test reyting nazorati, orqali o’quvchilarni baholashda o’quv-chining har tomonlari ga e’tibor beriladi. Uning kundalik faoliyati baholanadi. Uning xulqi, jamoat ishlaridagi faoliyati bilim darajasi birgalikda baholanadi. Bu o’quvchining bilim, malaka va ko’nikmalar darajasini qandayligini ravshanlashdiradi. Va o’quvchi, o’qituvchi faoliyatini jipslashtiradi. O’quvchilarni o’quv faoliyatini yaxshilaydi. Kundalik nazoratdan keyin o’quvchi fanlarni o’zlashtirishga qiziqish uygonadi. O’qituvchi

uchun yakuniy baholash, baxo berish kundalik nazoratlarini yakunidan kelib chiqqan holda bo'ladi. Bunda o'quvchi aniq baxoga ega bo'ladi.
Nazorat topshiriqlari:

*Bilimlarni joriy tekshirish kachon o'tkaziladi.*
*A. Har bir mavzudan so'ng.*
*B. Har bir darsda.*
*V. Har chorak yakunida.*
*G. Har chorakda ikki marta.*
*D. Har xaftada.*
*Bilimlarni yakuniy tekshirish va baholash kachon o'tkaziladi.*
*A. Har chorak oxirida va yil oxirida.*
*B. Har bir mavzudan so'ng.*
*V. har bir chorak oxirida.*
*G. Har bir bo'lim oxirida.*
*D. Har bir darsda.*
*Bilimlarni tekshirishning asosiy formalari qaysi katorda to'g'ri ko'rsatilgan.*
*A. Ma'ruza.*
*B. Amaliy mashgulot.*
*V. Nazorat va mustaqil ishlar.*
*G. Nazorat va amaliy mashgulot.*
*D. Ma'ruza va amaliy mashgulot.*
*O'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mezonini yozma ravishda izohlab bering.*
*Bilimlarni joriy, tematik va yakuniy tekshirishning keng tarkalgan formalarini (yakka tartibda va yoppasiga surash) sharxlab bering.*
*Bilimlarni tekshirish turlarining mohiyatini asoslab bering.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


*Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.*
*Ilina T.A. Pedagogika M. 1985.*
*Maxmutov M. Hozirgi davrda dars. M. 1986.*
*Munavvarov A.K. " pedagogika ". T., " o'qituvchi " 1996.*
*S.P. Baranov T O'qituvchi 1996.*
*Tursunov I. Nishonaliev U. Pedagogika ko'rsi. T., 1996.*


MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI.

2 soat ma'ruza.

Asosiy savollar (masalalar):

*Fanning ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha.*
*Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining tavsifi*

Tayanch tushuncha va iboralar:

Metod, ilmiy-tadqiqot metodi, metodologiya, ilmiy kashfiyot, ilmiy faraz, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, ijodiy ishlarni o'rganish, maktab va arxiv hujjatlarini o'rganish, anketa va testlar, matematika-kibernetika, ilmiy tadqiqot natijasi.

Fanning ilmiy tadqiqot metodlari haqida tushuncha

O'qituvchi maqsadi: Talabalarga fanning rivojlanishida ilmiy-tadqiqot metodlarining ahamiyati haqida ma'lumot berish.
Pedagogik tadqiqot metodlarining o'ziga xosxususiyatlarini tushuntirish.
Ilmiy pedagogik tadqiqotlar olib borishga qiziqishlar xosil qilish. mustaqil ish, referat va ko'rs ishi yozishda ayrim pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadi:

*Metod tushunchasining mohiyatini aytib beradi.*
*Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini tahlil qiladi.*
*Ayrim ilmiy-tadqiqot metodlarini tadbiq etadi.*

Insonlar hayot faoliyatlari davomida xilma-xil vazifalarni bajaradi. Nima bilan shug'ullanmasin, uni ma'lum bir usullar, yo'llar orqali amalga oshiradi.
SHuning uchun ham bajaradigan ishning o'zi uchun kulay bo'lgan usullarni axtaradi. Eng samaralilarini mukammal egallab oladi.
qadimgi YUnonistonda har qanday ishni bajarishning yo'l va usullarini metod deb ataganlar. Bu tushuncha barcha ilmlarda aynan shunday qabul qilingan.
Metod ma'lum bir faoliyat to'rini bajarishning yo'l va usullarini anglatadi.
Ilm-fan paydo bo'libdiki, u o'sib, rivojlanib kelmokda. Bu taraqqiyot har bir fanning o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ruyobga chiqadi.
Fanning mazmuni, yunalishlari, o'rganish ob'ekti va rivojlanish xususiyatlari qanday metodlardan foydalanish kerakligini ko'rsatadi.
Ilmiy-tadqiqot metodlari ma'lum darajada fanning metodologik asoslariga ham bog'liq bo'ladi.
Metodologiya fan uchun ilmiy nazariy asos bo'ladigan ta'limotlarning yigindisidir. SHunday ekan har bir fanning metodologik asoslari ilmiy-tadqiqotlarni qanday yunalishlarda va qanday metodlardan foydalanib olib borishni ko'rsatadi.shuning uchun ham barcha fanlar o'zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali o'z mazmunini boyitib, yangilanib boradi. Hayotiy vokealarni qanday o'rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash kerak degan masalalar barchani uylantiradi, ular o'zaro bog'liqdir. Nima qilish kerak va uni qanday amalga oshirish zarur degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'rtasida dialektik birlik borligi seziladi.
Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni uning masadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullar bilan o'rganadi. SHu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganimizda yosh

avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.
Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganishni ma'qullaydi:

*Ularning umumiy aloqasi bir-birini takoza etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish va tarbiyalash, fan, madaniyat, axlok va san'at, ta'lim va tarbiyaning kaerda amalga oshirilishidan kat'iy nazar, uzviyboglanishda bo'lishi;*
*Ularning taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, shakllari, usullarining o'zgarishi, amalga oshirishning murakkabligi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish, tarbiyalash mumkin emasligi;*
*Bolalarning usishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;*
*Bolalar kamolatiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular o'rtasidagi tafovvutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, jamoa o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tankid, va x.k.*
*Falsafiy kategoriyalar – xodisa va mohiyat, sabab va natija, zarurat va tasodif, mazmun va shakl, imkoniyat va xaqkoniyat, tarixi va mantiqiy, umumiy va xususiy kabilarni bilish va ularni pedagogika fani taraqqiyoti nuktai nazaridan talkin kila olish va x.k.*

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. SHu sababli pedagogik ilmiy-tadqiqot usullariga dogmatik yondashish mumkin emas. Jamiyatda sodir bo'ladigan ijtimoiy o'zgarishlar fanning mazmun mohiyatiga ta'sir etadi. SHu asnoda ilmiy-tadqiqot metodlari ham o'zgaradi yoki yangicha yondashuv asosida qo'llaniladi.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*Metod deganda nimani tushunasiz?*
*A. Bajariladigan ish mazmun-mohiyati metod hisoblanadi.*
*B. Metod – bu qonun-qoidalar yigindisidir.*
*V. Biror faoliyatni bajarishning yo'l va usullari.*
*G. Vazifalar yyigaindisi metod bo'ladi.*
*D. Turli vositalardan qo'llanish.*
*qadimgi YUnon tilidan olingan "Methos" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?*
*A. Uslubiyatni.*
*B. Ayrim fanni o'qitish metodikasini.*
*V. Maxoratni.*
*G. Yo'l va usulni.*
D. Andoza va shakl ma'nosini anglatadi.
*Metodning inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyatini tushuntirib bering.*
*Ilmiy-tadqiqot metodi qanday maqsadga qaratilgan bo'ladi.*

*A. YOshlarga bilim berish.*
*B. YOshlarni tarbiyalash.*
*V. Insonni kamolatga etkazish.*
*G. Kasb sirlarini egallash.*
*D. Ilmiy-tadqiqotlar olib borish.*
*Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini ta'lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.*
*Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan metodlar tizimini so'zlab bering.*
*O'quvchi shaxsini o'rganish uchun so'rovnoma (anketa) tayyorlang va uni o'z maktabingizda to'ldirib natijalarini umumlashtiring.*
*Oddiy testlar tayyorlab ko'ring. Uni takomillashtirishga harakat qiling.test bilan ishlash, natijalarini aniqlash, xulosalar chiqarishni mashk qiling.*

<u>Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining tavsifi:</u>

<u>O'qituvchining maqsadi:</u> Talabalarga Hozirig sharoitda pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan metodlarin tushuntirish. Har bir metodga alohida tavsif berish. pedagogik ilmiy-tadqiqotlar olib borish haqida tasavvur xosil qilish. Pedagogika fanining rivojlanish xususiyatlarini ko'rsatib berish. Ilmiy tadqiqotlar olib borishga qiziqish uyg'otish.

<u>Identiv o'quv maqsadlari:</u>

*Pedagogikada qanday metodlar bilan ilmiy-tadqiqotlar olib borishni tushuntirib beradi.*
*Turli ilmiy-tadqiqot metodlarining mohiyatini tahlil qiladi.*
*Ayrim metodlardan foydalanish tartibini ishlab chiqadi.*

Pedagogika fani ta'lim va tarbiyaning qonuniyatlari, shaxsning kamol topish xususiyatlari, kasb tarbiyasi berish va xalq ta'limi tizimini boshqarish muammolarini o'rganadi. Uning ilmiy-tadqiqot metodlari ham mazkur muammolarni har tomonlama tadkik etish, rivojlanish istiqbollarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi.
Hozirgi sharoitda quyidagi metodlarni pedagogika fani taraqqiyotiga samarali xissa kO'shadi deb hisoblash mumkin:

*Kuzatish;*
*Suhbat;*
*Bolalarning ijodiy ishlarini o'rganish;*
*Test va so'rovnomalar;*
*Maktab hujjatlarini tahlil qilish;*
- *Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish;*
*Matematika va kibernetika;*
*Eksperiment (tajriba, sinov) va boshqalar.*

Kuzatish. Kuzatishlar Faqat oddiy xodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.
Odatda, tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq atvori va muammolaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarin belgilash uchun qo'llaniladi.
Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashi shakllanishini, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fanining boyishiga sabab bo'ladi.
Suhbat usuli. Ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat usulidan foydalaniladi. Odatda, suhbat usuli maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borganda qo'llaniladi. Bunda suhbat usulini tadbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. SHuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yunaltira olishni bilishi, suhbatdoshning ruxiy holatiga qarab suhbat oxangini moslashtirishi g'oyat muhimdir.

Bunda:

*Suhbat uchun oldindan savol tuzish;*
*Vakti va o'tkazish joyini belgilash;*
*Suhbat ishtirokchilarining soni va kasblaridan xabardor bo'lishi;*
*Suhbat uchun kulay sharoit va erkin gaplashish imkonini yaratish;*
*Maxmadana va bachkana bo'lmaslik;*
*Suhbatdoshning kimligini, harakter xususiyatini esdan chiqar-maslik;*
*Suhbat natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, lozim bo'lsa qo'shimchalar kiritish va maktab hayotiga tadbiq etish pedagogik jihatdan kimmatlidir.*

Bolalar ijodini o'rganish usuli. Pedagogik tadqiqot usullari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish usuli mavjud. Bunda maktab o'quvchilarining o'ziga xos yakka tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Maqsad mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarining tipik obrazlari va ularda ijodiy xislatlarni shakllantirishdir.shu sababli yoshlarning turli yozma daftarlari, to'tgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va xikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari ular ma'naviyatini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Oqibatda, mak-tab o'quvchilari orasidan etishib chiqayotgan qobiliyatli, talantli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'dodlari namoyon bo'lishi uchun reja va sharoitlar yaratish imkoni paydo bo'ladi. bolalar ijodini o'rganish manbai ko'p bo'lib ular quyidagicha nomlanadi:
Fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha tanlovlar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, sayoxatlar va x.k.

Test, so'rovnomalar usuli. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlar ichida etakchi usul test va so'rovnoma savollaridan foydalanishdir. So'rovnoma – anketa usuli yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka va guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.
Respublikamizda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test usulini maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga tadbiq etildi.
Test savollarining o'rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlarini ustiradi, kelajakni real baholash qobiliyatini taraqqiy ettiradi.
Maktab hujjatlarini tahlil qilish usullari. Respublikamiz rahbariyatining xalq ta'limi yuzasidan qabul kilgan qaror va yo'l-yuriklari asosida maktabda bajarilgan va bajarilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarini yuritilgan hujjatlar orqali aniqlash usuli ham mavjuddir.
Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi.
Umuman maktab xujjdatlari deyilganda, o'qituvchi va o'quvchilarning soni, o'quvchilarning shaxsiy jujjatlari, sinf jo'rnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.
Eksperiment – tajriba sinov usuli. «Eksperiment» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» ma'nosini anglatadi. Eksperimental –tajriba ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Tajriba ishlari ta'lim-tarbiya o'rtasidagi qonuniy boglanishlarni aniqlash, natijalarni hisoblash asosida yangi usullarni tadbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi. SHuningdek, ta'lim tarbiya jarayoning borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi. Eksperiment usuli sharoitga qarab uch xilda o'tkaziladi.

*Tabiiy eksperiment;*
*Laboratoriya eksperimenti;*
*Amaliy tajriba.*

Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi.
Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o'tkazishda quyidagi talablar mavjdud:

*Ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash lozim;*
*Ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq ob'ekt belgilash, amalga oshirish borasida qo'shimcha usullarni aniqlash;*
*Tajriba ishi o'tkazish vaktingi va muddatini aniqlash;*
*Tajriba uchun lozim bo'lgan asbob-uskuna va x.k.larning tayyorligi;*
*Eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berish kerak.*

Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish usuli. Pedagogik tadqiqot statistika ma’lumotlarisiz, ularing tahlilisiz o’zligini namoyon etaolmaydi. CHunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta’limi soxasidagi, jumladan ajratilgan mablag’larning oshirilishi, xalq ta’limi muassasalarining doim o’sib borishi, darslik va o’quv qo’llanmalari, ko’rgazmali qurollar, o’qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab ko’rilishi, xujalik shartnomalari va ulardan tushuyotgan mablag’lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Davlatimizning deyarli barcha ta’lim-tarbiya muassasalari statistika ma’lumotlari bilan ta’minlangan, kelajak rivojlanish rejalariga ega.

Istiklolga kadar statistika soxasidagi chalkashliklar, atayin orttirib, kushib yozishlar xalq ta’limi tizimida ham mavjud edi. O’sha davrlarda nazoratning bushligi shunga olib keldi. Xalq ta’limi soxasidagi islohatlar bu turdagi intizomsizliklarga nukta kuydi. Demak statistik omil aniq, hayotiy bo’lsa, bajarilayotgan ta’lim-tarbiya yoki ilmiy-tadqiqotlarning kimmati yuqori bo’ladi.

Matematika va kiberneitka usullari. «Kibernetika» grekcha «Rolni bajaraman», «idora etaman» degan ma’nolarni anglatadi. Kibernetika ishlab chiqarishni, texnikani, tirik organizmlarni, kishilik faoliyatini boshqarishning umumiy qoidalarini va vositalarini ishlab chiqadi.

O’qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetika mashinalari yordamida bir xildan ikkinchisiga tarjima qilish, dasturli ta’lim va uni mashini orqali boshqarish, o’qitishni mustaxkamlash, baholash orqali boshqarish, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, toifalashtirilgan va yakka tartibda ta’lim berish, maktab hisobotini mashinialar yordamida tuzish kabi jarayonlar bajarilmoqda. Lekin xali Hozircha maktab ta’lim-tarbiya jarayonlariga matematik hisoblash va kibernetika yutuklarining kirishi sust, talab darajasida emas.

Nazoart topshiriqlari:

*qaysi metodning ilmiy-tadqiqotga daxli yo’q deb hisoblaysiz?*
*A. Kuzatish, suhbat.*
*B. Eksperiment (tajriba- sinov)*
*V. Muomalali ta’lim metodi.*
*G. Maktab hujjatlarini o’rganish.*
*D. Anketa va testlar.*
*O’qituvchilarning ijodiy ishlarini o’rganish.*
*A. Tarbiya berish metodi.*
*B. Mustaqil bilim olish metodi.*
*V. Ta’lim metodi.*
*G. Ilmiy-tadqiqot metodi.*
*D. O’z-o’zini tarbiyalash metodi.*
*Pedagogik eksperimentlar necha bosqichdan iborat bo’ladi.*
*A. Uch bosqichdan.*
*B. Ikki bosqichdan.*

*V. To’rt bosqichdan.*
*G. Boski bilan olib borilmaydi.*
*D. Ko’zlagan natijaga erishgunga kadar.*
*Pedagogika tarixiga doir tadqiqotlar olib borishda qaysi metoddan ko’prok foydalaniladi.*
*A. Eksperimentlardan.*
*B. Maktab va arxiv hujjatlarini tahlil qilish.*
*V. Suhbat.*
*G. Kuzatish.*
*D. Matematika-kibernetika.*
*Mustaqil ishlar, referatlar, ko’rs ishlari, talabalar anjumanlariga ma’ruzalar tayyorlaganingizda qanday ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalangansiz? qaysi biri yaxshi natija berganini yozma bayon eting.*
*Har bir metodni qanday tadbiq etish tartibini yozma bayon eting.*
*Bir vaktning o’zida bir qancha metodlardan foydalanilganda ularning natijalarini takkoslab, yaxlit xulosalar chiqarish yo’llarini ko’rsatib bering.*
*Guruhingizda o’zaro kuzatish va suhbat metodlaridan foydalanib, kichik tadqiqotlar o’tkazing.*
*Pedagogik ilmiy-tadqiqot natijalarini matematik jihatdan asoslash va ularni tahlil etish tartibini yozma bayon eting.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

*Karimov I. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.*
*Barkamol avlod orzusi. T., «SHark», 1999.*
*Pedagogika. A.K.Munavvarovning taxriri ostida. T., 1996.*
*Tursunov.I., Nishonaliev.U. Pedagogika ko’rsi. T., 1997.*
*Problemo’ metodologii pedagogiki i metodiki issledo-vaniy. Pod redaktsiey M. A. Danilova i N. I. Boldo’reva. M., 1971.*

MAVZU: MAKTABNI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH.

<u>Asosiy savollar (masalalar):</u>

*1.Boshqarish haqida umumiy tushuncha.*
*2.Boshqarish omillari.Maktabni ichki boshqarish.*

<u>Asosiy tushunchalar ( iboralar):</u>

Boshqarish, rahbarlik qilish,vaqolatli tashkilotlar, boshqarish omil-lari, ichki boshqarish, nazorat qilish,maslaxatli boshqarish.

<u>1-savol. Boshqarish haqida umumiy tushuncha:</u>

O’qituvchining maqsadi: Xalq ta’limi tizimini boshqarish haqida talabalarga tushuncha beradi. O’zbekistonda xalq ta’limining rivojlanish xususiyatlarini tushuntiradi.Boshqarishga qiziqish xosil kildiradi.

Identiv o’quv maqsadlari:

*Xalq ta’limi tizimini boshqarishning mohiyatini tushuntiradi.*
*«Ta’lim to’g’risida»gi qonunda xalq ta’limini boshqarish haqidagi moddalarni izohlab beradi.*
*Ta’lim tizimini boshqarishning vaqolatli tashkilotlari vazifalarini tahlil qiladi.*

1- savol bayoni:

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo’lgan,xaet va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir.Bozor iqtisodi sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi.Bunday ko’zlangan asosiy maqsad mehnat axlining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini kondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asonda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat.
Boshqaruv xalq manfaati ko’zlangan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi.O’z-o’zidan ravshanki,bunday boshqaruv jaraenida inson omioiga,xususan,millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e’tibor karatadi. Zotan, jamiyatimiz rivoji uchun boshqaruv xal qiluvchi kuchga ega bo’lmogi lozim.
Boshqaruv-tarakkietning har qanday bosqichda jamiyatga xos bo’lgani ichki xususiyatdir.Bu xususiyat umumiy harakterga ega. Zotan, bu xususiyat ijtimoiy jamoa mehnatida,turmush va mehnat jaraenida kishilarning o’zaro aloqa bo’lishi,o’z moddiy va ma’naviy faoliyatning maxsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.
Mehnat hamma davrlarda ijtimoiy harekterda bo’lgan va shunday bo’lib qolaveradi.CHunki,jamiyat qonuniyatlari shuni takoza etadi.Insonlar dunega kelib,ongli xaetlarini boshlashi bilanok uyushishga,birgalikda ishlashga ehtiyoj sezganlar.Birok,bu turli davrlarda turlicha kechgan.Barcha davrlarga xos yagona xususiyat boshqaruv jaraeni bilan izohlanadi.Mustaqil O’zbekiston respublikasida Xalq Maorifi keng eyilishi,miqdor va sifati jihatidan jadal usishi ,turli xildagi ta’lim tizimi va ta’lim muassasalaridan tashqari o’quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi,ta’lim va tarbiya jaraenini boshqarishning juda zarurligini takoza etadi.Sotsial boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus soxasi qilib ajratiladi.Pedagogik jaraenlarni ,xodisalarni va ob’ektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur Bu holda pedagogik boshqarish tushinchasi qo’llaniladi.Barcha tipdagi o’quv yurtlari,maktabdan tashqari muassasalar,xalq maorifi bo’limlari va boshqalar asosiy boshqarish ob’ektlariga kiradi.Ta’lim –tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi pirovard natijada yagona asosiy maqsadga erishishga,ma’lum darajada umumiy ma’lumot darajasi va kasbiy tayergarligiga ega bo’lgan har tomonlama rivojlangan va imon-e’tikodli qilib tarbiyalangan kishini

tarkib toptirishga qaratilgandir. Xalq maorifi tizimi tarkibiga vazirliklar, tuman xalq maorifi bo’limlari ,maktablar ,litsey kasb-xunar kollejlari kiradi.
Ta’lim-tarbiya jaraenini tashkil qilish ,ta’lim tizimini boshqarish O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risidha»gi qonunida ko’rsatib berilgan ,Ular quyidagilardir:
25–modda: O’zbekiston Rkspublikasi Vazirlar Maxkamasining ta’lim soxasidagi vaqolatlariga kuydagilar kiradi:

*-ta’lim soxasidagi davlat siesatini amalga oshirish:*
*-ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan,pedagog,ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish tartibini belgilash:*
*-boshqa davlatlarning ta’lim muassasalariga O’zbekiston Respublikasining xududida ta’lim faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish*
*-qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to’g’risidagi hujjatlarni tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash:*
*-davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash:*
*-davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to’g’risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash:*
*-davlat grantlari miqdorini va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash:*
*-davlat oliy ta’lim rektorlarini tayinlash:*
*-ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasadan boshqasiga o’tkazish tartibini belgilash:*

26-modda: Ta’lim boshqarish bo’yicha vaqolatli davlat organlarning huquqiy doirasi.
Ta’limni boshqarish bo’yicha vaqolat organlarning huquq dorasiga quyidagilar kiradi:

*-ta’lim soxasida yagona siesatni ruebga chiqarish:*
*-ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish:*
*-davlat ta’lim standartlari,mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayergarligiga bo’lgan talablar bajarilishini ta’minlash:*
*-davlat ta’lim muassasalarini moliyalash Respublika va maxalllliy buyujetlar mablag’lari, shuningdek,buyujetdan tashqari mablag’lar hisobidan amalga oshiriladi:*

32-modda: Ta’limni rivojlantirish fondlari. Ta’limni rivoj rivojlantirish fondlari.
Ta’limni rivojlantirish fondlari qonun xujatlarida belgilingan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin. Xalq ta’limi vazirligi O’zbekiston Respublikasi maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar bogchalarga rahbarlik qiladi. Oliiy va o’rta maxsus ta’lim vaziriligi barcha universitetlarga ,kasb-xunar kollejlariga ,litseylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi.Oliy o’quv yurtlari uchun o’quv rejalari va dasturlar ishlab chiqadi va

tasdiqlaydi.Xalq ta'lim vazirligi «Ta'lim haqida»gi qonunning bajarilishi,maktablarda o'quv- tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy ba'zasi, o'qituvchilarning malkasi va kattalar ta'limining tashkil etilishi uchun javob beradilar.Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv metodik bo'limlar tashkil etiladi.Ular pedagogika jamotchiligini xalq maorifi bo'limlari va maktablarga yordam berishga jalb etadilar. Tuman, xalq maorifi bo'limlari o'zlariga qarashli maktablari faoliyatini, maxalliy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda nazorat qiladilar.

Nazorat topshiriqlari:
*Boshqarish va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.*
*Xalq ta'limi tizimini boshqarishning obektlarini aniqlang.*
*A. O'qituvchilar jamoasi.*
*B. Ota onalar va jamoatchilik.*
*V. Barcha turdagi o'quv yurtlari, maorif muassasalari.*
*G. Ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar.*
*D. Madaniy okartuv muassasalari.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonunning qaysi moddasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ta'lim soxasidagi vaqolatlari ko'rsatib berilgan.*
*A. 15 moddada.*
*B. 23 moddada.*
*V. 25 moddada.*
*G. 30 moddada.*
*D. 32 moddada.*
*«Ta'lim to'g'risida» qonunning 26 moddasida nimalar ifodalangan?*
*A. Talim tizimini taraqqiy ettirishning asosiy tamoyillari.*
*B. Ta'lim boshqarish bo'yicha vaqolatli davlat tashkilotlarining huquqiy doiralari.*
*V. Xalq ta'limining xalqaro aloqalari.*
*G. Ta'limni moliyalashning tartibi.*
*D. Ta'lim ishtirokchilarini ijtimoiy himoyalash tartibi.*
*Davlat ta'lim standartlari kim tomonidan tasdiqlanadi?*
*A. Vazirlar Maxkamasi tomonidan.*
*B. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan.*
*V. Bosh Vazir tomonidan.*
*G. Xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan.*
*D. Oliy ta'lim vazirligi tomonidan.*
*6. O'zbekiston Respublikasida ta'lim soxasini boshqaruvchi vaqolatli tashkilotlarning vazifalarini yozma ifodalab bering.*

2-asosiy savol: Boshqarish omillari. Maktabni ichki boshqarish:

O'qituvchi maqsadi: Talabalarga xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarish haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

*Xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini tushuntirib beradi.*
*Talabalarga xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini asoslab beradi.*
*Talabalarga xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini sharxlab beradi.*

<u>2-asosiy savolning bayoni:</u>
Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob'ektlarga ta'sir ko'rsatishning u yoki bu yunalishlarini tushunmok kerak. Rejalashtirish, tashkil qilish,sozlash, nazxorat qilish,hisob kitob qilish omillari boshqaruv omillari hisoblanadi. Rejalashtirish-boshqariluvchi ob'ektlarni rivojlanti-rish va modellashtirishni prognoz qilishni ham o'z ichiga oladi.Tashkil qilish esa ishlab chiqarish ob'ektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlab hamda shakllantirishdir. Tizimining elementlari o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro harakatini belgilashdir.
Sozlash-tizimning turli elementlari o'rtasidagi nisbatni to'tib turishga, boshqariluvchi ob'ekt ishlayotganda rej a-topshiriqlardan chetga chikib ketishga yo'l kuymaslikka qaratilgandir. Bundan tashqari,har bir xodimning faoliyatini sozlab borishni ham anglatadi.Nazorat qilish-ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini rejaga qanchalik muvofiqligini ko'zatib va tekshirib turishda,shuningdek har bir xodim faoliyatini tekshirishdan iboratdir.Nixoyat hisob kitob qilish esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir.SHuni tukidlab o'tish lozimki, yuqoridagi sanab utilgan boshqarish omillaritni xalq xujaligining xoxlagan soxasiga,jumladan maktab-maorif soxasiga ham to'liq ma'noda tadbiq qilish mumkin.
Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Bu boshqarishning muhim shartlaridan biridir. Boshqarish tizimida tashkilotchilik juda katta ahamiyat kasb etadi. Tashkilotchilik ijro bilan diolektik birlikni tashkil etadi. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan direktiv topshiriq va xujatlarning kat'iy va so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, u yoki bu qarorga zarur to'zatishlar kiritish, bundan buyongi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishiining shakl, metod va yangi usullarni belgilash imkonini beradi.
qaror bilan ijroning birligi to'g'ri rahbarlik uslsbining negizini tashkil etadi. Ishning bu xilda tashkil etilishi o'qituvchi va tarbiyachilarda o'ziga hamda boshqarishga nisbatan yuksak talabchanlik fazilatlarni tarbiyalaydi, ishga nisbatan mas'uliyat xissin kuchaytiradi, intizomni mustaxkamlaydi va shu kabilar.Boshqarishining rejalik qoidasi, boshqarish tizimidagi akidalarning eng muhimi hisoblanadi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab boshqaruvida muayyan tizim bo'lishi kerak. Buning ma'nosi avvalo shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir –biriga aloqasi bo'lmagan tadbirlar yigindisidan iborat emas. Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug'ullanuvchi kishilar (Maktab derektori uning o'rinbosarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, uslubiy birlashma rahbarlari,kasba ushmasi tashkilotining raisi ) bashkaruvchilik jamosini tashkil etadi.
Maktabda boshqarish tizimi asosan ikkiga bo'linadi:

Maktab rahbarlari va o'qituvchilar, tarbiyachilar yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, uslub birlashmalarining a'zolari, texnik xodimlar.
Boshqarish soxasidagi ijrochi xodimlarni ham ikkita asosiy guruhga A mutaxassislarga (o'qituvchi va tarbiyachilrga ) B texnik xodimlarga (laborant, farrosh, elektr mantiyor, maktab korovuli kabilarga) bo'lish mumkin. Maktabga o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni joy joyga qo'yish maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida kuydagi koydalarga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab xodimlarini tanlashda ularning siyosiy bilimini, xalolligini , ishini bilishini hisobga olish zarur. Bu o'rinda ishning ko'zini bilish, ishchanlik ,uyushkoklikni ta'inlash boshqaruv aparati ishidagi asosiy vazifa ekanligi anglash lozim. Umum ta'lim maktablarida boshqaruvchilarning boshqarish madaniyatini oshirish va uni demokratlashtirish Hozirgi bozor iqtisodi davrining muhim talablaridan biridir. SHuni alohida takidlash kerakki, Hozirgi islohatlar davridagi xujalikni bshkarish va unga rahbarlik qilish konstitutsiyaviy qoidalar, milliy akidalar asosia olib boriladi. Maktabni boshqarish shakillari va usullari jumxuriyatimiz iqtisodiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyat xal qilishi lozim bo'lgan vazifalarga muvofiq o'zgarib, takomillashib borishi mumkin. Mumkin Ammo jumxuriyatimiz iqtisodiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham, Ayniqsa Hozirgi islohatlar davrida ham xalq ta'lim soxasini boshqarishning qoidalari va mazmuni o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Demak , maktab ichki boshqaruvni to'g'ri tashkil qilish- Hozirgi davrning muhim talablaridan biridir. Biz ana shu boshqarish qoidalarga alohida tuxtalib o'tishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.Demokratiyalash qoidasi . Xalq ta'imi tizimi va maktabni boshqarishning eng muhim qoidasi- demokratiyalashtirish. Bu akida Hozirgi mustaqillik davrida jamiyatni yanada demokratlashtirish muhim va dolzarb muammolardan biridir.
Demokratik akida vazifalarni xal etishdagi shunchaki anzachilikka ham, shuningdek ko'pchilikning xoxish-irodasini mensimaslikka ham, maxalliy organlarni mehnat jamolarining manfatlariga karama- karshi qo'yishga ham tokat kila olmaydi. Uning amalga oshirilishi tashabbus va izlanishning jamiyat qonunlari va normalariga bekami-kust rioya etishga asoslangan mustaxkam intizomlilik, namunali uyushkoklik bilan uzviybirligini takoza etadi.Maktablarni boshqarishda, Ayniqsa, demokratik akida , qonun-koydalar nixoyatda muhim. Bu o'rinda fikr olishuv,maslaxat ta'lim –tarbiya jarayonida zaruriy omil ekanini alohida takidlash lozim.
Boshqarishning ilmiyligi Hozirgi bozor iqtisodi sharoitida ijtimoyi taraqqiyot qonunlarini toboro to'larok bilib borish bilan belgilanadi. Xujalikni ilmiy asosda boshqarish koydasini amalga oshirishning uchta asosiy sharti mavjuddir: a)ishlab chiqarishni boshqarnishni ilmiy negizlarini butun choralar bilan rivojlantirishni, ishlab chiqarishni boshqarishning turli muamolarini ishlab chiqaruvchi ilmiy tadqiqot muassalari tarmogini barpo etish;b) boshqaruvchi xodimlarni tayorlash va qayta tayorlash , ularning malakasini oshirish tizimini tashkil qilish hamda hamda uni yanada takomillashtirib borish; v) ishlab chiqarishni boshqarishning,jumladan, maktab-maorifini boshqarishning eng yaxshi tajribasini o'rganish, umumlashtirish va

ommalashtirish. Har bir rahbar xodim o'zi boshqaraetgan xujalikda eki o'quv yurtida ana shu uchta shartga to'liq rioya qilishi kerak.

Maktabda pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish muammosi ko'pincha darsda vaqtdan unumli foydalanishdan ,sinfdan tashqari tadbirlardan va o'qituvchi-tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarni tartibga solishdan iborat deb karaladi. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib,unga,avvalo,xodimlarning malakasi,qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish,qayta tayerlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilaetgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jaraeniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.Unda pedagogik ish rejimini,maktabning kunlar,xaftalar,oylar va choraklar bo'yicha ish tartibini takomillashtirish,pedagoglar kengashi majlislarini,ilmiy-uslubiy va pedagogik harakterdagi konferentsiyalar, yigilishlar, kengashlar kabi tadbirlrni o'tkazish va bu ishni moxirona rejalashtirish hamda boshqarishni takomillashtirish nazarda tutiladi.

Boshqarishning jamoatchilik qoidasi va mas'uliyatlar –to'g'ri boshqarish va rahbarlik qilishning oliy bosqichidir. Bu qoida boshqarish tizimida salmokli o'rinni egallashi bilan birga ommaning ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, jamoa va uning maslaxati to'g'ri rahbarlikning garovidir. Jamoa yo'li bilan xujalikni boshqarish va unga rahbarlik qilish, eng muhim qarorlarni birgalikda, maslaxatlashib ishlab chiqish to'g'ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir. Maktabdagi har bir shaxsning muayyan o'rni bo'lishi lozim, shuningdek u aniq va kat'iy belgilangan reja hamda topshiriq orqali amaliy ishlarni bajaradi. Bularning barchasi, albatta, ta'lim –tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish va mustaqillik mavko'rasi manfaatlaridan kelib chiqishi zarur.

<u>Nazorat topshiriqlari:</u>

*Boshqarishning muhim omillari to'g'risida yozma bayon qiling*
*Boshqarish omillarining mohiyatini izohlang*
*Maktab ni kim boshqaradi.*
*A. Vazirlar Maxkamasi.*
*B. Xalq ta'limi Vazirligi.*
*V. Maktab direktori*
*G. Pedagogik kengash*
*D. Ota-onalar kumitasi.*
*qaysi javobda boshqarish soxasidagi ijrochi xodimlar guruhi to'g'ri ko'rsatilgan?*
*A. Mutaxassislar va boshqaruv organi*
*B. Mutaxassislar va texnik xodimlar*
*V. Ped.kengash va tex.xodimlar*
*G. Ped kengash va direktor.*
*D. Direktor va mutaxassislar*

<u>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:</u>


1. I.A.Karimov. «Yuksak manaviyat yengilmas kuch» T. “ Ma’naviyat » , 2008
2. O’zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi. – T.: O’zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. Uzbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O’zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O’zbekiston, 1997.
5. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi” Qonuni. – “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – 20-30-betlar.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. – T.: Sharq, 1997. – 31-63-betlar.
7. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov va b. T.,1999
8. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.:O’zbekiston, 2001.
9. Pedagogika / prof. A.K. Munavvarov tahriri ostida. – T.: O’qituvchi, 1996.
10. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. – T.: O’qituvchi, 2001.
11. Podlasыy I. P. Pedagogika. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2003.
12. Pedagogika / Pod red. P. I.Pidkasistogo. – M., 1998.
13. Lixachev B. T. Pedagogika. - M.: YUrayt, 2003.
14. Slastenin V.A., Isayev I. F., SHiyanov YE. N. Obщaya pedagogika. V 2-x kn. – M.: VLADOS, 2002.
15. Kaldibekova A.S., Xodjayev B.X. O’quvchilarning bilish faolligini oshirish yo’llari – T., 2006.
16. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi – T.: O’qituvchi, 1994.
17. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. – T., 1999.
18. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi., Nasaf, 2000.
19. Kolechenko A.K. Entsiklopediya pedagogicheskix texnologii. – Sank-Peterburg.: KARO, 2005.
20. G’ulomov S.S va boshq. Axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: Sharq, 2000.

20\. Barkamol avlod o’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T .1997

21\. Tursunov I .Nishonaliev.G Pedagogika T.1997

22\. Munavvarov A.K. Pedagogika T. 1996